

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI KAFEDRASI

**DTS ASOSIDA MAKTAB DARSLIKLARI BILAN
ISHLASH FANIDAN
ma‘ruza matni**

Jizzax - 2014-2015

A N N A T A S I Y A

Mazkur ishchi dastur O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'quvchi va talabalarni darsliklar yaratish tarixi va ular bilan ishlashga o'rgatish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, uning maqsadi o'quvchilarning darsliklar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish orqali oliy ta'limda o'tilayotgan mavzular bilan o'rta maktabda o'tiladigan mavzularning mutonosibligini ta'minlashdan iborat.

Dastur DTS talablari asosida tuzildi.

**Tuzuvchilar: Ped.fan.nom. Q.M.Yadgarov
O'qituvchi O.Xidirov**

**Taqrizchilar: fil.fan.nom.dotsent T.Almamatov
dotsent B.Fayzullayev**

**O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining 2 kurslarida “DTS asosida maktab darsliklari bilan ishlash” talaba tanlov fanining
DASTURI**

SO‘Z BOSHI

Maktab o‘quv predmetlari ichida ona tili va adabiyot fanlari salmoqli o‘rin egallaydi. O‘qituvchining milliy yetukligi, mafkuraviy yuksakligi, komil ongli bo‘lishini ta‘minlash, savodxonligini oshirish va takomillashtirish, asosan ona tili va adabiyot o‘qituvchilari zimmasiga yuklangan. O‘quvchilarning aqliy rivojlanishi, tafakkur taraqqiyoti ona tilining qonun-qoidalarini o‘rganish orqali shakllansa, go‘zalikka intilish, tabiatni sevish, do‘stlik, insoniylik, odoblilik kabi fazilatlari adabiyot darslari orqali shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Fikrni, xis-tuyg‘ularni, kechinmalarni to‘g‘ri va chuqurroq, aniq ifodalash uchun tilni bilish kerak. O‘quvchilar o‘z tillari orqali shu tilni yaratgan xalqqa vatanga muxabbat tuyg‘ulari bilan qaraydilar.

Ona tili va adabiyot mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qiluvchi, ayni vaqtda tarbiyachi va ijodkor hamdir. So‘z va gaplarning mazmuniy bog‘lanishi orqali obyektiv borliqdagi narsa va xodisalar ifodalanadi hamda tinglovchiga yetkaziladi. Bular haqida tushuncha, bilim va malaka berish ona tili va adabiyot o‘qituvchilari zimmasiga yuklatiladi.

Institutda o‘qitiladigan ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi kurslarida o‘rta maktablarda ona tili va adabiyoti o‘qitishning umumiy nazariy tomonlari o‘rgatiladi.

Xozirgi o‘quv rejalarda ona tili va adabiyot o‘qitish metodikalaridan dars soatlari zaruriy materiallarni o‘zlashtirish uchun qisqalik qiladi, ya‘ni mashg‘ulot va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun 50 soatdan vaqt ajratilgan. Birinchidan, bu ajratilgan soat ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi predmetlarini atroflicha o‘tish imkoniyatini bermaydi. Ikkinchidan, studentlar 4- kurs pedagogik praktikaga chiqqan paytlarida metodikani o‘qiganiga bir muddat o‘tgan bo‘ladi. Uchinchidan, studentlar pedagogik amaliyot o‘tayotganda maktabda o‘tiladigan ona tili va adabiyot materiallari institutda o‘tilayotgan hozirgi o‘zbek adabiy tili va o‘zbek adabiyoti kurslariga mutanosib kelmaydi. Ya‘ni institutda o‘tiladigan mavzular nisbatan orqada qolgan. To‘rtinchidan, umuman maktab darsliklari bilan to‘la tanishib, ularni tahlil qilib maktabga borish koni foyda bo‘ladi. Ana shunday muloxazalardan kelib chiqib, o‘zbek tili va adabiyoti fakultetining 1- kurslaridan boshlab “O‘rta maktab ona tili va adabiyoti darsliklari bilan ishlash” talaba tanlov fanini o‘quv rejasiga kiritishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Bu fanning maqsadi studentlarga o‘rta maktab darsliklarini tahlil qilib berishdir. Darsliklardagi ayrim muammoli munozarali o‘rinlarni studentlarning e‘tiboriga yetkazish kerak bo‘ladi. Chunonchi, 6- sinf ona tili darsligida “Paronimlar” mavzusiga leksikadan o‘tganlarni takrorlash qismida qisqacha to‘xtalgan. Uni o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham e‘tibordan chetda qoldirish mumkin.

“Fe’l nisbatlari” mavzusida uzlik nisbatining Ish affiksi bilan yasalishi haqida aytilmasdan, ish affiksli uzlik nisbatidagi fe’llar ishtirok etgan mashqlar darslikda berilgan.

Yangi maktab adabiyot dasturidagi o‘quvchilarga hozirgi bizning talabalarga butunlay notanish bo‘lgan 40 ta avtorlarning mumtoz adabiyot namunalari 20 soatlik xajmda berilgan. Ushbu dasturdagi notanish badiiy asarlar institut o‘quv programmasida yetarlicha o‘qitilmayapti. Ushbular xisobiga bizning shogirdlarimiz maktabda pedagogik amaliyot va ishlash jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Asarlar tahlili, talqini, lug‘at bilan ishlash jarayonlari ham juda og‘ir kechmoqda. Misol uchun, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, A.Navoiyning ba’zi g‘azallari, “Xayrat ul-Abror” dostoni, “Irk bitigi”, Imom Ismoil Al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad”, Ahmad Yassaviy “Xikmatlari”, Xuvaydo, Rabguziy, Paxlavon Mahmud, Firdavsiy, Xofiz Sheroziy kabilarning asarlarini baytma-bayt o‘rganib chiqishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, mavzular yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar yechishda qiyinchiliklar tug‘ilmoqda. Bu kabi masalalarni xal qilish talabalarimizdan muayyan bir malakani talab qiladi. Ularda yangicha qarash, mushoxada qilishni shakllantirish lozim. Shularni xisobga olib ushbu talaba tanlov fanini 1-semestrda boshlab o‘qitishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

Bu kursning o‘tilishi O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim Vazirligi 1997 yil 2 martdagi pedagogika institutlari talabalari orasida test-sinovlarini o‘tkazish haqida 64-rusumli buyrug‘ining 1,5 bandiga ham mos keladi.

**MA'RUZA
MASHG'ULOTI**

KIRISH

YANGILANGAN TA'LIM MAZMUNI HAQIDA MULOHAZALAR

ONA TILI

Yangi ta'lim tizimiga muvofiq yaratilgan ona tili DTS va o'quv dasturida an'anadagi "grammatika – grammatika uchun" qolipidan voz kechilib, "grammatika – fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun" shiori asos qilib olingan.

Ona tilidan DTSda grammatik qoidalarni bilish bilan bir qatorda o'quvchining fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon qila olishni egallashga alohida e'tibor berilgan.

Ona tili DTSga muvofiq tuzilgan yangi dasturning avvalgi dasturdan asosiy farqi quyidagilardan iborat:

-avvalgi dasturda o'quvchiga ma'lum miqdordagi bilimni o'rganish obyekti, o'qituvchiga esa o'rganish jarayonining subyekti sifatida yondashilgan. Yangi dasturda o'quvchi o'rganish jarayonining subyekti, ya'ni faol ishtirokchisi, o'qituvchi esa bu jarayonning boshqaruvchisidir. Shuning uchun mashg'ulotda izlanishlarni asosan o'quvchi bajaradi;

-ta'lim –mutolaa usuli avvalgi dasturda, asosan, deduktiv (qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka) bo'lsa, yangi dasturda esa induktiv (tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikka)dir. Bu mashg'ulot mavzusi ko'rsatilibgina qolmay, mavzu bilan qanday ishlash kerakligi ham tushuntirib berilgan;

-avvalgi dastur o'quvchiga ko'proq nazariy bilim, tilning grammatik talqinini berishga mo'ljallangan edi. Yangi dasturda ayni bir mazmunni turli usulda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish, bu ishda o'quvchilarga mustaqillik va erkinlik berishga katta e'tibor qaratilgan;

-avaalgi dastur ona tilini o'qitishda "grammatikadan – nutq o'stirishga" yo'naltirilgan bo'lsa, yangi dasturda "nutq o'stirishdan – grammatikaga" qarab boriladi. Bu ona tilini o'qitish uchun ayni muddaodir;

-avvalgi dasturda o'zbek tilshunosligi rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar haqida axborotlar berilmagan. Yangi dasturda o'zbek tili haqida umumiy ma'lumot va matnlar orqali o'zbek tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar haqida axborotlar berilgan.

Yangi dasturda o'zbek tili materiallarini berishda 5-sinfdan 9- sinfgacha uzviylik va bog'liqlik saqlangan: fonetika, imlo, to'g'ri talaffuz, lug'at boyligi, morfologiya va intaksis materiallari muayyan ketma-ketlikda va bir-birlari bilan qamrab olingan. Har bir yirik va kichik bo'limlar negizida uslubiyotga – nutq o'stirishga aloqadorlik sezilib turadi. Ular an'anaviy tartibda emas, balki o'quvchi nutqini shakllantirish va o'stirishga bo'ysundirilgan holda taqdim etilgan.

ADABIYOT

DTS va yangi dastur mazmunida xalq og'zaki ijodi, o'zbek, qardosh turkiy va jahon adabiyotining namunalarini o'rgatishning yangicha usuliga asos solingan.

Adabiy materiallar davriy tizimda emas, oddiydan murakkabga boruvchi mavzular atrofiga birlashtirilgan.

Yangi dastur bo'yicha 5-sinf dan boshlab izchil tarzda o'rganiladigan adabiyot mazmuni sinfdan-sinf ga murakkablashib boradi. Quyi sinflarda o'quvchilarga ko'proq xalq og'zaki ijodidan namunalar, o'zbek adabiyoti namoyandalarining asarlari berilsa, yuqori sinflarda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlari bilan tanishtirish ustun turadi.

Avvalgi dastur ko'proq mumtoz adabiyot namunalaridan iborat bo'lib, o'quvchilarni ancha qiynab qo'ygan edi. O'quvchilar bir xillikdan ko'ra, rang-baranglikni yoqtiradi. Shu bois ta'lim mazmunida rang-baranglikka ahamiyat berilgan. Jumladan, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasini o'qigan o'quvchi ajdodlarimiz urf-odatlarini, milliy qadriyatlar, yigit kishining qanoti bo'lmish ot, o'zbeklarga xos kurash san'ati haqida ma'lumotga ega bo'ladi, ma'naiy boyiydi.

Yangi dastur bo'yicha o'quvchi o'qitilmaydi, o'qishga o'rgatiladi, o'quvchi adabiy mashg'ulotlarda faol ishlaydi, uni faqat yo'naltirib borish kerak. U dars jarayonida izlanadi, matn bilan ishlaydi, tahlil qiladi, bahs – munozaralarga kirishadi. Bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham chetda turmaydilar.

Adabiyot ta'limi mazmunidagi eng muhim yangilik, asar talqinidir. Avvalgi dasturlarda hamma narsa tayyor holda berilar, avval muallif haqida ma'lumot, so'ng asar matni, oxirida o'sha asar tahlili taqdim etilardi. Bu bir qarashda o'quvchi va o'qituvchi uchun qulay edi. Yangi dasturda shu "qulay" usuldan voz kechilgan. Buning o'rniga o'nalb savol-topshiriqlar berilganki, bu usul o'quvchini ham o'qituvchini ham mustaqil ishlashga, fikrlashga majmur etadi.

Yangilangan dasturning eng muhim jihatlaridan yana biri, badiiy matn bilan ishlash va uni yangicha tamoyillar bilan tahlil etishga qaratilganligidir.

O'quvchi matn bilan ishlash chog'ida qahramon holatiga tushadi, uning hayotini o'z hayoti bilan taqqoslab ko'radi va shu tariqa unda umuminsoniyat tomonidan maqbul deb topilgan axloqiy me'yorlar shakllana boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy ta'lim asosida hech kimga o'xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, xulosa chiqara biladigan, qahramon holatini his etadigan, o'z galar dardiga sherik bo'ladigan, ularni tushunadigan va shu asnodda o'zini ham "kashf" eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi.

**MAVZU: № 1. ONA TILIDAN TA'LIM MAZMUNINI YANGILASH
MUAMMOLARI
REJA**

1. Ta'lim mazmuni va uning tarkibiy qismlari;
2. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi;
3. Ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi;
4. O'quvchilarni ijodiy faoliyat usuliga o'rgatish;
5. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi.

Maktab o'quv predmetlari ichida ona tili va adabiyot fanlari salmoqli o'rin egallaydi. O'qituvchining milliy yetukligi, mafkuraviy yuksakligi, komil ongli bo'lishni ta'minlash, savodxonligini oshirish va takomillashtirish, asosan, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga yuklangan. O'quvchilarning aqliy rivojlanishi, tafakkur taraqqiyoti ona tilining qonun-qoidalarini o'rganish orqali shakllansa, go'zallikka intilish, tabiatni sevish, do'stlik, insoniylik, odoblilik kabi fazilatlar adabiyot darslari orqali shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Maktab ta'limi tarixida nimani o'qitish va qanday o'qitish masalalari asosiy muammolardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Bular garchi alohida-alohida masalalar sanalsada, ammo aslida bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Ta'lim samaradorligi ma'lum darajada ana shu ikki masalaning o'z yechimini to'g'ri topa olishi bilan belgilanadi.

O'rta umumta'lim maktablarida ona tilidan o'quvchilar nimani o'zlashtirishlari va nimalarni bilishlari lozimligi bugungi kunda ham holi uzul-kesil hal bo'lgan masala emas. Chunki uzoq yillar davomida biz maktabda o'rganiladigan barcha fanlar qatori ona tilidan ham mutloq dastur va darsliklar yaratishni ma'qullab, uni tubdan yangilash, o'zgartirishga qaratilgan har qanday harakatni qoralab keldik. Bu ona tilidan ta'lim mazmunining diyarli bir nuqtada deysinishiga, 50-yillarda maktab darsliklaridan o'rin olgan nazariy talqinlarning ayrim juz'iy o'zgarishlar bilan yildan-yilga ko'chirilishiga sabab bo'ldi, (mos. 8-9-sinf). Maktab ona tili dasturlari va darsliklarida mavjud bo'lgan akademizm grammatizm va berilgan til hodisalarining o'quvchi amaliy faoliyatidan ajralib qolganligi uni o'rganish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi, o'quvchilarning bu fanni katta qiziqish bilan o'rganilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Biz til hodisalarini o'quvchining ijodiy fikrlashi, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, talaffuz, imlo va punktuasion savodxonlikka erishish nuqati nazaridan kelib chiqib tanlashga harakat qildik.

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, uning o'rta umumta'lim maktablarida o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik masala sanaladi. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanishi, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan

oʻrni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil rispublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi koʻndalang boʻlib turgan bir sharoitda bu fanning oʻqitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Ammo, afsuski, oʻrta umumtaʼlim maktablarida ona tilini oʻqitilishini talab darajasida deb boʻlmaydi. Buning bosh sabablaridan biri shundaki, biz inson ongini, uning tafakkurini rivojlantirishda ona tilining tutgan oʻrniga notoʻgʻri baho berib keldik. Ongni, tafakkurni shakllantirish ijtimoiy fanlarning vazifasi deb bilib, maktabda ona tilidan taʼlim mazmunini ona tili qurilishining ilmiy talqini, grammatikani oʻrganishdan iborat deb hisobladik. Natijada oʻquvchi 750 dan ziyod grammatik tushuncha va murakkablikdagi koʻplab topshiriqlarni bajarsa-da, ammo ogʻzaki va yozma savodxonligi sezilarli oʻzgarmayapdi. Oʻquvchilarning koʻpchilik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki, yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash koʻnikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda. Bu holning asosiy sabablarini faqat oʻqituvchiga tznkash adolatsizlik boʻladi. Mavjud holat koʻp jihatdan ona tili taʼlimining maqsadi, mazmuni va usuliga aloqador boʻlib, uni yangilash hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.

Taʼlim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki odamlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarda “Nimani oʻqitish kerak?” degan savolga hamisha javob izlab kelganlar va izlamoqdalar.

Adabiyotlarda “Taʼlim mazmuni” tushunchasi bilan bir qatorda “oʻquv materiali” tushunchasi ham qoʻllaniladi. Oʻquv materiali keng maʼnoda “taʼlim mazmuni” tushunchasiga teng boʻlsa, tor maʼnoda maʼlum bir darsda oʻrganilishi lozim boʻlgan va oʻquvchilarning oʻzlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalar tizimidir.

Taʼlim mazmuni oʻquv rejalari, dasturi va darsliklar hamda oʻquv-tadrisiy (metodik) qoʻllanmalarda oʻz ifodasini topadi. Ona tili dasturi va darsliklarida oʻquvchilarning oʻrganishlari uchun tanlangan va ularning oʻzlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini oʻz ichiga oladi.

Pedagogika va ona tili metodikasi fanlarining soʻngi yillardagi yutuqlariga tayangan holda biz taʼlim mazmunini quyidagi toʻrt tarkibiy qismidan iborat birlik, deb tushunamiz.

1. Oʻquvchilar egallashi zarur boʻlgan bilimlar tizimi;
 2. Ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy koʻnikma va malakalar tizimi;
 3. Oʻquvchilarni ijodiy faoliyat usullariga oʻrgatish;
 4. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatlar tizimi.
2. Ona tilidan taʼlim mazmunining birinchi muhim tarkibiy qismi oʻquvchilar egallashi zarur boʻlgan bilimlar tizimidir. Ona tilidan bilimlar tizimi deganda bir-biriga uzviy bogʻliq boʻlgan til faktlari, tushunchalari, qoidalar, taʼriflar tizimi tushuniladi.

Ma'lumki, asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plagan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zaruriyati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biri sanaladi.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishi uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz.

3. Ta'lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismini tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda ko'nikma va malakalarga quydagicha ta'rif berilgan: Ko'nikma-insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir. Malaka – esa muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir.

Dastur va darsliklar faqat o'quvchilarning ona tilidan bilishlari lozim bo'lgan til hodisalarini emas balki ularni bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga olishi kerak.

O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalarning unumdorlik darajasiga ham alohida e'tibor berishiga to'g'ri keladi. Ma'lumki, ko'p hollarda ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar egallayotgan ko'nikmalar, asosan, tilning grammatik qurilishini o'rganishga qaratiladi, ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrni bayon qilishning samarali yo'llarini aniqlash kabi foydali amaliy ko'nikmalar birmuncha chetda qoladi. Shuning uchun ona tili dasturi o'quvchilarni ko'proq ana shu foydali amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishga yo'naltirilishi lozim.

4. Ta'lim mazmunining uchunchi tarkibiy qismi o'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatishdir. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ijldiy darajada bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning qayta xotirlash faoliyati egallangan bilimlarni qayta eslash, uni xotirada tiklash, o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab aynan bajarishga asoslangan faoliyatdir. O'qituvchiga ergashish yoki namunaga qarab ishlash bolaning faollik darajasini chegaralaydi. Chunki bu holatda o'quvchi izlanishga ehtiyoj sezmaydi. Ayrim pedagogik adabiyotlarda faollikning bu ko'rinishi reproduktiv faoliyat deb ham nomlangan.

Faollikning ikkinchi bosqichi qisman izlanuvchanlik faoliyatidir. Bu bosqichda o'quvchi ma'lum yordamga asoslangan holda til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi va uni aniqlashi, oldin egallagan bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim. O'quvchi zarur yordamni darslik va qo'llanmalardan, o'qituvchining so'zidan yoki bolalarning suhbatidan olishi mumkin.

Faollikning uchunchi bosqichi ijodiy faoliyatdir. Bu bosqichda o'quvchi hech qanday tashqi yordamsiz olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda amalda qo'llab

olish, faoliyati uchun zarur bo'lgan lekin o'zida bo'lmagan bilimlarning manbalarini bilishi, bu manbalardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, sharoit talabiga ko'ra ularni topa olishi va qo'llay olishi talab etiladi.

Faoliyatning birinchi bosqichi qanchalik zarur bo'lmasin, u faqat ikkinchi va uchunchi bosqich talablarini qondirish maqsadigagina xizmat qiladigan bo'lishi shart. Agar o'tilgan narsalar yangi bir ko'nikma, yangi bir ijodiy, amaliy faoliyat muammolarini o'zlashtirishga xizmat qilmasa, ularni eslashdan hech bir foyda so'q. Shuning uchun ona tili dasturi va darsliklari ko'proq faoliyatning ikkinchi va uchunchi darajalariga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Bolaning ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko'p asoslansak, ta'limning samardorlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

5. Ta'lim mazmunining to'rtinchi muhim tarkibiy qismi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimidir. Bu munosabatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanmog'i lozim. Ta'limning mutolaa usuli deduktivdan (qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka) induktivga (tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikka) ko'chirilsagina, bu hamkorlikka keng yo'l ochildi. Shuning uchun dasturda mashg'ulot mazmunini ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, mazmunni o'quvchiga qanday yetkazish kerakligi ham ko'rsatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim mazmunining yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlari bir-biriga shu darajada aloqadorki, ularning biri bo'lmasa ikkinchisi ko'zlangan natijani bermaydi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlar tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ijodiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalar asosida yuzaga chiqdi. Ijodiy tajribaga asoslanmay turib, hamkorlik pedagogikasini amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ona tili dasturiga kiritiladigan va darsliklarda yoritiladigan har bir mavzu yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning har to'rtalasini ham qamrab olmog'i lozim.

Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanmasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va to'rtinchi qismlarni, aylana doirasi esa ijodiy amaliy ko'nikmalarni tashkil etadi.

MAVZU: №2 ONA TILI TA'LIMI MAZMUNINI YANGILASH ZARURIYATI

REJA

1. Ijtimoiy – iqtisodiy zaruriyatlar.
2. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning tadirsiy zaruriyatlari.
3. Ilmiy zaruriyatlar.

Rispublikamizning o'rta maktablarida ona tili – o'zbek tili bo'yicha amalda bo'lgan dasturlarning mazmuni va asosiy yo'nalishlari 50 – yillarning o'rtalarida shakllangan edi. O'shandan beri bu dasturlar juz'iy o'rgarishlar bilan hozirgi kunga

qadar amal qilib kelayotir. Shu asosida mukammal darsliklar yaratildi, ular takror davr sinovidan o'tkazildi.

Ona tili mashg'ulotlari bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi.

O'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitishning mavjud ahvoli ta'lim mazmunini tubdan yangilashni hayotiy zaruriyat qilib qo'yimoqda. Bu zaruriyatlar quydagi uch guruhga ajraladi:

1. Ijtimoiy – iqtisodiy zaruriyatlar;
2. Tadrisiy zaruriyatlar;
3. Ilmiy zaruriyatlar.

Ularning har qaysisiga alohida – alohida tuxtalib o'tamiz.

1. Ijtimoiy - iqtisodiy zaruriyatlar.

Yangi iqtisodiy munosabatlar har qanday faoliyatni uning beradigan pirovard iqtisodiy natijasi bilan baholashni talab etadi. Jumladan, ta'limga sariflanadigan moddiy harajatlar ta'limning natijasi bilan qoplanib qolmay, balki sarf bo'lgan harajatlardan ko'proq moddiy manfaat kelishi lozim. Bu-ta'limning barcha bo'g'inlari va saholari, jumladan, ona tili ta'limi uchun qo'yiladigan umumiy zamonaviy, iqtisodiy va ma'naviy talabdir.

Xo'sh, ona tili ta'limi qanday moddiy manfaat berishi mumkin? Qanday qilib ona tili ta'limini moddiy jihatdan manfaatli, foydali qilish mumkin? Axir, ona tili sohasidagi bilimlarni pul bilan o'lchab bo'lmasligi hammaga ma'lum-ku!

Ona tili ta'limi moddiy manfaat keltirmaydi degan xulosaga kelish noto'g'ri. Chunki, ta'lim, jumladan, ona tili ta'limi natijasida uni egallovchi o'quvchi ma'lum darajada ko'nikmalar hosil qiladi va bu ko'nikmalarning davr talablariga mosligi darajasi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar-moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili ta'limining moddiy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijodiy fikrlay olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabi niyatlaridan nutqda foydalanish, shubhasiz, moddiy ko'rsatkichdir.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ko'rsatkichlar talabga javob beradimi? Ona tili ta'limidan olinayotgan natijalar bizni qoniqtiradimi? Bu savollarga ijobiy javob berish qiyin. Masalani oydinlashtirish maqsadida ana shu ko'rsatkichlarning hozirgi natijalarini tahlil qilib chiqish lozim.

Imlo savodxonligi yuqorida tilga olingan ko'rsatkichlardan biridir. Respblika Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari, maktablarning ma'muriyatlari o'tkazgan yozma ishlar, chorak va yillik o'zlashtirish natijalari, shungdek mualliflar tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar bu ko'rsatkichlarning hali juda past darajada ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ona tili o'qitish samaradorligining yana bir muhim ko'rsatkichi – o'quvchilarning so'z boyligi ham talabga javob bermaydi. Kuzatishlar, o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar, ularning og'zaki va yozma javoblari, tuzgan matnlarini

tahlil qilish shu narsani ko'rsatdiki, bolalar so'z va uning ma'nodoshlari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma'nolarini farqlashda katta qiyinchiliklarga duch kelyaptilar. Xususan, so'z qashshoqligi tez-tez ko'zga tashlanadigan tipik nuqsondir. Masalan, o'quvchilarning so'z boyligini aniqlash maqsadida 5-sinf o'quvchilariga daraxt, ot kabi so'zlarga uyadosh so'zlar (daraxt-terak, qayin, qayrag'och; ot-to'riq, qashqa, jiyron, qorabayr kabi) topshirildi. Berilgan so'zlarni ma'nodoshlari va qarama-qarshi ma'nolari bilan almashtirish, ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini tuzish, tavsiya etilgan so'zlarni frazeologik birikmalar bilan almashtirish, berilgan xalq maqollar o'rniga shu ma'noni ifodalovchi boshqa maqollarni qo'llash, gap va matnlarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, o'qilgan badiiy asar, ko'rsatilgan kinofil'm, tomosha qilingan teleko'rsatuv va sahna asarlariga taqriz yozish kabi topshiriqlarni bajarishda ham past natijalar qayd etildi. Shubhasiz, bu natijalarning sabablari ham, avvalo, ona tili ta'limi mazmuniga kelib taqaladi. Mazkur nuqsonlar ta'lim mazmunini yangilashni tobara ko'proq hayotiy zaruriyat qilib qo'yimoqda.

2. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning tadirsiy zaruriyatlari.

Ona tilidan o'quvchilarning bilim saviyasi ta'lim mazmunida mavjud bo'lgan tadirsiy nuqsonlarga ham bog'liq. Ana shu nuqsonlardan biri mazmunning o'ta ilmiyligi va unchalik tushunarli emasligidir.

Ta'limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli bo'lish prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalaridir. Ilmiylik til materiallarini tilshunoslik fani yutuqlari asosida bayon qilishni talab etsa, tushunarlilik uni bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilim imkoniyatlariga moslab bayon hamda qilishni taqozo etadi. Ta'lim jarayoni mantiqi bu prinsiplarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zarur qilib qo'yadi. Chunki ilmiy bilimlar o'quvchiga tushunarli bo'lmasa, u o'zining amaliy qiymatini yo'qotadi. Ona tili dasturlari, darsliklar va o'quv-tadirsiy (metodik) qo'llanmalarni tuzishda, til materiallarini tanlash va undan foydalanishda bu har ikkala prinsipni bir prinsip sifatida qarab, ularning bir yo'la amalga oshirishini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Ma'lumki, 60-yillardan boshlab maktabda o'qitiladigan barcha fanlar singari ona tilidan ham "Fan yutuqlari- maktabga!" shioriga qat'iy amal qilingani holda bu har ikkala prinsipning o'zaro aloqadorligiga yetarli e'tibor berilmadi. Bu ona tilidan ta'lim mzmunining o'ta nazariylashishiga, grammatizmning hokimligi, imlo va nutq masalalarini uning soyasida qolib ketishiga sabab bo'ldi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi foydali amaliy ishlar bilan shug'ullanish o'rniga, son-sanoqsiz grammatik qoidalar, ta'rif va tushunchalarni "o'zlashtirish" bilan band bo'lib qoldi.

Kuzatishlar shu narsani ko'rsatib turibdiki, hatto maktabda beriladigan filologik ma'lumot bilan oliy o'quv yuritda beriladigan filologik ma'lumot o'rtasida, ayrim tushuncha va tanqinlarni hisobga olmaganida, diyarli katta bo'shliq mavjud. Shubhasiz, mavjud akademizm ona tili o'qitishlashini ancha murakkablashtirayotgan omil bo'lib, u ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni, uni yangilashni taqozo etadi.

Ona tili ta'limidagi yana bir murakkablik til hodisalarini sun'iy ravishda o'ta maydalashtirib o'qitishdir. Til materiallarini yiriklashtirish masalasini uzul-kesil hal qilmay turib, ta'lim mazmunining samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

Ona tilini o'qitishda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolardan yana biri mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo aloqa masalasidir. Mavjud dasturlarda bunday aloqaning yetarli darajada hisobga olinmaganligi va darsliklarda shunday aloqani ta'minlashga oid o'quv topshiriqlarining yetarli emasligi bu muhim didaktik prinsipni amalga oshirishni ancha qiyinlashtirmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning (1-4-sinflar) ona tili kursi bilan muntazam kurs (V-IX-sinflarda) o'rtasida yetarli aloqadorlikning yo'qligi, ko'pgina mavzularning har ikkala bosqichda aynan takrorlanib kelishi kabi holatlar ham ona tilining o'qitilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "So'z yasalishi" bo'limida 2-sinf "Ona tili" darsligida berilgan "O'zbek va qo'shimcha", "So'z yasovchi qo'shimchalar", "So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar" kabi mavzular 5-sinf "Ona tili" darsligida aynan takrorlanib keladi. Bunday aynan takrorlanib keladigan mavzularni ona tilining boshqa bo'limlarida ham uchratish mumkin.

Til materiallarining takrorlanishi, birinchidan, vaqtning ortiqcha sarflanishga olib kelsa, ikkinchidan, o'rganilayotgan material tarkibida o'quvchi hych qanday yangilikni ko'rmagach, uni o'rganishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga sabab bo'ladi.

Oldingi ona tili dasturi va darsliklarida til materiallarining berilish usulini ham o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, joriy dastur va darsliklarda til materiallarini berishning deduktiv (qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka borish) usuli ustun turardi. Bu usul til materiallarini nihoyatda ixcham shaklda bayon qilish imkoniyatini yaratsa-da, ammo o'quvchilar faoliyatini faollashtirishni ancha qiyinlashtiradi. Chunki umumiy qoida, xulosa va ta'riflardan amaliy ishga o'tish jarayonida o'quvchining fikrlash faoliyati chegaralanadi. U o'rganilayotgan til materiallarini o'z aqliy faoliyati jarayonida o'tkaza olmaydi. Bu hol shubhasiz, bolani ta'lim jarayonining subyekti, ya'ni faol ishtirokchisiga emas, balki obyekt, ya'ni tinglovchisiga aynatirib qo'yadi.

3. Ilmiy zaruriyatlar.

Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning faqat ijtimoiy – da tadrisiy zaruriyatlari emas, balki ilmiy zaruriyatlari ham mavjud. O'zbek tili ta'lim mazmunini yangilashning ilmiy zaruriyatlari o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar va kamchiliklar alohida-alohida ko'rib chiqilishi lozim.

XX asrning 20-30-yillarida shakllana boshlagan va 50-yillarning oxirlariga kelib deyarli tugal shakllangan o'zbek tili grammatik qurilishining talqini (bu talqin 1957 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti tomonidan chop etilgan "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili" kitobida va 1961 yilda oliy o'quv yurtlari uchun chop etilgan A.G'ulomov M.Asqarovaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis" kitobida aks etgan) Moskva lingvistik maktabi (A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov) ta'limoti asosida tilning grammatik qurilishini tavsiflashga tayanar edi. Til va nutq hodisalari farqlanmaydigan til hodisalarining alohida-alohida nutqiy ko'rinishlarini

tavsiyalashga mo'ljallangan bu tilshunoslikning asosiy talqin usullari va yo'llari tanqidiy mulohazalarsiz o'zbek tilshunosligiga ko'chirilgan edi. Boshqacha qilib aytganda, rus tilshunosligida rus tili grammatik qurilishini o'rganish asosida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar to'ppa-to'g'ri o'zbek tili grammatik qurilishiga ham tatbiq etilgan edi. Natijada o'zbek tili grammatikasi qurilishi talqinida juda ko'p zo'rma-zo'rakiliklar va chalkashliklar vujudga keldi. O'zbek tili qurilishiga xos bo'lib, rus tilida bo'lgan hodisalar esa sun'iy talqinda berildi. Chunonchi, o'zbek tili (aniqrog'i barcha turkiy tillarda) asliy sifatlar hamda bir qator nisbiy sifatlar narsa-buyum nomlarini ifodalab kelayotgan otlarni ham, harakat-holatni ifodalab kelayotgan otlarni ham, harakat-holatni ifodalab keladigan fe'llarni ham anglatib kela oladi, deb talqin etildi. Masalan, "yaxshi bola yaxshi o'qiydi" gapini olib qaraylik. Bu misolda yaxshi so'zi birinchi o'rinda sifatni, ikkinchi o'rinda fe'lni anglatib kelayapdi, deb o'rgatiladi. Shuni unitmaslik lozimki, o'zbek uchun har ikki o'rindagi yaxshi ham bitta so'zdir. Lekin grammatik talqin bu yerda ikkita so'z biri "sifat" so'z turkumiga mansub bo'lgan yaxshi so'zi, ikkinchisi "ravish" so'z turkumiga mansub bo'lgan yaxshi so'zi bor deb o'rgatadi. Bunga asos bittadir: u ham bo'lsa, o'zbek tilidagi yaxshi so'zining rus tilidagi xorijiy (xoroshaya, xorosho, xoroshiye) sifatiga va xorosho ravishiga mos kelishidir. Ma'lumki, rus tilidagi "xorosho" qabilidagi ravishlar faqat fe'llar bilan birikadi, "xoroshiye" qabilidagi sifatlar esa faqat otlar bilan birikishi mumkin. Rus ongi uchun ular boshqa-boshqa so'zlardir va boshqa-boshqa ma'noda hamda grammatik xususiyatlarga egadir. O'zbek uchun esa "yaxshi bola yaxshi o'qiydi" gapidagi har ikkala yaxshining ma'nosi (narsa-buyum, voqyea, hodisa, harakat va holatning umumiy ijobiy belgisi) ham, grammatik xususiyatlari ham bir xil bo'lib, bitta so'zdir. Bitta so'zga zo'rma – zo'rakilik bilan ikkita so'z deb qarash o'zbek tili qonuniyatlaridan kelib chiqmaydigan g'ayri-ilmiy talqindir. Uni majburiylik bilan bolalarga o'rgatish haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Yana bir misol. Rus tilida fe'llar shaxsi bor va shaxsiz fe'llarga ajraladi. Shaxsi bor fe'llar chapda kesim vazifasida kelganda hamma vaqt o'z egasi bilan keladi va egasiz kelishi mumkin emas. Rus tilida "Pisal pis'mo" qabilida chap qurish mumkin emas. Gapda ega bo'lishi shart: "Ya pisal pis'mo" yoki "On pisal pis'mo" va h.k.. Shaxsiz fe'llar gapda kesim bo'lib kelganda hech qachon ega bilan kela olmaydi: temneyetatrof qarong'ulashmoqda. Snejit – qor yog'moqda. Shuning uchun rus tilida gaplar bir tarkibli va ikki tarkibli bo'ladi. O'zbek tilida shaxssiz fe'l yo'q va gapning kesimi hamma shaxs ko'rsatkichiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich harakat bajaruvchisiga ishora etib keladi. Shu sababli rus tili nuqtai nazaridan bir tarkibi bo'lgan "Xat yozdim" qabilidagi gaplar o'zbek tili uchun me'yoriy va ikki tarkibli. O'zbek tilining ichki qurilishidan kelib chiqadigan bir tarkiblilik va ikki tarkiblilik rus tilidagi bir tarkiblilik va ikki tarkiblilikdan mohiyatan farq qiladi. Lekin bu farqlar o'rganilmay, o'zbek tilidagi gap talqiniga rus tilshunosligidagi bir tarkibli va ikki tarkibli gap haqidagi ta'limot sun'iylik bilan ko'chirildi va sintaksis talqinida juda ko'p chigalliklar yuzaga keldi.

O'zbek tilining ichki qurilishidan kelib chiqmaydigan g'ayri ilmiy talqinlarning o'zbek tilshunosligida mavjudligi bu fanning ulkan kamchiligi bo'lib,

bu o'rta, oliy ta'lim tizimi o'zbek tilidan ta'lim mazmunini yangilashni bunday g'ayri-ilmiy tushunchalarni chiqarib tashlashni talab etadi.

Keyingi yillarda til va nutq hodisalarini izchillik bilan farqlash, tilga yaxshi bir tizim sifatida yondoshish, til vositalarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi, bu yutuqlar maktabda grammatikani, til qo'rilishini o'rganish maqsadlari va usullarini tubdan yangilash imkoniyatini beradi. Ana shulardan diqqatga sazovorlari sifatida quydagilarni sanab o'tish mumkin.

Til, me'yor, nutq hodisalarini izchillik bilan farqlash, tilni bolaning ongida mavjud bo'lgan imkoniyat, me'yorni bu imkoniyatning yuzaga chiqishidagi ijtimoiy chegaralar (qonun-qoidalar) nutqni til imkoniyatlarining me'yor tarozisidan o'tkazilgan shaklda bevosida yuzaga chiqishi sifatida tushunilishi: til – me'yor-nutq hodisalarini farqlash maktabda ona tilidan ta'lim mazmunini va uning maqsadini tubdan yangilash imkoniyatini beradi. Chunki bunday yondoshishda ona tili qurilishining o'rgatish shu til mashg'ulotlarining maqsadi bo'la olmasligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Zero, ona tili qurilishi jamiyat a'zosi bo'lgan bola ongida ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida mavjuddir va uni o'rgatish faqat maktab vazifasi emas, balki jamiyatning ham vazifasidir.

MAVZU:№3 ONA TILI DARSLIKLARIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

REJA:

1. Ona tili darsliklari;
2. Darsliklar yaratish bo'yicha qilinayotgan ishlar;
3. Darsliklarga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Darsliklar bilan ishlashda ikkita holatni e'tiborda tutish kerak bo'ladi:

1. O'quvchilarni darsliklar bilan ishlashga o'rgatish. Bunda o'qituvchining faoliyati nazarda tutiladi.

2. Bevosita o'quvchilarning darsliklar bilan ishlashlari.

Bu ikki holat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilarning darsliklar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish ona tili o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir. (Xitob maqomi eslatiladi...).

Bu yo'nalishda o'quvchilar uchun darslik katta imkoniyatlarni beradi. Darslik ustidagi ishlarni quydagi qismlarga bo'lish mumkin:

1. Tayyorgarlik davri.
2. bilimlarni o'zlashtirish.
3. Bilimlarni mustahkamlash.
4. Yakuniy bosqich.

“Uzluksiz ta’lim tiimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da ta’kidlanganidek: “Milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda mazmun va mohiyati jihatdan eskirgan, to‘liq an’anaviy usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma’lum qismi yangi ta’lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob berolmay qoldi. “Konsepsiyaning maqsadi uzluksiz ta’lim tizimining barcha ta’lim turlari uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari va ularni tayyorlash mexanizmlarini belgilashdan iboratdir.

Ushbu Konsepsiyaning asosiy vazifalariga o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish uchun ilmiy-g‘oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlaridan to‘g‘ri va rosional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllar va turlariga aniq ta’riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy o‘quv adabiyotlarini tayyorlash bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish uchun strategik masalalar ko‘lamini aniqlash kiradi”.

Endilikda darslik va o‘quv qo‘llanmalarining elektron variantlari keng qo‘llanmoqda. Bu haqda Konsepsiyada shunday deyiladi:

“Elektron o‘quv adabiyotlari bilim oluvchilarning taasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarni rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. Uzluksiz ta’lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o‘zgaruvchan, chuqurlashtirib o‘qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha asosan kam adali elektron o‘quv adabiyotlari tayyorlanadi”.

O‘quv adabiyotining turlariga quydagilar kirishi ko‘rsatilgan: darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘at, izohli lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, ma’ruzalar kursi, ma’ruzalar to‘plami, metodik ko‘rsatmalar, metodik qo‘llanmalar, ma’lumotlar banki, sharq va boshqalar. Ularning qisqacha ta’riflari quydagilardan iborat:

O‘quv adabiyot-yo‘nalish yoki ixtisoslik fanining manbai bo‘lib, unda o‘quv dasturlariga mos zaruriy bilimlar majmuasi keltiriladi. Shuningdek, unda didaktika va o‘quv materiallarini o‘zlashtirish metodikasi yoritilgan bo‘ladi.

Darslik – DTSlari talablariga mos, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan fanning o‘quv dasturi asosida mavzularni to‘liq yoritgan va fanning asoslarini o‘rganishga yordam beruvchi nashr hisoblanadi.

O‘quv qo‘llanma – darslikni qisman to‘ldiradigan, ma’lum bir fanning o‘quv dasturi asosida yaratilgan, fanning asoslarini chuqur o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan, amaliy topshiriq va masalalarni yechishga mo‘ljallangan nashr sanaladi.

O‘quv adabiyotining elektron shakli – o‘quv adabiyotlari materiallarini ma’lum bir kompyuter muharririda yoki uning arxivi shaklida axborotning elektron eletuvchilari (disketa, SD-disk, Flash Disk va bosh)da taqdim etilishidir.

Elektron darslik - kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animasiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi.

Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda shunday degan edilar:

“Hammamizga ayonki, ta'lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo'lsa ham tan olishga majburlamiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas.

Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xolos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatilmaymiz, axir. Buni, barchamiz tushunishimiz, anglashimiz darkor.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda, ona tili darsliklaridagi materiallar:

Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi ... ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi (3-modda) bilan belgilanadi.

O'quvchilarning ona tiliga oid bilimlari, til nazokatini, so'zni his etish darajalari, badiiy adabiyotning sir-sinoatini tushunib, undan zavq tuyishlariga oid bo'lgan jarayonlarni, shu jarayonlar bilan aloqador bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini qay tarzda barqaror va mustahkam qilish, ularni tezlashtirish mumkin bo'ladi. Buning ustiga ona tilining o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini ham nazarda tutish kerak bo'ladi. Zero, har qanday bilim-ko'pincha aqliy mehnat mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Bu o'qish – o'qitish jarayonining o'zi tegishli ko'nikmalarning shakllantirilishiga asos bo'ladi degan gap. Biroq, til o'z tiliga tegishli grammatik tushuncha va ma'lumotlarni bilimdan tashqari, shu tilda ifoda etilgan fikr go'zalligini, ifodaning o'ziga xosliklarini his etishni ham taqozo etadiki, ona tiliga oid darsliklar mana shu o'ziga xoslikni ham diqqat markazida tutishi kerak bo'ladi.

Endilikda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun DTS'lari, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi yaratildi. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi yangi bo'g'in – akademik lisey va kasb-hunar kollejlari muvofiqiyat bilan amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun til va adabiyot fanlaridan DTS'lari yaratildi. Shu asosda o'quv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib ravishdagi darsliklarga ham egamiz.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga

oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'ratayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'linlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflardagi Ona tili darsliklarida savol va topshiriqlarning soni ham, mazmuni ham rang-barang. Ular bir-biridan katta farq qiladi. Bu mualliflarning yondoshuvlariga, til materialining xarakteriga ham bog'liq. Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirishlarida yaqindan yordam beradi.

Darslik materialini bilan tanishish asosida ularni quydagi turkumlarga ajratish mumkin bo'ladi:

1. O'quv materialini qayta esga olishga undaydigan –reproduktiv xarakterdagi savollar.

2. Ayrim ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan savollar. Bunga bevosita tegishli matn ustida ishlash, o'lkashunoslik materiallarini izlash, topish va undan foydalanish, ayrim jadvallarni tuzish, axborot va referatlar tuzishni kiritish mumkin.

3. Bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiq etishni talab qiladigan savollar. Bular sirasiga matndagi til hodisalarining izohini berish, ayrim berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, berilgan sxema asosida matn yaratish, matndagi til hodisalarining izohini berish, matndagi xato va nuqsonlarni aniqlash, insho yozish, boshqa ijodiy ishlarni amalga oshirish mansub bo'ladi.

Umumiy tarzda aytiladigan bo'lsa, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ko'paytirishga yo'naltiriladigan savol va topshiriqlarni ko'paytirish zarurati bor.

Savol va topshiriqlar.

1. Zamonaviy darslik tushunchasini izohlab bering.

2. Ona tili darsliklarining yangi avlodiga xos bo'lgan o'zgarishlarni tushuntiring.

3. 5-9-sinf ona tili darsliklarining ikkita: yangi va eski variantlarini qiyoslang. Ulardagi o'zgarishlar nimalarda namoyon bo'lgan?

4. O'quv adabiyotlarining qanday turlarini bilasiz? Ularning tavsifini ayting.

4-MAVZU: ADABIYOT DARSLIKLARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

REJA :

1. Kirish. Adabiyot darsliklari.
2. Darsliklar yaratish bo‘yicha qilinayotgan ishlar.
3. Darsliklarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.

O‘quvchilarning turli fan sohalariga oid bo‘lgan bilimlarni egallashlarida, shu bilimlarni egallashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarida o‘quv darsliklarining o‘rni va ahamiyati juda katta. Bu ta‘limning turli bosqichlarida qo‘yiladigan umumiy maqsad va vazifalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda shunday degan edilar:

“Hammamizga ayonki, ta‘lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo‘lsa ham tan olishga majburmiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas.

Bir narsaning ahamiyatiga yetib borishimiz zarur, aziz do‘stlar, vatandoshlarim!

Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo‘lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o‘rgatolmaymiz, axir. Buni barchamiz tushunishimiz, anglashimiz darkor.

Olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati bor. Nega bunday? Bu psixologiya qayerdan paydo bo‘lgan? Axir, darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak emasmi? Har bir soha bo‘yicha darslikni o‘sha sohaning atoqli vakillari yozmaydilmirmi? Biz darslik yaratishga eng ilg‘or va eng sharaflig‘or vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko‘tarishimiz kerak. Darslikni, agar kerak bo‘lsa katta tanlov asosida yaratish lozim. Tanlov g‘oliblaridan mablag‘ni ayamasligimiz lozim”¹.

Endilikda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflaridagi Adabiyot darsliklarning barchasi tanlov asosida yaratilayotganligining guvohi bo‘lib turibmiz. Bu jarayon davom etmoqda. Shuning uchun ham darsliklarning mazmuni yildan-yilga boyib, sifati tobora yaxshilanib bormoqda.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda, adabiyot darsliklaridagi materiallar:

“ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

Ta‘limning uzluksizligi va izchilligi...

Ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi” (3-modda) bilan belgilanadi.

¹ Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққийетининг пойдевори. Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқи. 1997 йил 29 август. Тошкент: Шарқ, 1997. 8-бет

Adabiyot darsliklari o'quvchilarning milliy mafkura asosida shakllanadigan dunyoqarashlarida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida Prezidentimizning darsliklar haqidagi mulohazalarini ko'rib o'tdik. Bu bezovtalik bejiz emas. Yaxshi darslik mukammal dars, puxta bilim, o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini yo'lga qo'yish degani hamdir. Bugina emas, yaxshi darsliklar o'quvchilar egallaydigan bilimlarning hajmi va sifatini ham kafolatlaydi. Demak, darslik tufayli biz pedagogik maqsad sifatida ko'zda tutadiganimiz asosiy holat –aks aloqani ham ta'minlagan bo'lamiz.

Ko'pgina olimlarimiz darsliklardagi asosiy kamchiliklarni faqat uning mazmuni bilangina emas, balki shu mazmuni ochib berishga qaratilgan shakl va usullarning nomunosibliigi bilan ham aloqalantirishadi. Buning ustiga darsliklar bilan ishlash metodikasining puxta ishlanmaganligi, yosh tajribasiz o'qituvchilarimizning bu boradagi no'noqliklari ham o'quvchilarning darslik ustida ishlashga oid ko'nikma va malakalarining tez va puxta shakllanishiga xalaqit beradi.

O'quvchilarning adabiyotga oid bilimlari, adabiy didlari, so'zni his etishlari, badiiy adabiyotning sir-sinoatini tushunib, undan zavq tuyishlariga oid bo'lgan jarayonlarni, shu jarayonlar bilan aloqador bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini qay tarzda barqaror va mustahkam qilish, ularni tezlashtirish mumkin bo'ladi. Buning ustiga adabiyotning o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini ham nazarda tutish kerak bo'ladi. Zero, har qanday bilim – ko'pincha aqliy mehnat mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Bu o'qish-o'qitish jarayonining o'zi tegishli ko'nikmalarning shakllantirilishiga asos bo'ladi degan gap. Biroq, adabiyot bilishdan tashqari his etishni ham taqazo etadiki, adabiyot darsliklari mana shu o'ziga xoslikni ham diqqat markazida tutishi kerak bo'ladi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andazalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”².

Buning bevosita isboti sifatida “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunni eslash mumkin. Ta'lim –tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari mana shu Qonun talablarini amalga oshirish uchun astoydil harakatlar qilindi.

Endilikda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi yaratildi. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi yangi bo'g'in –akademik lisey va kasb-ta'lim tizimidagi yangi bo'g'in –akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun ham me'yoriy hujjatlar komplekslari ancha muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda.

² Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқи. 1997 йил 29 август. Тошкент: Шарқ, 1997. 5-бет

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun til va adabiyot fanlaridan davlat taʼlim standartlari yaratildi. Shu asosda oʻquv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib ravishdagi darsliklarga ham egamiz. Xoʻsh, bu darsliklar qanday talablar asosida yaratilgan?

Bu darsliklar birinchi navbatda DTS talablariga javob berishi kerak.

Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti oʻquvchilar umumtaʼlim tayyorgarligiga, saviyasiga qoʻyiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi.

Davlat taʼlim standarti taʼlim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Taʼlim mazmunining oʻzagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat koʻrsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) taʼlimning barqaror darajasini taʼminlash sharti amalga oshiriladi. Davlat taʼlim standarti oʻz mohiyatiga koʻra oʻquv dasturlari, darsliklar, qoʻllanmalar, nizomlar va boshqa meʼyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun oʻquv rejasi davlat taʼlim sohalarini meʼyorlashni hamda maktabning moliyaviy taʼminotini belgilashga asos boʻladigan davlat hujjatidir. Tanch oʻquv rejasi oʻquv predmeti boʻyicha beriladigan taʼlim mazmunini oʻquvchiga yetkazish uchun ajratilgan oʻquv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan oʻquv predmeti boʻyicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan taʼlim mazmunini aniqlashga asos boʻladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun adabiyot fanidan birinchi marta davlat taʼlim standarti yaratildi³. Uning yangi avlodi ish tajribalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda.

“Davlat taʼlim standarti taʼlim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Taʼlim mazmunining oʻzagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat koʻrsatayotgan turli muassasalarda taʼlimning barqaror darajasini taʼminlash sharti amalga oshiriladi. Davlat taʼlim standarti oʻz mohiyatiga koʻra oʻquv dasturlari, darsliklar, qoʻllanmalar, nizomlar va boshqa meʼyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos boʻlib xizmat qiladi”⁴.

Darsliklar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Davlat taʼlim standarti talablariga javob berishi;
- Dastur asosida yaratilishi;
- Yoʻriqnoma (konsepsiya)ga muvofiq boʻlishi;
- Taʼlim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka javob bera olishi;
- Darsliklar hajm jihatidan katta boʻlmasligi;
- Tili sodda, ravon, tushunarli boʻlishi;
- Tanlangan asarlar (parchalar) oʻquvchining yoshiga mos boʻlishi;

³ Umumий ўрта таълимнинг ДТС ва ўқув дастури. Таълим тараққиёти ахборотномаси. Тошкент, Шарқ, 1999, 1-маҳсус сон.

⁴ Umumий Ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Тошкент, “Шарқ”, 1999, 1-маҳсус сон, 6-бет.

- Asar tanlashda uning turi va janriga ham juda katta e'tibor berish kerak. She'rdagi shoirning shaxsiy kayfiyati, umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham she'rdagi ohang yoki kayfiyatning davr bilan hamohangligiga ham diqqat qilinadi. Bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib, asar tanlashning quyidagi tamoyillariga diqqatni qaratish lozim deb hisoblaymiz:
- O'rganish uchun tanlangan asar o'quvchilarning tanlaydigan kasblari bilan bog'liqligi;
- Qiziqishlariga mos kelishiga e'tibor berish;
- Asar mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar o'quvchiga tushunarli bo'lishi;
- Ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarni tanlash;
- Asar qahramonlarining ruhiyati va xarakterini o'quvchi tasavvur hamda his qila olsin;
- Tanlanadigan asar til jihatidan tushunarli bo'lsin yoki o'quvchida tushunish bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar tug'dirmasligi. Asar tilining hozirgi adabiy til me'yorlariga yaqin bo'lishiga e'tibor berish;
- Tanlangan asar badiiy jihatdan yuksak bo'lmog'i, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsata oladigan, uning badiiy didini tarbiyalashga, ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan bo'lishi;
- Mavzu va janrlari xilma-xil, uslubi rang-barang asarlarni tanlashga e'tibor berish;
- O'quvchi yoshiga mos, hajm jihatidan juda katta bo'lmagan asarlarni mo'ljallash.

Adabiy ta'limni to'la amalga oshirishda darslik muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar darsliklar mazmuni va tuzilishini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Darslik o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon berishi, bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmog'i lozim.

Darslik, birinchi navbatda o'quvchini qiziqtiradigan, faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolani faoliyatiga, amaliy ishga chorlaydigan bo'lishi, uning mustaqil fikrlashiga, ijodiy izlanishiga, ichki imkoniyatini ro'yobga chiqarishiga yordam berishi zarur.

“Gap shundaki, o'quvchiga kerakli yordam o'qituvchi tomonidan emas, darslik tomonidan berilishi kutilayotgan natijani samarali qiladi. Chunki o'qituvchi topshiriqni muallimning buyrug'ini bajarish uchun emas, balki o'z kuchiga ishongan holda bajaradi. Unda dalillik, ishonch, tirishqoqlik ortadi. Boshqa vositalarga qaraganda darslik eng qiziq yoki tushunilishi qiyin bo'lgan o'rinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal o'ylab ko'rish imkonini berish bilan ustunlikka ega. O'quvchining doimiy hamrohi. Uydak, maktabda, xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin bo'lgan darslik o'quvchida yaxshi xulq tarkib topishida dastlab o'ziga jalb

eta oladigan, qiziqtiradigan, o‘ylantiradigan, o‘tish davri yoshdagilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan bo‘lishi lozimdir”⁵.

Xo‘sh, zamonaviy darslik qanday bo‘lishi kerak?

“Zamonaviy darslik davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo‘lishi lozim”⁶.

Darsliklarda bugungi fan-texnika yutuqlari, zamon talablari, yangi texnologiyalar aks etmog‘i kerak.

Darsliklarda yozuvchining hayoti va ijodi aks etadi. Bunda nimalarga e‘tibor berish kerak? Yozuvchining hayoti va ijodidagi qaysi nuqtalar o‘quvchilar uchun muhim hisoblanadi. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” mualliflari bu haqda shunday deyishadi: “Yozuvchining hayoti va ijodi haqidagi leksiya uchun Golubkov darsligida quyidagi qoidalar taklif etilgan. Leksiya quyidagilarni yoritib berish kerak: 1) yozuvchining san‘atkor va mutaffakir sifatidagi o‘ziga xosligi nimadan iborat; 2) u davr bilan qanday bog‘langan; 3) yozuvchining uslubi qay tarzda rivojlangan, uning ijodiy yo‘lidagi asosiy bosqichlar nimalardan iborat edi; 4) u ijtimoiy hayotga hamda adabiyot tarixiga qanday hissa qo‘shdi”⁷.

Mana shu talablar turli sinfdagi o‘quvchilarning yoshi hamda adabiy tayyorgarligiga ko‘ra turli shakl va usullarda amalga oshiriladi.

Agar darsliklarda matnlarning berilishini nazarda tutadigan bo‘lsak, ularning bir necha xil ko‘rinishlarini qayd etish mumkin. Bularning orasida asosiy matn ustuvor mavqye tutadi. Asosiy matn deganda biz bevosita badiiy asarning o‘zini nazarda tutamiz. U qaysi tur va janrga aloqador bo‘lmasin, o‘quvchi uchun asosiy o‘rganish obyekti bo‘ladi. Hikoyalash-tavsiflash ruhidagi talqin va tahlillar ham shu siraga kiradi.

Ba‘zan qo‘shimcha materiallar ham zarur bo‘lib qoladi. Darsliklarda bunday holat uchrab turadi. Bular sirasiga muayyan tarixiy davr, alohida olingan ijodkor to‘g‘risidagi mashhur kishilar, ijodkorning zamondoshlari tomonidan aytilgan fikr va e‘tiroflarni kiritish mumkin. Ba‘zan tarixiy hodisa yoki badiiy asarning parchalarini ko‘rsatuvchi xujjatlar, arxiv va qo‘lyozma manbalardagi ma‘lumotlar shu vazifani ado etadi.

O‘rni bilan izohlash-tushuntirish yo‘nalishidagi materiallar ham kerak bo‘lib qoladi. Qahramonning muayyan vaziyatdagi xatti-harakatlari, muayyan joy yoki urf-odatlar izohi shunday usulni taqozo etadi. Alohida terminlarni, tushunchalarni

⁵ Тўйчиева М. Адабиёт дарсликларидаги савол ва топшириқлар ҳақида // Гил ва адабиёт таълими. 2005, 3-сон, 17-20-бетлар.

⁶ Отахонова С. Дарслиқлар ҳақида // “Маърифат” газетаси. 2004 йил. 9 июн, 46-сон.

⁷ Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподавания литературк. Под редакцией О.Ю. Богдановой. Учебник для студентов пед. Вузов. М.: Издательский центр “Академия”, 2-е издание, стереотипное, 2002, -С.97.

izohlash, adabiy-nazariy tushunchalarga beriladigan izoh va sharhlar shular jumlasiga kiradi.

Muammoli holatlar bilan bog'liq ifodalar ham darsliklarimizda uchray turadi.

Darsliklarning bezatilishi ham alohida o'rin tutadi. Hozirgacha adabiyot darsliklarining katta qismida rasm va boshqa illyustrasiyalardan juda kam foydalaniladi. Rasmlar asosan ijodkorlarning oq-qora rangdagi portretlaridagina iborat, xolos. Ularda turli jadvallar, sxemalar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati borligini eslatish joiz ko'rinadi. Keyingi paytlarda ayrim darsliklarda xronologik jadvallarning paydo bo'layotganini eslatish joiz.

Darsliklarning ilmiy apparatiga savol va topshiriqlar, lug'at va izohlar ham kiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflaridagi Adabiyot darsliklarida savol va topshiriqlarning soni ham, mazmuni ham rang-barang. Ular bir-biridan katta farq qiladi. Bu mualliflarning yondoshuvlariga, adabiy materialning xarakteriga ham bog'liq. Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirishlarida yaqindan yordam beradi.

Darslik materiallari bilan tanishish asosida ularni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin bo'ladi:

1. O'quv materiallarini qayta esga olishga undaydigan –reproduktiv xarakterdagi savollar.
2. Ayrim ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan savollar. Bunga bevosita badiiy matn ustida ishlash, o'lkashunoslik materiallarini izlash, topish va undan foydalanish, ayrim jadvallarni tuzish, axborot va referatlar tuzishni kiritish mumkin.
3. bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladigan savollar. Bular sirasiga asardagi muayyan adabiy-nazariy tushunchaning izohini ko'rsatish, qo'yilgan adabiy asar haqida shaxsiy nuqtai nazarini bildirish, ijodiy ishlarni amalga oshirish mansub bo'ladi.
4. O'quvchidan muayyan voqea-hodisalarga nisbatan emosional munosabat bildirishni talab qiladigan savollar.

Umumiy tarzda aytiladigan bo'lsa, o'quvchilarimizning ijodiy imkoniyatlarini oshirishga yo'naltiriladigan savol va topshiriqlarni ko'paytirish zarurati bor.

Savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy darslik tushunchasini izohlab bering.
2. Adabiyot darsliklarining yangi avlodiga xos bo'lgan o'zgarishlarni tushuntiring.
3. 6-8-sinf Adabiyot darsliklarining ikkita: yangi va eski variantlarini qiyoslang. Ulardagi o'zgarishlar nimalarda namoyon bo'lgan?

MAVZU: № 5. ONA TILI DARSLIKLARINING TA'LIM BOSQICHLARIGA KO'RA TURLARI

REJA:

1. Umumta'lim maktablarida "Ona tili" darsliklari.
2. Akademik liseylarda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari.
3. Kasb-hunar kollejlariida "Ona tili va adabiyot" darsliklari.
4. Oliy ta'limdagi darslik va qo'llanmalar.

Ma'lumki, ona tili mustaqil fan, izchil kurs sifatida boshlang'ich ta'lim tugagandan so'ng (4 sinf) o'tila boshlaydi. Albatta, bu davrda o'quvchi ona tili va ifodali o'qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, til hodisalari haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lgan bo'ladi.

Bola maktabgacha bo'lgan yoshdayoq ona tilining amaliy qo'llanish jarayonlari ichida yashaydi. Mavjud til muhiti bolaning o'z tilidan amaliy jihatdan foydalanishga oid dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllantirib boradi. "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilad, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Xuddi shu davrda u, asosan, tinglovchi, ba'zan o'quvchi shaklida dastlabki odimlarini tashlaydi. Demak, o'quvchi 5 sinfga kelganida o'qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning ibtidoiy ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Umumta'lim maktablarida "Ona tili" darsligidan foydalaniladi. Keyingi yillarda darsliklar uchun "O'qituvchi" metodik qo'llanmasi ham yaratilmoqda. Bu qo'llanmalar ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun metodik yordam vazifasini o'taydi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim bosqichlari yangi tizimga o'tmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablaridan so'ng uch yillik akademik liseylar hamda kasb-hunar kollejlari iste'molga kiritildi. Bu yoshlarning fan asoslarini jiddiyroq va puxtaroq egallashlari uchun muhim omildir. Ayniqsa, akademik liseylar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da bu borada shunday deyiladi. "Akademik lisey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi".

Akademik liseylar uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida ta'lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka alohid ahamiyat berilgan. Darslikda o'quvchilarning ma'rifiy bilimlarining ortishiga, ularda mavjud bilimlarni tizimlashtirishga, rivojlantirishga, shuningdek, o'quvchi-yoshlarning yuksak insoniy fazilatlar, milliy-ma'noviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishga maxsus urg'u berilgan.

Akademik liseylarda Ona tili “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomi ostida uchala bosqichda ham o‘rganiladi. O‘quv dasturiga muvofiq birinchi bosqichda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanini o‘qitish mundarijasi quyidagi ikki bo‘limni o‘z ichiga oladi:

1. Birinchi bo‘limda o‘quvchilarni har bir sinfda umumiy til bilimiga suhbat asosida induktiv yo‘l bilan olib kiriladi. Bu bilan aloqa vositasi bo‘lgan tilning doimiy usishda, rivojlanishda bo‘lgan yaxlit tizim ekanligi singdiriladi.

2. ikkinchi bo‘limda esa har qaysi sinfda o‘quvchilarning o‘rta umumiy ta’limda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha olgan bilimlari chuqurlashtiriladi.

Darslik materiallari o‘quvchilarning nazariy bilimlarini oshirishga, amaliy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan ekan, bunda til faktlari va hodisalarini tahlil qilish, qiyoslash, guruhlash va boshqalarni nazarda tutadi.

Akademik liseylarning darsliklari quyidagi tarkibga ega:

-tilning asosiy hodisalari haqidagi qisqacha ma’lumot. Ular ixcham qoidalar, kuzatishlar, savol va topshiriqlar shaklida tavsiya etilgan;

-rang – barang ilyustrativ materiallar. Bular har xil rasmlar, misollar, chizmalar, sxemalar, jadvallar va boshqalar kiradi;

-yo‘naltiruvchi apparat. Bular mundarija, sarlavha, har xil ko‘rsatkichlar va boshqalardan iborat.

Kasb-hunar kollejlarning darsligi “Ona tili va adabiyot” darsligi deb nomlanadi. Bunda ona tili mavzularining o‘rganilishiga 40 soat ajratilgan bo‘lib, unda til sathlarining turli ko‘rinishlari va ularni tahlil qilishga oid namunalar berilgan bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Maktab ona tili dastur va darsliklari haqida fikringiz.

2. Ona tili darsliklari uchun yaratilgan metodik qo‘llanmalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli qanday? Misollar asosida izohlab bering.

3. Akademik liseylarning 1-bosqichi uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida nazariy materiallarning berilishi haqida fikringiz.

4. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan “Ona tili va adabiyot” darsligining ona tili qismini maktab darsliklari materiallari tahlili asosida uzviylikning ta’minlanganligini aniqlang.

6-MAVZU. ADABIYOT DARSLIKLARINING TA’LIM BOSQICHLARIGA KO‘RA TURLARI

R E J A:

1. Umumta’lim maktablarida “Adabiyot” darsliklari.
2. Akademik liseylarda “Adabiyot” darsliklari.
3. Kasb-hunar kollejlariida “Ona tili va adabiyot” darsliklari.
4. Oliy ta’limdagi darslik va qo‘llanmalar.

Ma'lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang'ich ta'lim tugaganidan so'ng (IV sinf) o'tila boshlaydi. Albatta, bu davrda o'quvchi adabiyot va ifodali o'qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so'z san'ati haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lgan bo'ladi.

Bola maktabgacha bo'lgan yoshdayoq so'z san'ati ichida bo'ladi. "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorlagan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qati nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi"⁸. Xuddi shu davrda u, asosan tinglovchi, ba'zan o'quvchi shaklida dastlabki odimlarini tashlaydi. Demak, o'quvchi 5-sinfga kelganda o'qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning iptidoiy kunikmalariga ega bulishadi. Jumladan 4-sinf o'quvchilari matnni ifodali o'qiy olishlari, harakatlanuvchi shaxslar haqida hikoya qilmb berish uchun material to'plash, ularning xatti harakatlarini baholsh, ularga nisbattan o'z munosabatini ifodalay olish, adabiy qaxramon haqida ixcham hikoya tuzish ko'nikma va malakalarga ega bulish lozim. 5-sinf o'quvchisi hali badiiy asarning barcha xususiyatlarini tula o'zlashtirishga tayyor bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: tez aytish, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko'ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagi olam, inson, inson ma'naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar ilmiy-ommabop maqolalar tarzida yoritilgan. Demak, boshlang'ich sinflardek bolalarning badiiy estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi uchun imkon qilingan. Endi V sinfdan boshlaboq ularning o'qish va nutq ko'nikmalariga tayanib turib, asarni badiiy his etish, estetik his-tuyg'ularini o'stirishga alohida e'tibor berish zaruriyati ham e'tiborda turishi lozim.

V sinf dasturidayoq turli janrlardagi asarlar bilan tanishish taqozo etiladi. Ular orasida qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, ertak, latifa, doston, hikoya, ruboiy, masal, qissa, roman kabi xilma-xil janrlar mavjud. Bugina emas, dasturda turli adabiy tushunchalar hamda yozuvchi va shoirlar haqida, ularning asarlari haqida ham ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Ammo tarixiy-adabiy izchillik tom ma'nosi bilan IV-VII sinf adabiyot dasturlari talablari sirasiga kirmaydi, zero o'quvchilarning yosh xususiyatlari ham bunga imkon bermaydi. Bu vazifalar VIII-IX sinflarda amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarida "Adabiyot" darslik-majmua, "Adabiyot" darsligi va "Adabiyot" majmuasidan foydalaniladi. Keyingi yillarda darsliklar uchun "O'qituvchi" metodik qo'llanmasi ham yaratilmoqda. Bu qo'llanmalar ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun metodik yordam vazifasini o'taydi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim bosqichlari yangi tizimga o'tmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablaridan so'ng uch yillik akademik liseylar hamda kasb-hunar kollejlari

⁸ "Таълим тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 11-модда

iste'molga kiritildi. Bu yoshlarning fan asoslarini jiddiyroq va puxtaroq egallashlari uchun muhim omildir. Ayniqsa, akademik liseylar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da bu borada shunday deyiladi: "Akademik lisey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik liseylarning birinchi bosqichi uchun yaratilgan "Adabiyot" darsligida ta'lim bosiqchlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka alohida ahamiyat berilgan. Darslikda mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan parcha va she'riy asarlaridan namunalar berilgan. Asosiy e'tibor esa ularning tahlil va talqinlariga qaratilgan.

Akademik liseylarda Adabiyot o'quv predmeti sifatida uchala bosqichda ham o'rganiladi. O'quv dasturiga muvofiq birinchi va ikkinchi bosqichlarda mumtoz adabiyot, uchinchi bosqichda yigirmanchi asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayonning o'rganilishi rejalashtirilgan. Bu yerda adabiyot tizimli kurs sifatida taqdim etilgan.

Akademik liseylarning birinchi bosqichi uchun chiqarilgan darslik eng qadimgi davrlardan boshlab o'n beshinchi asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning 9-sinfini bitirib kelgan o'quvchilarda muayyan tajribalarning, ko'nikma va malakalarning bo'lishi tabiiy. Shunga ko'ra bu bosqichda ayrim nazariy ma'lumotlarni berish, umumlashtiruvchi xarakterdagi materiallarni tavsiya etish ham mumkin bo'ladi. Darslik aynan mana shu tipdagi materiallar bilan boshlanadi.

ADABIYOT –SO‘Z SAN‘ATI

Adabiyot so‘z san‘atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni so‘z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, yuksak pog‘onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o‘y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi.

Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbid ham hayajon uyg‘ota oladi, ularning ma‘naviy boyishlariga tegishli hissa qo‘sha oladi. Muhimi, ular faqat ma‘rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma‘naviy kamolotga xizmat qiladi.

Adabiyot ... so‘z san‘ati. Ammo san‘at turlari nihoyatda ko‘p va xilma-xildir. Tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, me‘morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot san‘atning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta’sirchan obrazlar yaratish ko‘zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga

turli tuman yo'llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltarosh esa xom material (tosh, ganch, yog'och, metall) dagi ortiqcha o'rinlarni yo'nish hisobiga go'zallik yaratadi. Adabiyot esa, bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

So'zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil bo'ladi, ammo har qanday matn va so'zlar badiiy adabiyotga daxldor bo'lavermaydi. Buning uchun so'z muayyan badiiy-estetik vazifani bajarishi lozim bo'ladi. Shunga ko'ra ham badiiy adabiyot voqeya-hodisalarni yoki insoniy kechinmalar, his-tuyg'ularni bayon qilmaydi, balki ularni tasvirlaydi.

Tasvir so'zga tayanadi. So'z sehr, mo'jiza bilan o'ziga mahliyo qiladi, rom qilib oladi. Shuning uchun go'dak ollaga, kichik yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko'rinishlariga nihoyatda qiziqib qaraydi, ularning olamiga kirib qolgach, o'zini ham shu olamga mansub hisoblaydi.

Adabiyotning ta'sir kuchi nimada? U nimalarga bog'liq? Buning uchun yirik so'z san'atkorlari yaratgan ko'plab durdona asarlarning xalq orasida alohida hurmat va e'tibor qozonganligini eslash joiz.

Yusuf Xos Xojib XI asrda ... 1069-70 yillarda "Qutadg'u bilig" dostonini yozib tugatadi va uni Qoraxoniylar hukmdorlaridan Tabg'ach Bug'ro Qoraxon Abo Hasan binni Arslonxonga taqdim etadi. Shu kuniyoq hukmdor adibga mamlakatdagi eng yuqori mansablardan biri –xos hojiblikni beradi. Xos Hojib "eshik og'asi" demakdir. Hozirgi tilimizda, u "ish boshqaruvchi"ga to'g'ri keladi.

Yana bir misol. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonini tugatgach, uni Husayn Boyqaroga sovg'a sifatida topshiradi. Husayn Boyqaro butun a'yonlari oldida Navoiyni o'z "pir"i debe'lon qiladi va Navoiyni otga mindirib, o'zi xalq oldida uning oldiga tushib, jilovdorlik qiladi. Bu mamlakat podshosining buyuk istedod egasiga, so'z san'atkoriga nisbatan hurmat va e'tirofi ramzi edi.

O'zbek xalqining ijodkorlariga nisbatan alohida hurmat va ehtiromi ham yaxshi ma'lumdir. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida "Ardam bashi-til" ("Barcha fazilatlarining boshi tildir") degan maqol uchraydi. Demak, til va badiiy so'zning qudratiga qadim zamonlardayoq ajdodlarimiz alohida e'tibor berishgan".

ADABIYOT –JAMIYAT HAYOTINING KO'ZGUSI

Adabiyot xalq, jamiyat hayotining o'ziga xos ifodasi hamdir. U jamiyat tarixidagi jiddiy o'zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. Shunga ko'ra, eramizning VIII asrlarigacha yaratilgan asarlarda qadimgi ajdodlarimizning, urf-odat, e'tiqodlari ifodalangan bo'lsa, keyingi davrlarda islom ta'limoti bilan hamohanglik kuchayganligini kuzatish mumkin. Xususan,

tasavvufning ada biyotdagi ko‘rinishi jamiyat hayotidagi keskin o‘zgarishlar bilan aloqador holda rivojlandi.

Ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari tarixiy manbalardan yaxshi ma’lum. Ayni ana shu jarayon “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarida juda yorqin aks etgan.

Turkiy xalqlarning tabg‘achlarga qarshi kurashi esa O‘rxun-Enasoy obidalarida juda ta’sirli ifodasini topgan.

Mahmud Qashg‘ariyning “Devonu lug‘ot it - turk” asarida qadimgi ajdodlarning turli – tuman mashg‘ulotlari, urf odatlari, yashash tarzlari, e’tiqod va qiziqishlarining ham ifodasini ko‘rish qiyin emas.

Xalqimiz qadimdan farzandlarining sog‘lom, aqlli, dono, mehnatsevar, xalqparvar bo‘lishini orzu qilishadi, shunga intilishadi. Qadimgi qo‘shiq, maqol, afsona, dostonlarda, qasida xatto marsiyalarda ham ana shu holatlar o‘z ifodasini topgan. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa adiblarning nomlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqining o‘zi singari juda boy, qadimiy tarixga ega. Uning o‘ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo‘li, rivojlanish qonuniyatlari bor. Bularni his etish, anglash va umumlashtirish uchun uning tarixini puxta o‘rganish zarur. Adabiyot tarixi so‘z san’atining rivojlanish jarayonlari, mumtoz nomoyondalari haqida ma’lumot beradi. Bu fan tufayli qadimda yashab ijod etgan buyuk adiblar yaratgan nodir asarlar, badiiy tafakkurdagi rivojlanish va yangiliklar haqida tasavvurlar hosil bo‘ladi.

O‘zbeklar qadimgi turkiy xalqlarning ko‘psonli avlodlaridan biridir. Boshqacharoq aytadigan bo‘lsak, qadimgi ajdodlarimiz turkiylar deb nomlangan. Shunga ko‘ra eng qadimgi davrlardan boshlab XI-XII asrlargacha bo‘lgan davr oralig‘ida yaratilgan adabiyot fanda qadimgi turkiy adabiyot nomi bilan yuritiladi.

Qadimgi ajdodlarimiz Baqtriya, Sug‘diyona. Xorazm, Parfiya, Marg‘iyona, Choch, Parkana (Farg‘ona) va boshqa joylarda yashaganlar. Yunon va Eron manbalarining ma’lumotlariga ko‘ra, bu yerda yashaganlarni so‘g‘diylar, xorazmiylar, parfiyaliklar, marg‘iyonaliklar, chochliklar, massagetlar, sak (shak) va parkanlar deb atashgan.

Oltay atrofida, hozirgi Sibur hududlari ham turkiylar yashagan asosiy manzilgohlar bo‘lgan. Manbalarda xunlar deb nom olgan xalqlar ham turkiylarning qadim ajdodlaridir.

Ajdodlarimiz turli vaqtlarda otashparastlik, masohiylik (xristianlik), buddaviylik, manixeylik (moniylik) va islom diniga e’tiqod qilganlar.

Ular san’at, ayniqsa, badiiy ijodning olamshumul namunalarini yaratishgan. Ma’lumki, adabiyotning asosi, bosh, o‘zak tomiri xalq og‘zaki ijodidan boshlanadi. “To‘maris”, “Shiroq” singari rivoyatlar eramizdan oldingi davrlarda yashagan turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan og‘zaki ijod durdonalaridir. Eramizning V-VIII asrlarida paydo bo‘lgan og‘zaki ijodning boshqa namunalari: ertak, qo‘shiq, marsiya, rivoyat, afsona, maqollar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk”

(1072 yil) asari orqali yetib kelgan va nodir namunalar sifatida hozir ham ardoqlidir. Ular ilk tarixiy – badiiy asarlar sifatida qimmatli. Keyingi asrlarga kelib adabiyotimiz boy tajriba to‘pladi. Bu davrda turkiy tilda yaratilgan ilk yirik yozma doston – Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (“Saodatga yo‘lovchi bilim”) (1069 – 1070 yil) asari yuzaga keldi. Yusuf Xos Hojib boshlab bergan dostonchilik an’anasi keyinchalik Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy, Navoiy kabi shoirlar, adiblar ijodida davom ettirildi.

To‘rtlik, ruboiy, tuyuq, murabba’, hazal, qasida, masnaviy, noma kabi janrlarning o‘zbek adabiyotidagi tarixi ham ancha qadimgi davrlarda shakllangan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarimiz bu janrlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan.

O‘zbek nasrining tarixi ham qadimgi davrlardan boshlanadi. “Shiroq”, “To‘maris” kabi rivoyatlarning asl matni saqlanib qolmagan. Ular yunon tarixchilarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan.

O‘rxun-Enasoy obidalarida ham nasr izlari mavjud. Shuningdek, “Oltun yoruq” singari tarjima asarlari ham nasrda bitilgan. Shubhasiz, bu sohada Nosiriddin Rabg’o‘ziyning (XIII-XIV asrlar) alohida o‘rni bor. U “Qissas ul – anbiyo” (“Payg’ambarlar tarixi”) asari bilan o‘zbek nasrini o‘z davrida yuqori cho‘qqiga olib chiqqan, deyish mumkin”.

ADABIYOT VA BOSHQA FANLAR

Adabiyot ham olam xodisalari haqida bilim va ma’lumot beradi. Bu jihatdan u fanga, fanning turli tarmoqlari: falsafa, tabiatshunoslik, kimyo, fizika, tarix va boshqalarga o‘xshaydi. Ammo ular hayot hodisalarini aks ettirish usuliga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Zero, fan ilmiy umumlashmalarga tayansa, adabiyot badiiy obrazlarga suyanadi.

Fan – jamiyatning muayyan qismi shug’ullanadigan soha. Masalan, kimyo fani bilan hamma shug’ullanmaydi, buning uchun muayyan qiziqish, malaka va tajriba, jiddiy ilmiy tayyorgarlik kerak. Fizika, matematika, botanika, tabiatshunoslik haqida ham shunday deyish mumkin. Badiiy adabiyot va kishilarning yoshi va jinsi, kasbi va lavozimiga bog‘liq emas. Uni hamma o‘qishi mumkin va unga har bir inson qiziqadi. Boshqa yurt va mamlakatlarda yaratilgan badiiy asarlar ham sevib o‘qilishi mumkin. Qadimgi yunon adabiyoti (“Iliada”, “Odisseya” va boshqalar), O‘rxun – Enasoy obidaları, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Navoiy “Hamza”si jahon xalqlari uchun go‘zal ma’naviy mulkdir. Demak, adabiyot ko‘pchilik uchun, xalq uchun xizmat qiladi. Adabiyotning ommaviyligi uning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotning og‘zaki turi ko‘pchilik tomonidan, xalq tomonidan yaratiladi. Yozma adabiyot ma’lum shaxslar, alohida qobiliyat va iste’dod egalari tomonidan yaratiladi. Ammo asar bitilganidan keyin u xalq mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham ayrim adiblar nomi xalq nomi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan, fors-tojik adabiyoti deganda Ro‘dakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa‘diy, Jomiyalar; qozoq adabiyoti deganda Abay, Muxtor, Avezov; qirg‘iz adabiyoti deganda Chingiz

Aytmatovlar esga olinadi. Yoki Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Muqimiy deganda jahon ahli o'zbek xalqini eslaydi.

Biz yuqorida badiiy adabiyot ham olam xodisalarini anglashga yordam berishini aytib o'tgan edik. Ammo bu uning yagona asosiy xususiyati emas. Adabiyot xalq, jamiyat haytida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotni hayot oynasi deyish mumkin. Unda jamiyat hayotining eng muhim qirralari aks etadi. Jumladan, O'rg'un-Enasoy obidalarida qadim ajdodlarimizning mustaqillik, erk, ozodlik yo'lidagi shijoatli kurashlari ifodalangan bo'lsa, "Shiroq", "To'maris" kabi afsonalarda qadimgi ajdodlarning yovuz bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi hamda ona yurt himoyasi yo'lidagi jangovor qahramonliklari ifodalangan. Bular tarix haqiqatiga ham mosdir. Yoki mo'g'ul istilochilariga qarshi kurash bir qator asarlarda o'z badiiy ifodasini topgan. Shulardan biri sifatida "Guldursun" afsonasini eslatish mumkin.

Demak, adabiyot tarix bilar yonma-yon yashaydi. Ammo ularning tasvir obyektlari ham, vositalari ham boshqa-boshqadir. Tarix kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarini o'rganuvchi fandır. Badiiy adabiyot esa turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatining o'ziga xos qirralarini kashf etuvchi san'atdir.

Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida qadimgi qabiloviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog'lanib ketadigan lavhalar ko'p uchraydi.

Badiiy asarlar inson kechinmalari bilan bog'liq. Ularda insoniy huzur va alam, shodlik va qayg'u, baxt va kulfat, iftixor va afsus, kuyinchaklik va loqaydlik tasvir etilgan. Shuning uchun ham insoniyat adabiyotga befarq, loqayd qaray olmaydi. Undan o'z ko'ngil mulkini – ma'naviyatini boyitish uchun foydalanadi. Yosh avlod vakillarining muayyan asar qahramonlariga taqlid qilishlari bejiz emas.

Adabiyot hayotning in'ikosi sifatida har qanday hodisani aks ettirishi mumkin. Badiiy asarlarda urush va tinchlik, tog' va daryolar, shahar va qishloq, inson va hayvonot dunyosi, o'simliklar olami, hatto sukunat ham qalamga olinaveradi. Ammo bularning barchasi inson qalbi, uning ruhiyati, ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Demak, adabiyotning markazida har doim inson turadi. Ammo bu har bir asarda inson obrazining qatnashuvini shart qilib qo'ymaydi. Masalan, gul, bahor, qush, tosh, ot, it tasviriga bag'ishlangan asarlar bo'lishi mumkin (bunday asarlar ko'p). Biroq, bu asarlarda ham insonning borliqqa bo'lgan munosabati aks etgan. Aslida bular insonning go'zallikka bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Shu ma'noda adabiyotni estetik tarbiya vositasi ham deyiladi. Zero, u inson qalbining go'zallikdan zavq va bahra olishiga yana bir imkon beradi. Qabohat, razolat, yovuzlik tasvirida esa insonning ularga nisbatan nafrati ifodalangan bo'ladi. Bunday adabiyotga badiiy tasvir – obrazlilik yordam beradi".

Darslikda adabiy materiallarning berilishida o'ziga xos yo'l tanlangan. Dastlab muallif haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Biz Sayfi Saroyi haqidagi bo'limning berilishini kuzatishimiz mumkin. Dastlab adibning tug'ilgan joyi, uning "Saroyi" taxallusini olish sabablari izohlanadi:

“SAYFI SAROYI”

(1321 - 1396)

Sayfi Saroyi o‘zbek adabiyoti tarixida alohida mavqyega ega bo‘lgan yirik adiblardan. U 1321 yilda Qamishli yurtida tug‘ilgan. Qamishli – Xorazmdagi qishloqlardan birining nomi. Ammo shu nom Volga bo‘yida ham ko‘p uchraydi. U Qamishlidan bilimini oshirish uchun Saroyga keladi. Saroy – Oltin O‘rda davlatining poytaxtidir. Muhammad ibn Arabshohning yozishicha, “Saroy tutgan o‘rni va xalqning juda ko‘p bo‘lishi bilan eng katta shaharlarning birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqt ichida bu yerdan ko‘plab atoqli, mashhur kishilar to‘plandi”. Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Mas‘ud Taftazoniy, Kamoliddin at-Turkmaniy, Hofiz Muhammad ibn Bazzoziylar bor edi. Shuningdek, mashhur shoir Kamoliddin Xo‘jandiyning ham XIV asr oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi ma‘lum.

Shoir shu yerda yashab turgan davrida “Saroyi” degan taxallusini olgan. Sayfi – uning ismi bo‘lib, “qilich” degan ma‘noni bildiradi.”

Keyin uning hayotidagi jiddiy o‘zgarishlar haqida to‘xtab o‘tiladi:

Umrlarining oxirlarida u Oltin O‘rdadan Misr – Shomga ketgan va o‘sha yerda yashagan.

O‘sib tuprog‘im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o‘ldim-da, o‘zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak jabrayladi, qanday gunohim bor?

Iloho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim, - degan misralar shu qismatga ishora. U o‘z yurtidan ketishini “falak jabr ayladi” deb izohlamogda. “Tuprog‘im uzra nayzalar o‘sdi” degan jumla zamirida Chingizxon istelosining oqibatlari nazarga olinmogda”.

Shundan keyin adib yozgan asarlarga o‘tiladi:

“O‘zining “Gulston bit-turkiy” (“Turkiy guluston”) asarini u Misr amiri Batxas bekka bag‘ishlagan edi. Asar 1391 yilda yozilgan. Undan keyin yaratilgan “Suhayl va Guldursun” dostoni 1394 yilda yozilgan. Adib taxminan 1396 yilda vafot etgan”.

Shundan keyin adibning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissalarini ko‘rsatiladi:

“Sayfi Saroyining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bebahodir. Ayniqsa, g‘azal janrida u katta mahorat egasi bo‘lgan. O‘zidan oldin yashab ijod etgan g‘azalnavis shoirlar ijodini o‘rgangan adib:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,
Kimi bulbul durur so‘zda, kimi zog‘ –

Deb yozarkan, ijod maydonini bog‘ gulshaniga, shoirlarni esa shu bog‘dagi qushlarga o‘xshatadi. Albatta, bulbul va zog‘ obrazlari orqali adib ko‘zda tutayotgan shoirlar turi ayondir. U kamtarlik bilan shunday yozadi:

Ularning ush biri Sayfi Saroyi,

Jahon oriflarning xoki poyi.

Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzg'a hamisha mushtari bil".

Darslikda shoirning mahoratini krsatuvchi belgilar alohida tahlilga tortiladi:

"G'azallarida shoirning o'ziga xos zavqi, ovozi, tasvir usullari juda ochiq ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, go'zal yor yuzining oyga nisbat berilishi g'azalchilik tarixida qadim an'anaga ega. "Topilmas husn mulkida" g'azalida Sayfi Saroyi ham shu an'anaga sodiq qoladi. Ammo u shu yerda to'xtamaydi, balki bu o'xshatishning yangi bir qirralarini kashf etadi:

Topulmas husn mulkida senga teng bir qamar manzar,
Na manzar – manzari shohid, na shohid – shohidi dilbir.

Husn daryosida senga teng bo'lgan oy yuzli go'zal topilmaydi. Ya'ni sen tengsiz go'zalsan, demoqda shoir. Ammo bugina emas, bu oy yuz faqat go'zal ma'shuqaninggina yuzi. Bu ma'shuqa go'zal va dilbardir.

Keyingi bayt ana shu go'zallik sababini izohlashga qaratilgan, ya'ni beqiyos go'zallik sohibi bo'lgan Yusufning jamolini haq senga in'om qilgan. Bu in'om buyuk ne'mat, katta davlat bo'lib, ushbu davlat iftixor qilsa arziydigan darajadadir.

Ana shundan keyin shoir ma'shuqaning ma'naviy xislatlari tasviriga to'xtab o'tadi. Uning so'zlari nihoyatda nozik va qimmatli, shuning uchun ham duru gavharlarga qiyoslanmoqda. Uning xulqi yoqimli (shakardan totli), muruvvati va ko'ngildagiday (karamda xotiring matlab). Shuning uchun ham bunday go'zal yor bilan hamsuhbat bo'lgan oshiq o'zini eng buyuk davlatmand martabasida ko'ra oladi. Zero, "Husn shavqu zavqini ko'ngil to'tilari topsa", bundan ortiq lazzat bo'lishi mumkinmi?

Ushbu g'azalda istiro, tashbeh, takror, talmeh, tanosib, ruju kabi bir qator she'riy san'atlar qo'llangan. Ayniqsa, shoir o'z tashbeh va tavsiflarida bir fikrni go'yo o'rtaga qo'yib, so'ng uni ketma-ket inkor qilish bilan tasvir obyektining o'ziga xos jihatlarini yangidan tasdiqlash yo'lini topgan.

Sayfi Saroyining boshqa g'azallarida ham o'ziga xos jihatlar juda ochiq ko'rinadi. "Qamar yuzungdin ..." g'azalining mat'lasida har ikki misradagi bircha "yonma-yon" so'zlar o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan.

Qamar yuzungdin bo'lur munavvar.

Shakar so'zingdin kelur mukarrar.

Odatda, she'r misralardagi oxirgi so'zlargina qofiyalanib kelardi. Bu yerda har bir misradagi to'rttala so'z ham o'zaro qofiyadoshlik darajasiga ko'tarilgan. Bu yerda qamar: shakar, yuzungdin: so'zingdin, bo'lur: kelur, munavvar: mukarrar so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lmoqda. Har ikki misra o'rtasidagi to'liq qofiyadoshlik xodisasi tar'se deb yuritiladi. "Tar'se"ning lug'aviy ma'nosi "ipga marjon tizish"dir.

E'tibor berilsa, bu yerda ham yorning yuzi oyga nisbat berilmoqda. Ammo oldingi g'azalda yuz oyga o'xshatilgan edi. Bu yerda esa oynning nur taralishiga sabab, yorning yuzi deb ko'rsatilmoqda. So'ng esa yuz quyoshga nisbat berilmoqda. Yor shunchalik go'zal latofatliki, uning xayoliy tasviri ham ko'ngillarga farah, shodlik va quvonch beradi. Biroq oshiq yordan uzoqda, shunga ko'ra u yorga intiladi. Hozircha esa o'z shaydologini daftarlarga tafsir, izoh sifatida bitmoqda.

Boshqa g'azallarda Sayfi Saroyi deb imzo chekkan shoir bu yerda Sayfi taxallusini qo'llagan.

Sayfi Saroyi masnaviylari ham alohida mavqyega ega. Bu jihatdan "Vasf ul-shuaro" she'ri ahamiyatlidir. U "Shoirlar vasfi" demakdir. Ushbu masnafiya adib o'zining adabiyo-estetik qarashlarini bayon etadi. U ijodkorlarning turli guruhlari mavjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlar haqida to'xtab o'tadi. Buni adabiy tanqidchilikning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida ham qabul qilish mumkin.

O'zbek dostonchiligi ravnaqi tarixi ham Sayfi Saroyining nomi bilan ziynatlangan. Uning "Suhayl va Guldursun" degan dostoni ana shu an'anani boyitadi. Doston 82 bayt – 164 misradan iborat.

Muallif doston voqyealarining tarixiy asoslari borligini shunday ta'kidlaydi:

Emas afsona, chin ushbu bitilmish,

Bu chin afsonadek ishqda yetilmish.

Demak, doston mavzusi ham ishq-muhabbat bilan bog'liq.

Voqyealar Tesmurning Urganchga lashkar tortib kelishi bilan boshlanadi. Bu yerdagi urush manzaralari tasviri o'z realligi va ta'sir kuchi bilan ajralib turadi. Jang asnosida Suhayl asirga tushib qoladi. Shoh qizi – Guldursun Suhaylni ko'rib uni sevib qoladi.

Guldursin zindonbandlarga pand berib, ularni mast qilib qo'ygach, Suhayl bilan qochishadi.

Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari poy,

Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy.

So'ng:

Alar ko'p yurdiyu sahrog'a kirdi,

Gunashdin sahro ichra do'zax erdi.

Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmaq,

Agar bo'lganda ham aqchasi lak-lak.

Ana shu qiyin holda ochlik va tashnalikdan Guldursin hushuni yo'qotadi.

Suhayl bordi toparg'a suvg'a, dong'a,
Vale darmon berolmay qoldi jong'a.

Yorsiz hayot mazmuni qolmasligini idrok etgan Suhayl o'ziga tig' uradi va halok bo'ladi.

Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,
Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq.

Ana shu voqyealar bayonidan so'ng shoir buyuk bir ehtiros bilan bunday ulug' va qudratli muhabbat egalarini ulug'laydi.

O'lurmi sevgi ham bil, shundin ortuq,
Ki ikkisi qilur jonini tortuq.

Dostonda har ikki qahramon Suhayl ham, Guldursun ham pokiza va kuchli muhabbat egalari sifatida ko'rinadi. Ulardagi ishonch va e'tiqod samimiyati, ruh pokizaligi, mardonavorlik, kelajakka ishonch adib tomonidan nihoyatda ta'sirli, ishonarli tarzda tasvir etilgan. Dostondagi tasvirlar ko'proq qahramonlarning ichki dunyosini yoritishga yo'naltirilgan. Hatto, o'rni-o'rni bilan uchraydigan tabiat manzaralari tasviri ham shu maqsadni kuchaytirib ta'kidlashi bilan xarakterlidir.

Umuman, doston pok muhabbat tarannumiga bag'ishlangan.

Xotin sodiq, ani sevgil aziz er,
Har og'ir ishda ham doim seni der.
Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngil ber,
Uning so'z bahridin gavharlarin ter.

Doston hazaji musaddasi maqsur (mafoiylun, mafoiylun, fauvlun) vaznida yozilgan.

Sayfi Saroyi benazr tarjimon hamdir. Adib Sadiy Sheroziyning mashhur "Gulston" asarini, "Guliston bit-turkiy" nomi bilan o'zbekchallashtirgan. Shu asosda u o'zbek tilining ichki imkoniyatlari naqadar boyligini yana bir marta namoyish etdi.

"Guliston bit-turkiy" hikoyatlari inson ma'naviyatini boyitishi, turli ezgulik va yaxshi axloqiy sifatlarni ulug'lab, yomonlik va yolg'on xulq-atvorini tanqid qilishi, qoralashi bilan harakterli.

Damashqdagi jome' ichidagi voqyea bayonida adib ezgulik qudratini nihoyatda go'zal va sodda tarzda ifoda etadi. "Zulm urug'ini ekib xayr istaganlar o'zlarini jahannam o'tiga yoqadilar" deyiladi, hikoya so'nggida.

Keyingi hikoyat ham zulm va adolat haqida. Zolim kishining “mening haqqimga duo qil” deyishi muqobilida faqir kishi: “Iloho, buning jonini olgil”, deb duo qildi. Shunda zolim – Hajjoj ibn Yusuf: Bu qanaqa duo? – deb so‘raydi. Bunga javoban faqir: “Bu shunday xayrli duoki, u senga ham, barcha musulmonlarga ham naf keltiradi”, - deydi. Demak, zolim hukmdor hych kimga naf bermaydi. Undan raiyat azob ko‘radi, xolos.

Hotami Toyi hikoyatida esa, muruvvat, sahovat olqishlanadi, kamtarlik, nafsini tiyish ulug‘lanadi.

Sa‘boni Voil haqidagi hikoya esa nutq odobi mavzusiga bag‘ishlangan.

Bularning hammasi inson kamoloti uchun xizmat qiladi. Ularning ahamiyati hozirgacha ham kamaygani yo‘q. Bunday nodir yodgorliklar bizning jamiyatimizga ham xizmat qilaveradi”.

Darslikda savol va topshiriqlar tizimiga alohida e‘tibor berilgan. Ularda o‘quvchilarning yangi bilim olishlari, olgan bilimlarini mustahkamlashlari, bu borada tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishlari ko‘zda tutilgan. Eng muhimi, savol va topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishgarag‘batlantiradi. Namuna sifatida shu bo‘limdagi savol va topshiriqlar bilan tanishish mumkin:

- “1. Sayfi Saroyi qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Uning qanday asarlari bor?
3. Adibni “lirik shoir” deyishga qanday asoslar bor?
4. “Suhayl va Guldursun” dostoni syujeti va kompozitsiyasidagi o‘ziga xoslik nimadan iborat?
5. Asarda hayot haqiqati bilan afsonaviylikning mutanosibligi qaysi darajada deb o‘ylaysiz?
6. Doston qahramonlaridagi qaysi fazilatlar alohida tasvir etilgan?
7. Unda urushga munosabat qanday aks etgan?
8. Sayfi Saroyning tarjimonlik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
9. Emas afsona, chin ushbu bitilmish, Bu chin afsonadek ishqda yetilmish, - deb yozadi adib. Uni qanday izohlash mumkin?
10. Doston qismlarining o‘zaro bog‘lanishiga e‘tibor bering. Bog‘lovchi vositalar sifatida nimalarni ko‘rsatish mumkin?
11. Dostonda tush epizodi bor. U qanday kompozision vazifani ado etmoqda?
12. Tush epizodi yana siz o‘qigan qaysi asarlarda mavjud? Bu asarlarning hammasida ham tush bir xil vazifani bajaradimi?
13. “Gunash dunyo yuzidin chohga botdi” misrasining o‘z va ko‘chma ma‘nolarini izohlang?
14. Guldursunning tavsifi uchun shoir qanday ifodalardan foydalanadi? Ularni daftaringizga ko‘chirib oling.
15. Guldursun bilan Suhaylning chohda ko‘rishgan paytlaridagi ruhiy holatlari qanday tasvirlangan?

16. Asarda Guldursun faol, harakatchan, tashabbuskor qiyofada. Suhayol esa aksincha ko‘rinadi. Bu Suhayl obrazini xiralashtiradimi, yo‘qmi? Izohlab bering?

17. Ularning chohdan qochib chiqishlari qaysi paytga to‘g‘ri keladi? Ana shu payt qaysi ifoda orqali ko‘rsatilgan?

18. Sahrodagi noqulay sharoit qaysi misralarda ko‘rsatilgan? Unda ko‘proq nimagalarga e‘tibor berilgan?

19. Bu voqyealarga adibning munosabati qay yo‘sinda izhor etilmoqda? O‘sha misralarni daftaringizga ko‘chirib oling.

20. “Suhayl va Guldursun” dostonida sevgi va sadoqat tarannumi mavzusidagi insho uchun kengaytirilgan reja tuzing. Reja tuzishda doston misralaridan foydalanishga harakat qiling.

21. Ushbu insho uchun epigraf bo‘lishi mumkin bo‘lgan misralarni aniqlang”.

“Darslik muallifi savol va topshiriq tuzar ekan, o‘quvchini zo‘r berib ishlatish uchun emas, balki uning o‘z ijodiy qiyofasini namoyon etishga sharoit yaratib berishni ko‘zlashi kerak. Zero, savolga javob beruvchi javobga olib boruvchi yo‘lni o‘zi topishi, asar yuzasidan o‘ylanishi, fikr yuritishi va uni asosli ifodalab, himoya qilishi muhimdir”¹. Professor Q. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Topshiriqlardan maqsad o‘quvchilarni qiynash emas, balki ularning badiiy matnni imkon qadar chuqurroq idrok etishlariga sharoit yaratib berishdir”².

Kasb – hunar kollejlarning darsligi “Ona tili va adabiyot” darsligi deb nomlanadi. Bunda adabiyot mavzularining o‘rganilishiga 80 soat ajratilgan bo‘lib, unda mumtoz va hozirgi o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalari hayoti, ijodidan namunalar berildi.

Savol va topshiriqlar:

1. Maktab adabiyot dastur va darsliklari haqida fikringiz?
2. Adabiyot darsliklari uchun yaratilgan metodik qo‘llanmalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli qanday? Misollar asosida izohlab bering.
3. Akademik liseylarning I bosqich uchun yaratilgan adabiyot darsligida adabiy materiallarining berilishi haqida fikringiz?
4. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan “Ona-tili va adabiyot” darsligining adabiyot qismini maktab darsliklari materiallari tahlili asosida uzviylikning ta’minlangani aniqlangan.

¹ Тўйчиева М. адабиёт дарсликларидаги савол ва топшириқлар ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. 2005, 3-сон, 17-20-бетлар.

² Қ.Йўлдошев. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Т.: Ўқитувчи, 1996. 62-бет.

MAVZU: №7. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDAGI DARSLIKLARINING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

REJA:

1. Darsliklar yaratish tarixi.
2. Darsliklar yaratishdagi islohatlar.
3. Darsliklari yangi avlodini yaratishdagi islohatlar.

Halqimizning durdona asarlari “Qabusnoma”, “Shohnoma”, “Yusuf va Zulayho” hamda Navoiy, Fuzuliy, Jomiy, Bobur, Mashrb davonlari uzoq asrlar davomida darslik vazifasini o'tab kelganligi ayni haqiqatdir. Davrlar o'tib, o'qish va o'qitish ishlari takomillashib borgan sari darsliklar yaratishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Millatimizning ilg'or vaklari tomonidan XX asrning boshlarida dastlabki darsliklar yaratilgani ma'lum. Jumladan, Sayidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidov, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat, Elbek kabi ma'rifatparvarlar tomonidan ko'plab darsliklar yaratilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, ushbu darsliklarda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, pand-nasihatlar, qissadan –hissa hikoyalar berilgan edi. Bular o'z vaqtida endigina shakllanayotgan o'quvchi shaxsida milliy dunyoqarashni, zukkolikni, odob-axloqni, yomonlikka nafrat, ezgulikka rag'batni, topqirlikni, mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'lish xususiyatlarini qaror toptirishga xizmat qilgan. 30-yillardan keyin tartib berilgan darsliklar yagona “tipoviy” dasturlar asosida darslik yaratish talabiga amal qilindi.

Ona tili darsligi til ta'limining maqsad, vazifa va mazmuni asosida yaratiladi, maktabda o'rganiladigan barcha sinflar uchun darsliklar bir-biriga bog'liq holda tuziladi va ta'limning uzviyligiga amal qiladi. Darslik davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilmog'i lozim.

Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylanadi. Shu bois “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv-adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilayapti. Osiyo taraqqiyot bankining kredit moblag'lari hisobidan “Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish” loyihasi doirasida yangi avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ona tili darsliklarining yangi avlodi maydonga keldi.

-5-sinf uchun “Ona tili” darsligi N.Mahmudov, A.Nurmanov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jumaboyevlar muallifligida yaratildi. T-2007 y.

-6-sinf uchun “Ona tili” darsligi N.Mahmudov, A.Nurmanov, A.Sobirov, V.Qodirovlar;

-7-sinf darsligi, 8-sinf darsligi M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva;

-9-sinf darsligi H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, M.Abduraimovalar tomonidan yaratilgan. Bu darsliklar va shu darsliklar uchun yozilgan "O'qituvchi" metodik qullanmalari "Darsliklar tanlovi"da g'olib bo'lgan.

Jumladan, 5-sinf darslik-majmua o'quvchiga murojat bilan boshlanadi. U dasturga muvofiq tarzda ona tili haqidagi boshlang'ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan ixcham nazariy lavha bilan boshlangan. Dastalb tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ixcham kirish suhbat berilgan.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo'lingan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Kirish.
2. Takrorlash.
3. Sintaksis va punktuasiya.
4. Morfologiya.
5. Fonetika. Grafika.
6. Leksikologiya.
7. O'quv yili oxirida takrorlash.

Har bir rukn ichida rang-barang topishiriqlar berilgan. Ularni bajarish uchun turli uslub va janrlardagi matnlar tavsiya etilgan.

Masalan "Kirish"da dastlab ikkita topshiriq berilgan. Ulardan keyin tilning ijtimoiy xususiyatini yoritib berishga oid matn namunasi beriladi. Sung "bilib oling" degan alohida bandeda ixchamgina xulosa chiqarilgan. Navbatdagi qism o'quvchilarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan mashqlarga aloqador. 1-mashqda "Quyidagi so'zlarning o'zbek tilid paydo bo'lish sabablarini aniqlang" deyiladi. Ular kollej lisey, tadbirkor, fermir, tuman, viloyat so'zlaridan iborat.

Keyingi mashq til haqidagi matnni o'qib, o'z fikrini aytib berishni talab qilishga mo'ljallangan. So'ng maqollarni ko'chirish va yodlash vazifasi berilgan.

Uning izidan topishmoqlarning javobini topish talab etiladi. 1-dars oxirida bir nechta savollar berilgan. Kitobda rasmga qarab hikoya tuzish, turli matn namunalarini yaratish sigari topshiriqlar o'quvchilardagi mustaqil, ijodiy fikrlashga rag'bat uyg'otadi, ularning bu sohadagi ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiradi.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta'minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Birinchi mavzusi uchun 6 ta, ikkinchi mavzu uchun 3 ta, uchunchi mavzu uchun 4 ta savol va topshiriqlar tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar o'rganilishi lozim bo'lgan materialning hajmi, xarakteri va undan ko'zda tutilgan maqsad bilan bog'liq holda tuziladi. Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar muayyan til hodisasi haqidagi yangi ma'lumotlarni bilishga qaratilgan. Ayrim savollarda boshqa o'quv predmetlari, san'at turlari bilan

aloqadorlik nazarga olingan. Yana bir turkum savollar esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Ba'zi savollar voqyealarning izchilligi, mantiqiyiligini kuzatishga undasa, yana ba'zilar ularni ifodiy fikrlashga da'vat etadi. ("Qarisi bor uyning parisi bor" mavzusida matn tuzing). Amaliy – ijodiy faoliyatni talab talab etadigan. ("Rasm asosida hikoya tuzing") savollar ham darslikda anchagina uchraydi.

Topshiriqlarda ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko'rinishlar mavjud. Ular o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarning ortishiga omil bo'ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo'naltirilgan topshiriqlar ham bor. 5-sinf darsligida nazariy tushunchalar elementar tarzda taqdim etilgan.

Ona tili uning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. 5-sinf darsligi bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o'zbekcha so'z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab yetishlari uchun dastlabki qadamlar qo'yiladi. Ammo har bir matnning o'ziga xos tarzidagi yondoshuvlarni taqozo etishini ham unutmashlik kerak.

Dastur va darsliklarda o'rganilishi ko'zda tutilgan matnlar badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko'ra tanlangan, asar tahlilida bir xil fikrlash va bir qolipdagi mulohazalar yuritishdan voz kechilgan. Shunga qaramay, ayrim holatlarda, nazarimizda badiyoti unchalik yuksak bo'lmagan namunalarga ham o'rin berilgan.

Darsliklar bilan birgalikda o'qituvchi uchun metodik qo'llanma yaratilmoqda. Metodik qo'llanmada har bir darsning o'qitish metodikasi, darslikdagi mavzularga qo'shimcha ma'lumotlar, mashg'ulotlar, topshiriqlar o'rin olayapti, bu esa o'qituvchiga har bir darsni mazmunli qilib o'tishiga imkon tug'diradi.

Savol va topshiriqlar

1. 5-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar bilan yaqindan tanishing. Ularning dastur bilan uyg'unlik darajasiga baho bering.

2. 6-sinf darsligida alohida til sathlarining qanday yoritilganligiga e'tibor bering. Ulardagi materiallarni mantiqiy qismlarga ajrating. Hamma til sathlari uchun umumiy bo'lgan o'rinlarni, alohida til sathlari uchungina qo'llangan usullarni ajrating.

3. badiiy matnning taqdim etilish shakliga e'tibor bering. 7-sinf misolida matnlarga beriladigan topshiriq va izohlar tizimini o'rganib chiqing.

4. 8-sinf darsligidan nazariy materiallarning berilishini kuzating. Ularning o'quvchilar yoshiga hamda adabiy tayyorgarligiga mutanosibliigi haqidagi o'z fikringizni asoslang.

5. Har bir sinf darsligidagi savol va topshiriqlar tizimini o'rganib chiqing. Ularda o'quvchini bevosita ijodiy ishlarga undaydiganlarining salmog'ini aniqlang. Bunday topshiriqlarni ko'paytirish uchun nimalar qilishi mumkinligi haqida o'z fikringizni bildiring.

6. darsliklarda mualliflarning tili qaysi darajada aks etgan. Ularning har bir sinf o'quvchilari uchun munosiblik darajasiga baho bering.

MAVZU: №8 TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK

REJA:

1. Ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlik.
2. Ona tili ta'limida uzviylik va uzluksizlikning nazariy va metodik asoslari.
3. Umumiy o'rta ta'lim bug'inida uzviylik va uzluksizlik.

Ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlik, uning o'ziga xos xususiyatlari

Ona tili ta'limi uzviyligi deganda ta'limning turli bosqichlarida o'rganiladigan bilimlarning, egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarning o'zaro aloqadorligi nazarda tutiladi. Bu boshqa barcha o'quv predmetlari qatorida ona tili fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. U faqat nazariy jihatdan metodist olimlar hal qilishi kerak bo'lgan ilmiy muammogina emas, balki har bir amaliyotchi – o'qituvchi kundalik hayotda duch keladigan eng jiddiy amaliy vazifa hamdir.

Uzviylik va uzluksizlik barcha fanlarni eng samarali tarzda o'zlashtirishning bosh omilidir. U tegishli bilimlarni o'zlashtirishda qanchalik muhim bo'lsa, shu bilimlarni o'zlashtirishda qanchalik muhim bo'lsa, shu bilimlarni olish va amaliyotga tatbiq etish bilan aloqador bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashda ham shunchalik zarurdir. Buning hayotiy zarurat ekanligini isbotlab o'tirish shart emas. Shunga qaramay uni amalga oshirishning real yo'l-yo'riqlariga faqat yosh mutaxassisgina emas, balki tajribali o'qituvchilar ham muhtojlik sezishadi. Mazkur metodik qo'llanma ana shu zarurat taqozosiga ko'ra yuzaga keldi.

Uzviylik va uzluksizlik tushunchalari bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda yashaydi. Ushbu so'zlarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi tavsiflari bilan qiziqib, ushbu so'zlarning alohida lug'at maqolalari sifatida berilmaganini ko'rib afsuslandik. Lug'atda faqat "uzviy" va "uzluksiz" so'zlarigina tavsiflangan, xolos. Ularning tavsifi quyidagicha:

"Uzviy – 2. biror kimsa yoki narsaning ajralmas bir qismi hisoblanadigan, u bilan chambarchas bog'langan; yaqin"¹.

"Uzluksiz – 1. birin-ketin, ketma-ket, paydar-pay...2. To'xtamasdan, surunkasiga, tinimsiz... Muntazam ravishda, izchil ravishda, kanda qilmasdan"².

Mazkur izohlar bu so'zlarning asl mohiyatini tasavvur qilishga imkon beradi. Biz dastlab, ta'limning turli bosqichlarini nazarda tutishimiz kerak. Bu maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, akademik lisey va kasb-hunar

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Икки томли, 2 том, Москва, Рус тили, 1981, 265-бет.

² Ўша китиоб, 265-бет.

kollejaridan iboratdir. Ona tili ta'limidagi asosiy ko'rsatkichlarning sifat va samarasi mana shu bosqichlardagi ichki aloqadorlikning qanchalik e'tiborga olinishiga chambarchas bog'liqdir.

Uzluksizlik esa umumiy o'rta ta'lim maktablarining I bosqichi (I-IV) va II bosqichi (V- IX) bilan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari ona tili ta'limi o'rtasidagi bog'lanishdir.

Ona tili ta'limining uzviyligi masalasini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Ona tili ta'limi bosqichlari o'rtasidagi (vertikal) uzviylik. Bunda muayyan ta'lim mazmunini avvalgisi bilan uzviy bog'langan holda, uni keyingi ta'lim turlarida davom ettirish ta'minlanadi.

2. ona tili ta'limining boshqa o'quv fanlari orasidagi (gorizontal) uzviylik.

Ona tili ta'limi tizimida uzviylikni to'la hal qilish uchun ta'lim mazmunini bayon qilishda o'qitish texnologiyasidagi uzviylikni ham ta'minlash muhimdir.

Ona tili ta'limi tizimida uzviylikni to'la ta'minlash uchun quyidagi tamoyillarga asoslangan holda ish yuritish talab etiladi:

- ona tili dasturining DTS talablariga javob berishi;
- dasturning ijtimoiy buyurtmaga mos bo'lishi;
- milliy g'oya, milliy mafkuraga oid bilimlarning aks etishi;
- o'quvchilar bilim faoliyati yaxlitligini ta'minlay olishi;
- dasturda vertikal va gorizontal uzviylikning ta'minlanganligi;
- dastur mazmuniga kiritilgan mavzular o'quvchilar dunyoqarashi, bilim olishga bo'lgan psixo-fiziologik xususiyatlariga muvofiqligi;
- fanlararo aloqani amalga oshirishda o'qitishni integrasiyalashga oid ko'rsatmalarning dasturda o'z ifodasini topganligi;
- dasturda axborot texnologiyalarini qo'llashga oid ko'rsatmalarning hisobga olinganligi;
- dastur materiallarining oddiydan murakkabga tamoyili asosida joylashtirilganligi;
- dastur materiallarining tematik, muammoli tematik, tarixiylik tamoyillari asosida guruhlashtirilganligi.

Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda ona tili o'qituvchilari quyidagi didaktik talablarga e'tibor berishi muhim hisoblanadi:

- ta'lim jarayonini aniq maqsad asosida tashkil etish;
- ta'lim jarayonini tizimli, uzviy, izchil tashkil etishga erishish;
- ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish;
- ta'lim jarayonida demokratik tamoyillar hamda milliy umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga tayanish;
- ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikka alohida e'tibor berish;
- har bir mavzu mohiyatini ochib beruvchi, o'quvchilarni ijodiy izlanishga yo'naltiradigan ta'lim shakli va usul hamda metodlaridan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchisining kecha, ya'ni oila va bog'chada olgan bilim darajasini albatta nazarda tutishi shart. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining yuqori sinflardagi ona tili ta'limi oldidagi asosiy

ko'rsatkichlardan xabardor bo'linishi ham ish unumiga, uning pirovard natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu talab akademik lisey va kasb-hunar ta'limiga ham aloqador.

Har bir bosqich o'quvchiga mutlaqo yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganishi va o'zlashtirishi uchun imkon va sharoit yaratib berishi muqarrar. Demak, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan yangi va yaxshi ko'nikma va malakalar saqlab qolinishigina emas, balki yanada rivojlantirilishi, boyitilib borishi va kerak bo'ladi. Xuddi shuning uchun davlat ta'lim standartlarining muqarrar ravishda bajarilishining nechog'lik muhim ekanligini tasavvur etish qiyin bo'lmaydi.

Bularning barchasi o'quvchilarning turli bosqichlarda oladigan grammatik bilimlarinigina emas, balki ular egallayotgan ko'nikma va malakalarning ham batafsil uyg'unlashtirib borilishini taqozo etadi.

Demak, muayyan ta'lim bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi faqat shu bosqich uchun ko'zda tutiladigan davlat ta'lim standartlari, dastur talablarini bilish bilan kifoyalanib qolmasligi kerak bo'ladi.

Bu yo'ldagi dastlabki qadam ta'limning hamma bosqichlarida yo'lga qo'yilishi shart bo'lgan munosib nutqiy sharoitni yaratishdan iboratdir.

Ta'limning turli bosqichlarida bolaning tabiiy rivojlanishiga bog'liq holda yangi faoliyat turlari yuzaga kela boshlaydi, aniqrog'i bola ularga ro'para bo'la boshlaydi. Masalan, u oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida tildan og'zaki muloqot vositasi sifatidagina foydalanib kelgan edi. Boshlang'ich sinfga kelgach, unda yangi faoliyat turi paydo bo'ladi. Bular:

- ▶ til endi bola uchun bilish vositasiga aylanadi, ya'ni maktabdagi o'quvchi faoliyatining asosiy turi bo'lgan o'qish vositasi vazifasini ado etadi;

- ▶ maktabga kelgunicha u nutqning ikki ko'rinishi: eshitish va gapirishdangina foydalangan bo'lsa, bu bosqichda ularning yoniga o'qish va yozish ham kiradi. Tabiiyki bu holat bir qator yozuv va imlo ko'nikmalarining yuzaga kelishi uchun ham omil bo'ladi;

- ▶ bola maktabga kelmasidan oldingi davrda tildan vaziyatga qarab, "ongsiz" holda foydalanib kelar edi. Endi esa uning oldida tildan rejali tarzda foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Endi u o'quvchi sifatida kerak bo'lganligi uchun ham gapiradi;

- ▶ til tahlil qilish, o'rganish obyektiga aylanadi. O'quvchi shu paytgacha "bilib-bilmay" foydalanib kelgan tilning muayyan tushuncha va qonuniyatlarga ega ekanligini bilib, his qilib boradi. Eng muhim bu tushuncha va qonuniyatlarni anglash, o'rganish mumkinligini ham tasavvur qila boshlaydi.

Bularning barchasi maktabgacha ta'lim davri bilan boshlang'ich sinf davri orasidagi tafovutlarning naqadar katta ekanligini ko'rsatib turadi. Xuddi shunday farqlarning yuqori sinflarda, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarda ham mavjudligini ta'kidlash joiz.

O'qituvchi har bir ta'lim bosqichida bundan oldingi va keyingi bosqichlardagi holatlardan yaxshi xabardor bo'lishi shartligini yuqorida ham eslatgan edik.

Bu nima uchun kerak degan savolning bo'lishi tabiiy. Bunga javob berishga harakat qilib ko'raylik.

Til o'quvchining bilish faoliyatidagi eng asosiy vosita hamdir. Tilni yaxshi o'zlashtirgan, puxta egallagan o'quvchining fanlarni yaxshi o'zlashtirishi ham amaliyotda ochiq ko'rinib turgan haqiqatdir. Birinchi qadamlaridanoq tilga aloqador bo'lgan ko'nikma va malakalarni yaxshi egallamagan o'quvchining bilim olishida ham ko'plab muammolar paydo bo'ladi. Masalan, tegishli o'qish malakasiga ega bo'lmagan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni uddalay olmaydi. Yomon va sekn o'qiydigan o'quvchining tez va chiroyli yozishi ham mumkin bo'lmay qoladi. Bular oxir-oqibatda o'quvchining o'z fikrlarini ifodalashiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. U o'z fikr-mulohazalarini to'liq tushuntirib bera olmaydi. Bu holat uning "qoloq"lar safiga tushib qolishi uchun sabab bo'ladi. Zero, boshqalar o'qib yoki yozib uddalagan hajm va miqdordagi o'quv materialini bunday bola uddalay olmaydi.

Har holda boshlang'ich sinfnig oxirgi-to'rtinchi sinfini bitirgan o'quvchilarning ayrimlarida ayni man shu ko'nikma va malaka-matnni tegishli tezlikda o'qish yetishmaydi. Ular mazkur bosqichda bir minutda to'qsonta so'zni o'qiy olishlari lozim bo'ladi. Bu boshlang'ich sinflarning o'quv dasturida ko'rsatilgan talabdir.

Agar shunday holat kuzatiladigan bo'lsa, 5-sinfda ham mazkur ko'nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirishga oid ishlar davom ettirilishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarning orfografik savodxonligi boshlang'ich sinflarda nisbatan past bo'ladi. Yuqori sinflarda mana shu kemtiklik uzluksiz tarzda bartaraf etib borilishi kerak. Bu o'quvchilardagi bir qator ko'nikma va malakalarni rivojlantirish evaziga ta'minlanadi. Ular qatorida eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

So'zlarda tovushlarni eshitish, ularda esa yoziladigan harfni ko'ra olish ko'nikmasi, bu esa so'zning tovushli va harfli jihatlarini yaxlit tarzda tasavvur qila olish ko'nikmasini shakllantiradi.

So'zlardagi orfogrammalarni tez payqay olish ko'nikmasi, ya'ni orfografik ziyraklik shakllana boradi.

O'quvchilarning so'z boyligini muntazam ravishda ortib borishiga erishish shart. Bu tegishli ko'nikma va malakalarsiz amalga oshadigan ish emas. Belgilangan talablarga ko'ra o'quvchilar tegishli yosh va sinflarga yetganda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishlari talab qilinadi:

Ikki yoshda -30 – 100 ta, to'rt yoshida – 1000 – 400 ta, olti – yetti yoshida (birinchi sinfga borganida) – 3000 – 7000 ta, boshlang'ich sinf oxirida 8000 – 15000 ta so'zni blishi lozim.

Uzluksiz ona tili ta'limi shu fanga oid davlat ta'lim standarti, turli darajadagi o'quv dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- 1) Maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada bolalar nutqini o'stirish jarayoni.
- 2) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limi jarayoni.

3) Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida ona tili ta'limi jarayoni.

4) Oliy o'quv yurtlarida ona tili ta'limi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari asosida tashkil etiladigan ona tili ta'limi tizimini yuqoridagi chizma orqali yaqqolroq tasavvur etish mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, uzviylik va uzluksizlik davlatning ta'lim to'g'risidagi siyosatdan, buyurtmasidan to buyurtmaning ijro natijalarigacha bo'lgan jarayondagi tadbirlarni qamrab oladi.

Ona tili ta'limida uzviylik va uzluksizlikning nazariy va metodik asoslari.

Uzluksiz ona tili ta'limining nazariy va metodik asoslarini falsafa, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, nutq madaniyati va o'zbek tilining amaliy uslubiyati, uslubshunoslik, shuningdek, adabiyot va jurnalistika kabi fanlar tashkil etadi. Chunonchi, ona tili ta'limi nazariy jihatdan tilshunoslik fanlariga tayansa, ta'lim jarayonini tashkil etishda nazariy asos sifatida pedagogika va psixologiya, o'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlariga suyanadi. Til bilimlarini tahlil qilish jarayonida til materialini tanlash uchun badiiy adabiyot va matbuot materiallariga murojaat qiladi.

Uzluksiz ona tili ta'limi azmuni o'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar asosida boyitib boriladi. Albatta, ona tili fani bo'yicha yaratiladigan davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklar mazmunida shu ta'lim jarayonining nazariy asosini tashkil etuvchi tilga oid ma'lumotlar ta'lim oluvchining yoshiga va psixo-fiziologik xususiyatlariga muvofiq tarzda aks etishi kerak. Bunda til materiallari orasidagi uzviylik va izchillikka, nazariy va amaliy bilimlarning soddadan murakkabga tamoyiliga asoslanishi, nazariya bilan amaliyotning o'zaro uyg'unligi masalalariga alohida e'tiborni qaratish zarur. Demak, davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklar, birinchi navbatda, muayyan nazariy asosga tayanilgan holda yaratilmog'i lozim.

Uzluksiz ona tili ta'limi tizimida tegishli pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-pedagogik jihatdan ta'minlash, amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini kafolatlashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik texnologiya doirasiga kiradigan tushunchalar 2 katta guruhda mujassamlashadi:

1. Shaxsga ta'lim berish, ta'lim vositalarini o'zlashtirish va uni rivojlantirish.

2. Ta'lim jarayonini va uning natijalarini nazorat qilish, tashxis qo'yish hamda ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati va o'zlashtirish natijasida olgan bahosini yaxshilashni ta'minlash.

Birinchi guruhga mansub elementlar ona tili fani bo'yicha davlat ta'lim standartlari va dasturlarini ishlab chiqish, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini va vositalarini aniqlash, ta'lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni, bu jarayonni o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlashni taqozo qilsa, ikkinchi guruhga mansub elementlar o'qituvchining pedagogik mahoratini, ta'lim jarayonini boshqarish san'atini, pedagogik psixologik bilim saviyasini oshirishni, nazorat va tashxisning yangi

vositalarini aniqlashni, usullarni kashf etishni talab qiladi. Jumladan, til vositalarini o'rgatish jarayonini kommunikativ modelga asoslangan holda tashkil etish o'z-o'zidan o'quv materiallarini tahlil-munozara usulidan foydalanish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bu esa. O'z navbatida ta'lim oluvchining nutq va muomala madaniyatini rivojlantiradi. Demak, har qanady pedagogik texnologiya uchun ijtimoiy zaruriyat asosiy mezon bo'lishi kerak. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu jarayonlarning izchil va uyg'un amalga oshirilishi, asosan, shu fan bo'yicha yaratiladigan darsliklarning saviyasiga bog'liq. Har qanday darslik, birinchi navbatda, muayyan nazariy asosga tayanilgan holda yaratilishi kerak. Darsliklarning yangi avlodi o'z tarkibida o'quv predmetining mazmuni hamda o'quvchilar bilish faoliyatining ko'rinishlarini mujassam tarzda ifodalashi zarur. Faqatgina ko'p tarmoqli gipermatnlariga o'quvchi shaxsining rivojlanish jarayonini ta'minlay oladi. Masalan, ona tili darsliklaridagi matnlar bir tomondan shaxsning til boyligini munatzam oshirishga, ikkinchi tomondan, uning moddiy borliq, tabiat, jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga qaratiladi. Shuningdek, darsliklarning yangi avlodi tarkibiga kiritiladigan mashq va matnlar multimediyum yondashuv asosida tanlanib, o'zida yangidan-yangi axborotlarni joylashtirishni talab etadi. Bunda darsliklarning yangi avlodi mavjud modellarni inventarizatsiyalash xulosalari hamda tasnif qilish natijalariga tayanadi.

Uzluksiz ona tili ta'limi uchun darsliklar yaratish muammosining muhim masalalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Darsliklarning, shuningdek, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodida o'quv fani asoslarining mazmuni, ya'ni o'quv modeli bilan ta'lim oluvchilar bilish faoliyati ko'rinishlarini uyg'un holda ifodalash.

2. Ko'p tarmoqli o'quv materialini taqdim etish.

3. Gipermatnlarni berish, multimediyum yondashuvga asoslanish.

4. Darsliklarda (o'quv qo'llanmalarida), informasion (axborot) banklarini taqdim etish.

5. Darslik va o'quv qo'llanmalarida o'quv materiallarini texnik va texnologik talablar asosida ifodalash.

6. Darslik va o'quv qo'llanmalarining ta'lim oluvchi bilan bevosita muloqotga kirishishini ta'minlash.

7. ta'lim jarayoniga darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik vositalar, o'quv lug'atlari va diafilmlar bilan kompleks ta'minlashga erishish.

8. Darslik, o'quv qo'llanmalar mazmunini milliy istiqloq g'oyasining tushuncha va tamoyillari bilan boyitish.

Umumiy o'rta ta'lim bo'g'inida uzviylik va uzluksizlik.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, ya'ni jamiyatning muayyan rivojlanish darajasi ta'lim oldiga o'zining talablarini qo'yadi, shundan kelib chiqib, maqsad va vazifalar belgilanadi. Uzluksiz ona tili ta'limining umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini boshlang'ich va yuqori sinflarda o'qitiladigan ona tili ta'limini qamrab oladi.

Boshlang'ich ona tili ta'limi mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-nutq va tilga oid ixcham bilimlarni o'zlashtirish;

- nutq malakalarini shakllantirish;
- ijodiy faoliyat tajribasini taraqqiy ettirish;
- tilga va til vositasida xalqqa, Vatanga munosabatni tarbiyalash.

5-9-sinflar ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchini ona tilini o'rganadigan subyektga aylantirgan holda unda fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bu haqda "O'zbek maktablarida ona tili o'qitish konsepsiyasi"da shunday deyilgan: "Ona tili ta'limining asosiy maqsadi bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir". Ona tilidan dasturda esa u qo'yidagicha ifodalanadi: "Ona tilini o'qitishdan maqsad, o'quvchilarda mustaqil ijodiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir".

Konsepsiyada ilgari surilgan quyidagi yo'riqlar ona tili ta'limidagi asosiy yo'nalishlarni aks etaradi: 1) ona tili ta'limining mazmunini ifoda vositalari va shu ifoda vositalarining talaffuzi, imlosi va qo'llanishi bilan bir butun yaxlit tarzda tadrijiy ravishda o'rgatishga asoslangan holda belgilab berish; 2) uzluksiz ona tili ta'limining V-IX sinflar bosqichini "nutq madaniyatini shakllantirish" deb nomlash.

"Ona tili" o'quv fanidan ta'lim mazmunini yangilashni taqozo etuvchi zaruratlar sifatida quyidagilarni sanab ko'rsatish mumkin: a) ijtimoiy-iqtisodiy zaruratlar; b) ilmiy zaruratlar; v) metodik zaruratlar; g) amaliy zaruratlar.

Ona tili ta'lim mazmunini uzluksizlik va uzviylik tamoyillari asosida yangilash va o'qitish usul va metodlarini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tiborni kuchaytirish zarur:

1. O'zbek tilshunosligining muammoli masalalari.
2. Mavzularning dastur va darsliklarda joylashtirilishi.
3. Ona tilini o'qitishda kommunikativlikni kuchaytirish.
4. Tilni o'rganishdagi amaliy jihatlarni kuchaytirish masalasi.
5. Yangi pedagogik texnologiyalardan, axborot texnologiyalaridan, noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanish muammolari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili ta'limining uzviyligini quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Ona tili ta'limi bosqichlari (1-4 va 5-9-sinflar orasidagi hamda til bo'limlari mavzularning joylashtirilishi, bunda, albatta, soddadan murakkabga va nazariya va amaliyot uyg'unligi hisobga olinishi zarur) o'rtasidagi (vertikal) uzviylik. Bu jarayonda muayyan ona tili ta'lim mazmunining avvalgisi bilan uzviy bog'langan holda, uni keyingi ta'lim bosqichlarida davom ettirish ta'minlanadi.

2. Ona tili ta'limining boshqa o'quv fanlari orasidagi (gorizontal) uzviylik. Bunda ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan boshqa fanlar bilan uzviy bog'lash ta'minlanadi.

Ona tili ta'limidagi asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy fikrlarini ifodalashga o'rgatishdir. Bu boshlang'ich sinflardan boshlanib umumiy

o'рта ta'lim maktablarida davom ettirilishi, rivojlantirilishi, takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilariga birinchi qadamlardan boshlab mazmunli fikrning aniq, tushunarli va to'g'ri tuzilgan bo'lishi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ana shunday sharoit ularning nutqiy ko'nikmalarini maktabning keyingi sinflarida yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Uzviylik va uzluksizlik tilning barcha bo'limlarida nazarda tutilishi kerak. Jumladan, fonetika sohasida o'quvchilar barcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlari, urug'li va urug'siz bo'g'inlarni ajratishlari, jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuz xususiyatlarini ajratish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Bu ulardagi orfografik savodxonlikning o'sib borishida mustahkam poydevor bo'ladi.

O'quvchilarning o'zak, negiz va qo'shimchalar imlosi bilan bog'liq bilimlari sinfdan-sinfga o'tgan sari boyib boradi. Uning bevosita grammatik bilimlar bilan bog'liq holda o'sish yaxshi ma'lum.

Leksika sohasida ham shu holat mavjud. Boshlang'ich sinflarda so'zlarning o'zi bilan tanishib borish kuzatiladi. Yuqori sinflarda bu bo'limlarni kengaytirish nazarda tutilgan. Jumladan, 4-sinfda bir tovush bilan farqlanadigan so'zlarning ma'nosini ajrata olish, berilgan so'zlarga ma'nodoshlar topish, imlosi murakkab so'zlar ustida ishlash ko'zda tutiladi. Bu sinfda so'zning ma'nosi, uyadosh, ma'nodosh va shakldosh so'zlar haqida dastlabki ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ham dastlabki ma'lumotlar beriladi. Bu yerda o'zakdosh, qo'shma, juft, takror so'zlar nazarga olingan.

Ona tilining izchil kursi ham shu sinfdan boshlanadi. U yerda leksikologiyani o'rganish uchun 48 soat ajratilgan. Biz umumiy tarzda mazkur mavzuning sinflarga ko'ra taqsimlanishini kuzataylik.

Umumiy o'рта ta'limning ona tili predmetida uzviylik va uzluksizlik tilning alohida sathlarini o'rganish tarzida ta'minlangan. Unga ko'ra 5-sinfda sintaksis, morfologiya haqidagi dastlabki ma'lumot beriladi. Bunda kesim, ixcham gap, sodda yoyiq gap, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, gap qoliplari, so'z birikmasi, uyushiq bo'laklar, undalma, qo'shma gap, ko'chirma gap; mustaqil va yordamchi so'zlar, bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilish ko'zda tutilgan. Leksikologiya sohasida esa uyadosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, takror so'zlar haqidagi tushunchalarni o'rgatish rejalashtirilgan. Ona tilining izchil kursida esa bu sinfda fonetika va leksikologiyani o'rganish asosiy ish mazmunini tashkil etadi.

6-7-sinflarda morfologiya, 8-sinfda sintaksis (sodda gap), 9-sinfda qo'shma gap o'rganiladi.

Ko'rinadiki, umumiy o'рта ta'lim maktabidagi ona tili ta'limi sathlararo uzviylikka tayanadi.

9 - MAVZU. YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR, ULARNING MANBALARI VA JORIY ETISH TARTIBI.

REJA :

1. Pedagogik texnologiyalar nima?
2. O'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini baholashning reyting usuli to'g'risida
3. Ta'limda davlat standarti nima va u qanday joriy qilinadi?

Yana tajribalar shuni ko'rsatadiki, qayerda o'qituvchi, maktab rahbari loqayd bo'lsa, dangasa bo'lsa, hafsalasizligi bilan o'zini ko'rsata olmayotgan bo'lsa, o'sha yerda eskirgan uslubga yopishib olib, yangiliklardan qo'rqmoqda, ularni qo'llashda o'quv qo'llanma yo'qligidan tashqari, buni istamayptilar.

1. Pedagogik texnologiyalar nima?

Yangi pedagogik texnologiyalar, ularning manbalari va joriy etish tartibi

Pedagogik texnologiya nima? Nega bu so'z birikmasiga "yangi" so'zini qo'shimcha qilib, "yangi pedagogik texnologiya" deb ataymiz? U nima uchun bugungi ta'lim – tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri kunimizga yarab kelgan tal'imni tashkil etish amaliyotidan voz kechishimiz kerak, o'quv jarayonida qo'llab kelinayotgan loyihalashga yangicha yondashish nima uchun zarur bo'lib qoldi?

Bu kabi savollarga javob berish uchun, eng avvalo, mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olmoq lozim. Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va nihoyat, bu tub islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi – yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv rejasi, o'quv dasturlari asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, uni yangicha tahlil etish zaruriyati tug' ilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, biz "mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda

tutishimiz kerak”. Shu sababli ham birinchi navbatda, ta’lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, takomillashtirish, xususan, ta’lim mazmuniga nafaqat bilim, ko’nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g’oyasi kun tartibiga ko’ndalang qo’yildi.

Bu g’oyani, fikrimizcha, ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro’yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy, ma’naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san’at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar).

- Ta’lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi vazifalari haqida so’z ketganda, dalillar bilan qonuniyatni mustaqil bilish metodlari o’rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur. Lekin bu ishlar o’z yechimini topganicha yo’q. Ochiqchasiga aytaylik: Qaysi darsliklardan Prezidentimizning “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida...” yoki “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” kabi asarlarida ko’tarilgan g’oyalar o’rin olgan? Javob yo’q. Endigi vazifa darsliklarning keyingi nashrlarida bunday kamchiliklarni tuzatishdan iborat.

Ayniqsa, darslik va o’quv qo’llanmalarda terminologik qat’iylik, bir qiymatlilikka erishish kerak. Buning sababi shuki:

- birinchidan, darslik va o’quv qo’llanmalardan fan erishgan yakuniy natijalar yaxlit holda aks etadi, bu esa bizga uning amaliyotga ta’sir darajasini tashhis qilishimizga imkon beradi;


- ikkinchidan, darslik va o’quv qo’llanmalari ona tili (terminologiya) ning yuksak darajadagi namunasini ko’rsata olish mahoratiga ega bo’lgan olimlar tomonidan yaratiladi. Darslik va o’quv qo’llanmalari tili ularni o’qiydigan kitobxonlar (o’quvchilardan tashqari talabalar, o’qituvchilar, metodistlar, olimlar, ota-onalar) savodxonligiga bevosita ta’sir etadi.

Darsda o’qituvchi asosiy siymo. U axborot berish, matnlarni bayon qilish, tezroq, yanada tezroq o’qitish bilan ovora. Lekin, o’quvchlarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, bu ularni o’quv jarayonida mas’uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, amaliy xulosa chiqarishdan yiroqda.

Unda nima qilish kerak? Dars jarayonida, ta’lim-tarbiyada o’quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta’lim jarayonining subyekti bo’lishi kerak, ya’ni o’qish, o’rganish, mutolaa qilish o’quvchi zimmasiga o’tishi kerak.

O’qituvchining vazifasi esa o’qitishdan o’qishni o’rganishga, bilim berishdan o’quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko’maklashishdan iborat bo’lishi kerak. U o’quvchida ehtiyoj tug’dirishi, muhit yaratishi va uni mas’uliyatni his qilishga yo’llashi kerak. Har bir dars oldiga ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya’ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo’lgan uchyoqlama maqsadlar qo’yiladi. Darsni tashkil qilish shakli o’quvchilarning o’zaro aloqalariga bog’liq bo’lib, u

maqsadlarga, o'quv materiallari xususiyatlariga, ta'lim metodlariga va o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Bunga erishish uchun o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilar bilan birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayonni didaktikada "o'quv jarayoni" deyiladi. O'quv jarayonining tarkibi uch qismdan iborat deb qaraladi.



O'quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o'qitishda ichki motivasiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg'u, istak, zaruratni shakllantirish) kelib chiqish kerak. O'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch – o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham ichki motivasiya bo'lishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, darsliklarimiz tili ravon, sodda, ixcham, o'quvchi hayoti, faoliyatiga yaqin matnlardan tashkil topgandagina, u bolalarning sevimli kitobi bo'ladi, o'quvchilar mustaqil holda o'rganishi mumkin bo'lgan "ikkinchi o'qituvchi" vazifasini bajaradi, to'la ma'nodagi bilim manbaiga aylanadi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, didaktikaning semantik jihatlarini aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi, didaktlar semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar o'quv materiallarini bayon qilish, o'quvchilardan fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariya munosabatlarini hal qilishga o'tish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi kerak.

Yana bir muammo ustida to'xtalishni lozim deb topdik. Gap shundaki, biz ko'pcha "ta'lim mazmuni" bilan "o'quv fani mazmuni" tushunchalarini bir xil deb qaraymiz. Aslida unday emas, oldingi tushuncha kengroq, ya'ni o'quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni – tushuncha, hukm, xulosalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni esa, bundan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, ya'ni o'quvchilarda mustaqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlarni (ta'rif, isbot, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalarni) ham o'z ichiga oladi. Bu borada ham darsliklarimizda anchagina kamchiliklar mavjud.

O'quvchilarda bilim olishga intilish (xuddi benzini bo'lmagan avtomashina o'rnidan qo'zg'ala olmagan kabi, bilim olmasang, sening hayotda o'ring yo'q, jamiyatga qo'shila olmaysan...) va bilim olishga ehtiyoji bo'lishi, o'qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O'quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo'lish kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi – bu dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rnini topishi uchun erkin izlanishdir.

O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik prinsip – bu ta'limdagi faollikdir. Faollik mezonlari onglilik prinsipi bilan bevosita aloqador. Chunki faollik bor joyda onglilik bo'ladi.

Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lim – tarbiya jarayoniga birgalikda mas'uldirlar. Ular birgalikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat “baholovchi” emas, balki yangi bilimlar yetkazuvchi manbaga aylanadi.

Jaxon pedagogik leksikoni katoridan allaqachonlar «innovasiya» tugunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «islox» tugunchalarini anglatadi. Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi xar xar qanday uzgarish –bu pedagogik innovasiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iktisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan kullanar edi, sungra ta'lim tizimidagi xar kanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan buldi. Pedagogik texnologiyalarning texnologiya deb atalishi boisi xam shunda. Xozirgi davrga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatika-pedagogik yangiliklar, ularni baxolash va pedagogik jamoa tomonidan uzlashtirish, nixoyat uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, pedagogik neologiya (yunoncha «neo-«yangi» va «logos»-«ta'lim», ya'ni yangilik xaqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika soxasidagi har qanday yangiliklar urganiladi, umumlashtiriladi.

Ikkinchisi, pedagogik aksiologiya (yunoncha «aksioma»-«isbotlanmaydigan ta'limot» ma'nosini anglatadi) deb nomlanib, bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi.

Uchinchisi, pedagogik praksologiya (yunoncha «praks»-«xarakat» va «logos»-«ta'lim», ya'ni «amaliyotda kullash xakidagi ta'limot» manosini anglatadi) deyiladi, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda kullash, muayan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

Xar kanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. Masalan, bunyodkor o'kituvchi S.N.Lisenkovaning xilma-xil didaktik ixtirolari tub moxiyatini yangi o'kuv materialini jadallashtirib o'rganish g'oyasi tashkil qiladi. Bu g'oya asosida esa o'qituvchining bolalar bilan o'zaro xarakati yotadi, ya'ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o'quvchi o'z shaxsini o'zi namoyon

etishini ta'minlash; xar bir metodik yondashuv uchun uziga xos mulokot yulini tanlash; ukuvchilar tashabbusini zimdan boshkarib borish va boshkalar. Bunda ukituvchi xar bir ukuvchi kalbiga kirib borish uchun uzining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orkali yul topadi. Darsdagi ukuvchilar faoliyatiga nafakat ukituvchi, balki ukuvchilar xamraxbarlik kiladi. Avvalo a'lochi ukuvchi, keyin boshkaukuvchilar xam ukituvchi topshirigiga binoan nima ig kilganini aytadi va kolgan ukuvchilarni orkalaridan ergashadilar. Bunday «izoxli boshkaruv» ukuvchi maktab ostonasiga kadam kuygan kundan boshlanishi kerak.

«Tayanch signallar» ijodkori sifatida tanilgan V.F.Shatalovning darsliklarida ukuvchi shaxsini ruyobga chikaruvchi, uning kimligini, nimaga kodiriligini tasdiklovchi didaktik uyinlarga keng urin berilgan. Andijonlik ijodkor ukituvchimiz M. Abdurasulov ukituvchilarni yaxshi ukigani uchun kanday ragbatlantirgani bir eslaylik. Shunga uxshash «pedagogik xamkorlik» yoki «ukituvchi-ukuvchi munosabatlari» goyalarini esga olaylik. Shuningdek, «mantikiy testlar» (Samarkand, kimyo fani ukituvchisi P. Karimov) «ta'limiy musobakalar» (xorazmlik matematika ukituvchisi U. Kuchkorov) va shunga uxshash goyalarga nazar tashlaylik.

Bularning xammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir suz bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardir.

Pedagogik texnologiya, ukuvchilar kay tarzda, kanday usullar bilan ukitilsa, natija samarali buladi, degan savolga javob beradi. U uzining muayyan tizimiga ega bulib, bunda komponentlarning ketma-ketligi, uzaro boglikligi, bir butuligi saklanadi.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish va o'zgarishlar kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samarasi demakdir. Pedagogik texnologiyaning jo'nlig-ishlangan model' boshqa pedagoglar qo'llaganda ham xuddi o'shanday samara berishi kerakligini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichda ko'tariladi, ya'ni

• bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

- o'quvchilarning o'quv mehnatiga mas'uliyatli, javobgarligi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- unda o'z bilimini o'zi boyitishiga ishonch paydo bo'ladi;
- shaxsning jamiyatda o'z o'rnini tezroq topib olishi uchun muhit yaratiladi.

Buning uchun bugun biz o'quchiga "sen buni bilishing kerak" degan majburlovchi da'vatdan "menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotga qo'llashga qodirman" degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Shu munosabat bilan har bir tuman (shahar) metod kabinetlari qoshida doimiy harakatdagi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha tashabbuskor innovatsion guruhlar tashkil etilsa yoki Buxoro maorifchilariga o'xshab yangi pedagogik

texnologiyalar asosida ishlovchi o'qituvchilar uyushmasini tashkil etish maqsaga muvofiq bo'ladi. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI va har bir viloyat pedagog xodimlari malakasini oshirish instituti qoshida yangi pedagogik texnologiyalar laboratoriyalarini ochish, ularda o'quv jarayonini yangicha loyihalashtirish, tajriba-sinov maktablarini tashkil etish zarur. Shu ma'noda Respublika ta'lim markazida tashkil etilgan "Ilg'or texnologiya markazi" dastlabki qaldirg'ochdir. Bunday markazlarni viloyatlarda ham tashkil etish ishimizga katta naf keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiya ta'lism jarayonida xukm surayotgan inqirozdan qutilishning yagona va bosh mezonidir. Keyingi bosqichda ularning asosiylariniko'rib chiqamiz.

2. O'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini baholashning reyting usuli to'g'risida

Ta'limda islohatlarni amalga oshirish o'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashda ham tajriba-sinov olib borilayotganligi ko'pchilikka ma'lum. Ba'zi pedagoglar nazarida oddiy bo'lib ko'ringan bu jarayon aslida juda katta ahamiyatga ega. Chunki maktab faoliyatining samaradorligi masalasi birinchi galda o'quvchilarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuni bilan belgilanadi.

Ayniqsa, davlat ta'lim standartlari va yangi o'quv dasturlari joriy etilayotgan, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyalanayotgan, yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinayotgan, kasbga yo'llash va psixologik-pedagogik diagnostika deyarali barcha tur va toifadagi umumiy ta'lim muassasalarida joriy etilayotgan hozirgi aroitada o'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini eng maqbul asoslarda nazorat qilish va baholash favqulodda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 5 yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida", 1998 yil 13 maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" – gi 203 –sonli Qarorlarini izchillik bilan bajarishni yo'lga qo'yish manqaatlari aynan yuqoridagi omillarni to'g'ri va oqilona amalga oshirishni taqozo etadi.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimi eskirganligi, bugungi kunda ta'lim islohatlari talablariga javob bera olmaganligi uchun ham uni yangi – ilg'or baholash uslabi bilan almashtirish davr taqozosiga aylandi.

Xo'sh, nima sababdan, qaysi asoslarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi, nima uchun undan voz kechish zarurati tug'ildi?

1. Biz bugun ta'limni demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillari qaror topishi va mustahkamlanishi tarafdorimiz. Besh balli baholash tizimi esa qattiqqo'llikni, o'qituvchi mustabidligini, unda dars jarayonida hokimi mutlaqligini ta'minlashga xizmat qilib keldi. Demak, bu yerda talab va amaldagi holat bir-biriga mos emas.

O'qituvchi tomonidan sodir etilgan antipatiya – simpatiya, ya'ni o'quvchining yoqtirishi va yoqtirmasligi yuqorida bayon qilingan jumlasiga kiradi.

2. Baholash mezonining takomillashmaganligi juda ko'p hollarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiloflar kelib chiqishiga sabab bo'lib qoldi. Baholashda adolatsizlik, tanish-bilishchilik, o'ziga yoqmagan o'quvchilarni esa kamsitish, ayrim "o'zboshimchalar"ni "o'z o'rniga tushirib qo'yish"ni amalga oshirishga xizmat qildi.

3. Eng asosiysi, o'quvchilarning umumiy o'rta maktablarda olgan a'lo va yaxshi baholari oliy o'quv yurtlariga kirish test imtixonlarini topshirishda xujjat sifatida ahamiyatini yo'qotdi.

Bundan amaliy xulosalar chiqarib, o'quvchilar bilimni nazorat qilish, baholash tizimiga al'ternativ mezonlar topish yo'lida uzoq izlanishlar olib bordik, xorijiy tajribalarni o'rgandik va xihoyat ko'pgina rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida qo'llanib kelinayotgan "Reyting" tizimining pedagogik imkoniyatlarini Respublikamiz ta'lim muassasalarida qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi.

O'quvchilar bilimni reyting asosida baholash tizimi, bir necha yil Toshkent viloyati Olmaliq va Angren shaharlaridagi maktablarda, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi maktablarda, Sirdaryo viloyati Sharof Rashidov nomli, Surxondaryo viloyati Uzun tumanlaridagi umumiy ta'lim muassasalarida tajriba-sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalarini amalga oshirishga bag'ishlab, 1998 yil may oyida Respublika amaliy seminari o'tkazildi. Mazkur seminarda reyting tizimini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini davom ettirishga doir tavsiyalar berildi, 1998 – 99 o'quv yilida barcha shahar, tumanlarda 2 tadan maktabda baholashning reyting tizimi joriy etiladigan bo'ldi.

Nihoyat, barcha viloyatlarda joriy etilayotgan reyting tizimi variantlari to'planib (8 variant), ularning mualliflari o'z variantlarining afzalliklarini vazirlik tomonidan tayinlangan nufuzli hay'at oldida himoya qildilar. Barcha reyting variantlarining eng yaxshilari umumlashtirilib, yagona reyting tizimi va uning Nizomi ishlab chiqildi. 1999-2000 o'quv yilida har bir viloyatda 2 tadan maktabda tajriba-sinovdan o'tdi.

Binobarin, respublikamizda o'quvchilar bilimni reyting tizimi asosida ommaviy tarzda nazorat qilish va baholashni amalga oshiriladigan kunlar yaqin qoldi.

Xo'sh, reyting nima? Uning qanday fazilatleri bor? Baholashning reyting tizimi joriy etilgach, nimalarga erishamiz?

Eng avvalo, reyting to'g'risida ikki og'iz so'z.

Reyting – inglizcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi inson faoliyatidagi ijobiy yoki salbiy tomonlarga o'zgarishlarini anglatadi. Reyting allaqachon Amerika Qo'shma Shtatlarida o'quvchilar bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan baho sifatida qo'llaniladi.

Demak, reyting tizimi o'quvchilar bilimi sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli bo'lib, uning yordamida o'quv fani ta'lim standartining barcha imkoniyatlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar sifatini baholash jarayonini ta'minlab beradi.

Baholashning reyting tizimini "besh balli" baholash tizimidan farqi va afzalligi nimada? Modomiki, "besh balli shkala" maksimal va minimal baldan 1 dan 5 gacha

farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyati va baholarning o'rtachasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tirtibidan iborat bo'lsa, "Reyting tizimi"da o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllarini o'tishda to'plangan ballarni qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, besh balli tizimida o'quvchi 10 ta nazorat shaklini o'z ichiga olgan o'quv fani bo'yicha 3,4,4,4 baho oladi. Unga chorak uchun 4 baho qo'yiladi.

Reyting tizimida har bir nazorat turiga 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobidan) unga 6,8,8,8 ball qo'yiladi. Chorak uchun reyting 30 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, ya'ni o'quvchi yetarli ball to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmaguncha attestasiya qilinmaydi. Binobarin, uni qo'llashning afzalligi ham shunda – besh balli shkala bo'yicha baolanganda o'quvchi joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorlaglik ko'rib, ijobiy baholanishi, chorak oxirida muayyan mavzudan olingan "5" bahoga berilgan javoblari ham esidan chiqishi mumkin. Natijada olingan baho egallangan bilimga to'g'ri kelmay qoladi. Reyting tizimida esa bunga yo'l qo'yilmaydi. Chunki, reyting har kuni, har haftada ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarib turishi mumkin.

Shu boisdan ham o'quvchilar bilimini reyting asosida baholashga qiziqish ta'lim muassasalarimizda 90-yillarning boshida yuzaga keldi. Uning keyingi bosqichlari haqida yuqorida qisman to'xtaldik. Endi bu ilg'or baholash tizimining qo'shimcha afzalliklariga kelsak. U:

- ta'lim jarayonida baholash tizimining imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiladi;

- o'quvchi bilimini eng adolatli mezonlar asosida belgilaydi;

- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun eng qimmatli imkoniyatlarni ochib beradi;

- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzular to'laligicha o'rganiladi;

- o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlashga intilish, erkin fikr yuritish bilimlarini egallashga izchillik bilan yondashish kuchayadi;

- eng asosiysi, yomon baho olishdan qo'rquvi yo'qolib, uning o'rniga xolisona to'liq va ixtiyoriy o'zlashtirish, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish ustida mustaqil ishlash imkoniyatlarini beradi. Boshqacha qilib aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga havas ortadi, uzluksiz ta'lim ravnaq topadi, bilim olish ishtiyoqi kuchayadi;

- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati oshadi, o'z vaqtini rejalashtirishga o'rganadi, o'z bilimi va ko'nikmalarini rivojlantirishni o'tgan davrga nisbatan qiyoslash, kamchiliklarni mustaqil yoki konsultasiyalar asosida to'ldirish, eng asosiysi, maqsad sari intilish hissini kuchaytiradi;

- qo'shimcha mabalar, adabiyotlar, lug'atlar, tezislar, konspektlarustida mustaqil ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi;

- fanlarni muhim yoki ikkinchi darajaliga ajratish barham topadi;

- shu asosda o'quvchi mustaqil fikrlash, mushohada qilishga o'rganadi;

- eng asosiysi, bilim va ko‘nikmalarini baholashda adolat o‘rnatiladi;

Reyting usuli maktablar, pedagogika bilim yurtlari, institutlarida ham joriy etilishi mumkin. Lekin ularni amalga oshiriladigan tashkiliy-pedagogik tadbirlarda muayyan o‘zgarishlar ro‘y berishi tabiiy.

Demoqchimizki, reytingda yakuniy nazorat imtihon tarzda bo‘ladi. O‘quvchilar olimpiadalarini ham shu tartibda amalga oshirish mumkin. Lekin har qanday sharoitda ham qabul qilingan bilimlar:

- davlat ta‘lim standartlariga mos kelishi, o‘quv rejalari va dasturlarini to‘la o‘zlashtirishga erishilishi;

- o‘quvchi va talabalar tomonidan talab darajasidagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘linishining ta‘minlanishi;

- ularning uzluksiz ta‘lim olishiga muhit yaratilishi, ehtiyojining shakllantirilishi;

- o‘quvchini yomon baho olish qo‘rqividan xalos etib, ularni hamkorlik, hamjihatlik muhitiga olib kirish zarur.

Ayni paytda ta‘lim muassasalarida xuddi shu masala bilan bog‘liq tashkiliy-pedagogik tadbirlar umumiy yagona dasturiy talablarni saqlagan holda alternativ-variativ yondashuvlarni sinovdan o‘tkazishi, amalga oshiriladigan ma‘ruza, munozara esa aynan mana shu maqsadlarga yo‘naltirilib, eng maqbul, qulay, lekin ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri usullar topib, ularni ish jarayoniga olib kirish zarur.

Ayni paytda reyting tizimini joriy etish bo‘yicha Toshkent shahri va viloyati, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida sinovdan o‘tkazilgan usullarni chuqur tahlil etish, ularni mahalliy sharoit va imkoniyatga ma‘lum darajada moslashtirish zarur.

Reyting tizimini joriy qilishda baholashning eski usuli bilan yangi ilg‘or usul o‘rtasidagi to‘iqni dadilik va qat‘iylik bilan olib tashlash kerak.

Bu ilg‘or tizimni joriy etishda shoshma-shosharlik qilmaslik, uni puxta o‘rganish, yetarli baza yaratmasdin amalga oshirishga kirishish mutlaqo mumkin emas. Eng avvalo, har bir o‘quv muassasalarida reytingni qo‘llash uchun sinfma-sinf bosqichlarni oldindan puxtalik bilan aniqlab olish lozim. Bu tizimda chala-chulpa, ko‘r-ko‘rona taqlid asosida ish yuritish kutilgan samarani bermaydi.

Reyting tizimini joriy etishdan avval uning imkoniyati, afzalliklari, mohiyatini o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi keng, atroflicha targ‘ib va tashviq qilish lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilar bilimini reyting asosida baholash – bu mutlaqo yangi pedagogik texnologiya. Uni joriy etishga har tomonlama puxta tayyorgarlik bilan kirishish, bu tizim samarasini belgilovchi asosiy omil ekanligini doimo diqqat-e‘tiborda tutish zarur.

3. Ta'limda davlat standarti nima va u qanday joriy qilinadi?

“Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimiz salohiyatining beqiyos rivojlanishi, mustaqil Respublikamizning jahonga keng qamrov bilan chiqishi uchun ulkan omilidir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sessiyasida hayotimizga samarali ta'sir etuvchi jabhalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish vazifalari ham ustuvor soha sifatida ko'rib chiqilganligi bejiz emas.

Perezident Islom Karimov mazkur sessiyadagi nutqida bu masalaga favqulodda katta ahamiyat berdi. Yo'l boshchimiz ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil etar ekan, tizimda yangilikka intilish bo'lmasa, taraqqiyot ham bo'lmasligini ta'kidladi. Bugun zamon talabi, ertaga bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish zarurligini taqozo etayotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, sohaning asosiy bo'g'ini uzluksiz ta'limdan iborat. Davlatimiz rahbari uzluksiz ta'limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi hamda u yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratdi.

Xo'sh, ta'limda davlat standarti nima?

Ta'limni standartlashtirish insoniyatining ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqyealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisda aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji payodo bo'ladi. Bu holat ta'lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart- ta'limda yaratilgan meyoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u o'quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan lozin o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yohud ma'naviy sifatlarining eng quyi miqdori ilmiy asoslarda

belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standartli hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola, yohud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta'lim muassalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllanayotirilayotgan o'quvchiga singdirish lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiy o'rta ta'lim maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minumumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minumini o'quv dasturlari va tarsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining minimal miqdori belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari boshlang'ich ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladi. 4-sinfni va 9-sinfni bitiruvchi har bir o'quvchi davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga erishgan bo'lishi shart.

Ta'lim standartlari joriy qilinsa, davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi. Mazkur muassasalar esa ana shu vazifalarni yaxshiroq uddalash uchun o'quvchilarga qaysi bosqichda qancha bilim, ko'nikma, malaka yoki ma'naviy sifatlarni singdirish lozimligini aniq belgilab olgan holda ish ko'radi. Shu tariqa ta'lim-tarbiya jarayoni tavakkalchilikdan, ko'r-ko'rona faoliyat ko'rsatishdan qutiladi, ilmiy asoslangan meyoriy talablar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan G'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'limni standartlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan Fransiyada bu ish xanuzgacha sinov darajasida, AQShda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga davlat miqiyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

Shuni aytish kerakki, davlat ta'lim standartlari atamasi XX asrning 70-yillarida tug'ilgan va endigina amalga oshirila boshlagan bo'lsa-da, aslida u bugun paydo bo'lgan yangilik emas. Negaki, ta'lim-tarbiya tushunchasi oldiga muayyan talablar qo'yila boshlagan zamonlardan buyon shunday me'yorlar mavjud. Faqat qadimda ular standart deb atalmagan. Lekin mohiyat e'tibori bilan har qanday jamiyat tarbiya

muassasalari davlatga qarashli bo'lmagan zamonlarda ham o'z talablari tizimiga ega bo'lgan. Chunki ta'lim-tarbiya muassasasini bitiruvchisi muayyan jamiyatda yashashi, faoliyat ko'rsatishi lozim. Binobarin, u o'sha jamiyat talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi shart hisoblanadi.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham, mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda. DTS barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogika faoliyatidagi samaradorlikni nazorat qilish vositasidir. Hozir yaratilayotgan barcha didaktik vositalarning ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'lim vositalari o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetika va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ammo uzoq yillar mobaynida biz ana shu haqiqatga amal qilmagan holda dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga majbur bo'ldik. Hozirda yaratilayotgan o'quv-metodik vositalarda ana shu jihatlar hisobga olinmoqda. Lekin, ochiq tan olish kerakki, bu oson kechayotgani yo'q. Biz yuqorida batafsilroq to'xtalib o'tdik. Shuning uchun ham dastur va darsliklar yangicha fikrlay oladigan, miliy didaktikamiz xususiyatlarini biladigan kishilar tomonidan yaratilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Darslik yozishga talab me'yorlari ishlandi. Har qanday dastur va darslik bevosita vazirlik qoshida tashkil etilganmaxsus ekspert guruxi tomonidan ko'rib chiqilgan keyingina nashrga tavsiya etilgan.

Har bir o'quv fanidan o'quv-metodik majmualar yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ya'ni muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim konsepsiyasi, standarti, dasturi, darsligi,. Metodik qo'llanmasi to'liq yaratilishi lozim. Ayni kunlarda 1-2 sinflardagi barcha o'quv fanlaridan va 7-sinf "O'zbek adabiyoti"dan xuddi shunday majmuaga egamiz. Bu tajriba barcha o'quv fanlari bo'yicha amalga oshiriladigan kunlar yaqin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchili millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zi o'qiydigan holatga loib kelishi lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni yo'nalishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

Ko'pchilikka ma'lumki, Prezident islom Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi XIV sessiyastda "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mavzusidagi ma'ruzasida ta'limda davlat standartlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha mutasaddilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

“Yangi o‘quv yili boshlangunga qadar mazkur tajriba qanday o‘tayotganligini va uning dastlari natijalarini chuqur tahlil etib, ta‘lim andazalari, o‘quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohatlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya‘ni yosh avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish zarur.”¹

Xo‘sh, respublikamizda Prezidentimizning topshirig‘ini bajarish bo‘yicha nima ishlar qilindi, nimalarga erishildi, ta‘limiy standartlashtirishni ommaviy joriy etish uchun yana nimalarga e‘tibor berish kerak? Endi mana shu masalalarni bayon etishga kirishamiz.

Davlat ta‘lim standartlarini qo‘llash o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagandek, uni yaratish ham tasodifiy bir hol emas.

Vazirlik, ta‘limda islohatlarni amalga oshirish boshlangan dastlabki yillardanoq ta‘lim dasturlarini yangi maqsadlar yo‘lida qayta yaratish, ta‘lim konsepsiyalarini, standartlarini ishlab chiqish va joriy etishga, ularni tajriba-sinovdan o‘tkazish, ta‘lim standartlari asosida faoliyat ko‘rsatadigan maktablar sonini kengaytirib borish yo‘lidan bordi, xorijiy davlatlarning bu sohadagi tajribalarni o‘rganish, ularni xalqimizning etnik xususiyatlari, milliy shart-sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish masalasiga alohida ahamiyat berdi.

Ta‘lim standartlarini yaratish va joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan ana shu tajriba asosida O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan qisqa vaqt ichida 24 o‘quv fani bo‘yicha davlat ta‘lim standartlarining loyihasi ishlab chiqildi. Ularni yangi o‘quv dasturlari bilan birgalikda respublikadagi 24 ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tajriba-sinovdan o‘tkazishga kirishildi. Olingan natijalarni ilmiy-metodik tahlil qilish, amaliy xulosalar tayyorlash, tadqiqotlar samaradorligini nazorat qilish, eksperimentator o‘quvchilarga nazariy-metodik yordam berish, tajriba-sinov maydonlari faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O‘zPFITI qoshida axborot markazi tashkil qilindi. To‘plangan ilmiy xulosalar bu yerda o‘quv yili choraklari bo‘yicha muhokama etilib, yo‘l qo‘yilayotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rib borildi.

Tajriba-sinov jarayonida olingan taklif va mulohazalarni e‘tiborga olgan holda davlat ta‘lim standartlari, tayanch o‘quv rejasi va o‘quv dasturlari qayta ishlandi. Ana shundan keyin bu hujjatlar vazirlik mutaxassislari, Respublika ta‘lim markazi ilmiy-metodik kengashi a‘zolari, ilmiy tadqiqot institutining olimlari, mualliflar, tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishga mas‘ul etilgan tadqiqotchilar, Respublikaning u yoki bu fan rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlar ishtirokida birma-bir, mavzuma-mavzu ko‘rib muhokama etildi.

Prezident I. Karimovning Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma‘ruzasida ta‘kidlangan g‘oyalari asosida sinovdan o‘tkazilgan davlat ta‘lim standartlari, tayanch o‘quv rejasi va o‘quv dasturlari mazmuniga islohatlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda zarur tuzatishlar kiritildi. Takomillashtirilgan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi Qarori, o‘quv dasturlari esa Xalq ta‘limining 1999 yil 26 avgustdagi hay‘at majlisi

¹ И.Каримов. “Ўзбекистон XXI асрга интилоқда”. Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 1999 йил, 37-бет.

qarori bilan tasdiqlandi. Vazirlar Maxkamasining mazkur Qarori bilan umumiy o'рта ta'limning davlat ta'lim standartlarining 1999-2000 o'quv yilidan boshlab o'quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish belgilab qo'yildi.

Vazirlik mutaxassisliklari, olimlar, tadqiqotchilar, amaliyotchi o'qituvchilarning birgalikda mas'uliyatli, mashaqqatli va fidokorona mehnatlari samarali yakunlanadi.

Umumiy o'рта ta'limning davlat ta'lim standartlari va yangi o'quv dasturlarini 350 ming nus'hada nashr etish uchun xukumatimiz tomonidan 175 mln. so'm mablag' ajratildi. Davlat ta'lim standartlari va dasturlar Xalq ta'limi vazirligining "Ta'lim taraqqiyoti" axborotnomasi maxsus sonlari sifatida yettita kitob tariqasida chop etildi. Ular barcha umumiy o'рта ta'lim muassasalarining kutubxona fondlariga o'tkazildi. Har bir o'qituvchi davlat ta'lim standartlari va yangi dasturlar mujassamlangan mazkur kitoblardan foydalanish imkoniga ega. bular barcha o'qituvchilarimizga Prezident Islom Karimovning sovg'asidir.

Yuqoridagi masalalarga batafsil to'xtalib o'tishning sababi shuki, Respublikamizdagi har bir umumiy o'рта ta'lim muassasasining rahbari, har bir o'qituvchi yangi o'quv dasturi va ayniqsa, ta'lim standarti asosida ishlayotganligini, o'z fani bo'yicha o'quvchilarga bergan bilim va ko'nikmalarni endilikda davlat ta'lim standartlari asosida belgilanishlarini anglashlari, bu jarayon har bir o'qituvchi faoliyatiga katta mas'uliyat, javobgarlik yuklanishini unutmashliklari kerak. Viloyat xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari, maktab rahbarlari, malaka oshirish institutlari, Respublika ta'lim markazidan tortib, to maktablarning fanlar bo'yicha metod birlashmalari, fan komissalarigacha o'qituvchilarni yangi dasturlar, ta'lim standartlari bilan ishlashdaqanday yutuqlarga erishayotganliklari, qanday nuqsonlarga yo'l qo'yayotganliklari, nimalarga muxtojliklarini belgilab, ularga metodik yordam ko'rsatishning batafsil tizimini ishlab chiqishlari va uni izchil amalga oshirishlari kerak.

"Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab, ta'lim-tarbiyada samara berishga majbursan" deb qarash noto'g'ri. Ta'lim muassasalarining rahbarlari metodik xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalar, ayniqsa, hozirgi pallada hushyorlik va ogohlik bilan faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Toshkent viloyatidagi Qibray, Andijon viloyatidagi Izbosgan shahri, Samarqant viloyatidagi Chelak, Surxondaryodagi Denov, Namangandagi Chortoq tumanlari xalq ta'limi bo'limlari qoshidagi yangi o'quv dasturlari, ta'lim andazalari bo'yicha ishlayotgan o'qituvchilari uchun doimiy xarakterdagi seminarlar tashkil etilgan, Qashqadaryo viloyatidagi Shaxrisabz shahar xalq ta'lim standartlari asosida ishlash bo'yicha malakali mutaxassislar har kuni konsul'tasiyalar uyushtirmoqdalar. O'ylaymanki, bu say-xarakterlar o'z ijobiy natijalarini beradi.

Xulosa qilib aytganda, 1999-2000 o'quv yili ta'limimiz tarixida birinchi marta davlat ta'lim standartlari va yangi o'quv dasturi bilan ishlayotgan umumiy ta'lim muassasalari uchun katta sinov yili bo'ldi. Bu sinovdan ijodkorlik, tashabbuskorlik, g'ayrat va uddaburonlik bilan faoliyat ko'rsatganliklarigina muvaffaqiyatli o'tdilar.

10-MAVZU. ONA TILI TA'LIMIDA MATN YARATISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIIY-NAZARIY VA METODIK ASOSLARI.

REJA:

1. Matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.
2. Matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari.
3. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi talqini.

Matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

“Inson so‘z vositasida fikrlaydi, fikr esa so‘z vositasida tartiblanadi, voqeyalanadi, zohir bo‘ladi”.

A.A. Potebnya.

O'zbek tilshunosligida tilni tizimiy o'rganish masalalarini taniqli tilshunos va metodist olimlar H.G'. Nematov, N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Q. G'ulomovlar boshlab berishdi.

Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limi tizimida, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalash, o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni ta'minlash vazifalarining Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etilishi o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ular quyidagilar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida ona tili mazmunini takomillashtirish, darsliklardagi o'quv mashqlarini o'quvchida ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi lingvopsixologik topshiriqlar darajasiga ko'tarish.
2. Lingvopsixologik o'quv topshiriqlari, muammoli vositalarni tanlash va bajarish jarayonida o'quvchining o'z hoxish – intilishlari, qiziqishlari, mustaqilliklari ustuvorligini ta'minlash.
3. O'quvchi shaxsini o'zi va o'rtoqlari nutqiy faoliyatini muntazam ravishda tanqidiy nazorat qilishga odatlantirish, uning o'z nutqiy – intellektual qobiliyatini namoyish qilishga qaratilgan subyektiv-instinktiv haraktini qo'llab-quvvatlash.
4. O'quvchiga og'zaki va yozma nutq jarayonida so'z va iboralarni to'g'ri tanlash, uni nutqiy vaziyat taqazosiga ko'ra, o'rinli ishlatish ko'nikmalarini singdirish v.h.

Til shunday mo'tabar "ne'matki", u insoniyatga tafakkur gulshanlari darvozasini katta ochib bergan, tengi yo'q robitai olamiyondir⁹.

XI asr sharqining buyuk allomasi Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday bir hikoyatni aytadi: Bir kecha halifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi. Tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa muabbirdan tushining ta'birini so'raydi. Muabbir shunday deydi: -Ey amiralmo'minin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hyech kim qolmaydi. Buni eshitgan Xorun ar-Rashid: "Mening yuzimga shunday qayg'uli gaplarni aytding", -deb uni yuz tayoq urishni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining ma'nosini so'raydi. Muabbir bunday deydi: "Ey amiralmo'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo'ladi." Shunda xalifa Xorun ar-Rashid: "Barcha aqlning yo'li birdir va har ikki ta'birning negizi bir joyga borib taqaladi, ammo u ibora bilan bu iboraning orasidagi farq bag'oyat ko'pdir" deydi va uni o'z ulamolariga namuna qilib ko'rsatadi.

Bu ibratli hikoyatda o'zaro muloqot chog'ida tilning qanday ahamiyat kasb etishi, u inson qalbiga yo'l topishi sir – sinoatlarini ochib berguvchi sehprli kalit ekanligini bilib olamiz. Til – dil kaliti, degan maqol shundan qolgan bo'lsa ajab emas. Rus olimi A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so'zning o'rnini juda to'g'ri izohlab bergan edi: "Inson so'z vositasida fikrlaydi, fikr esa so'z vositasida tartiblanadi, voqyelanadi, zohir bo'ladi".

Monografiyada so'z yuritilayotgan mustaqil matn yaratish hodisasi ham inson tafakkuri mahsuli, uning o'zgaralar ongiga ta'sir etish vositalaridan biridir. Agar o'quvchining so'z boyligi nochor, lug'at xazinasini qashshoq bo'lsa, nasriy matn tuzish, mustaqil matn yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchini natqiy madaniyatga, muxtasar matn yaratishga o'rgatish ekan, qarshimizdagi eng dolzarb vazifa – til satixlarini o'zaro bog'lab o'rganish, ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqani mustahkamlash, uyadosh so'zlar ustida ishlash orqali o'quvchi so'z boyligini oshirish, maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy vositalar yordamida nutqiy zaxiralarni boyitishdan iborat. O'quvchiga matn va uning gramatik xususiyatlari, tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), gap, obzas va MSB (murakkab sintaktik butunlik)lirni o'zaro bog'lovchi, uslubiy ravonlikni ta'minlovchi tanish belgilari, gramatik bog'lamalar (olmoshlar, kirish so'z va gaplar, modal so'zlar) haqida to'liq ma'lumot berish, ularni o'quv amaliyotiga jadal tadbiiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Zero, "... lug'at zaxirasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon bo'ladi..."¹.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo'naltirish, fikr muhsulini to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalashga o'rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o'quv amaliyotiga izchil joriy etish, o'quvchini muammoli o'quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf

⁹ Нематов Х. Бозоров О., Тил ва нутк, Т., "Ўқитувчи" 1999, 3,3-бет.

¹ Зиёдова Т., "Ўқувчи китоби", А.Қодирий номидаги халқ мероси наўриёти, Тошкент, 2002. 130-бет.

qilishga yo'naltirish, o'quvchi lug'at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og'zaki nutq va matn yaratish)da so'zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o'quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Bu muammolar orasida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning intensiv – universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan, matn yaratishning jadallashtirilgan, bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga joriy etish masalasi alohida o'rin tutadi. O'quvchi so'z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish (undosh so'zlar ustida ishlash, berilgan so'zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so'zlar bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. Demak, o'quvchi nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko'ra mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, DTS talablarini to'la bajarish – o'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalasi, ona tili ta'limida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya'ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o'rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy davomi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o'rganiladi, o'quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o'z yechimini topadi.

Ona tilining yangi – yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tadbiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Turli til xodisalari (so'z va iboralarni) ma'nosini to'liq anglash va uni xususiy nutqda qo'llashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash o'z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'quvchi ta'lim o'qituvchi tizimida tomonlarning o'zaro hamkorlik, subyekt – subyekt munosabatlari faollashadi, DTS talablariga ko'ra o'quvchi ham ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida o'zi mustaqil faoliyat yuritishi: izlanishi, kuzatishi, bajarilgan ishni tahlil qilish, xulosalashi, baho berishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi doimiy ishonch o'zaro hamkorlik faoliyatigina o'quvchilarda mavjud bo'lgan mustaqil va ijodiy tafakkurni qo'zg'atishi, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi mumkin.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish – avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z “men”i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijobiy-kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart – sharoit va imkoniyatlar yaratibberishi (monologik bellashuvlar (quvnoqlar va zukkolar klubi bellashuvi), turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik-tanlovlar, debatlar), lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimini, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshilmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zida intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

“Ona tili ta'limi mazmuni” o'quv-metodik qo'llanmasi mualliflari H.Ne'matov, A.G'ulomovlar o'quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o'rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar¹.

-“Ijodiy yozma ish” (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa – buyum, voqyea – hodisa tasviri;

-o'quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish – o'quvchining (muallifning) o'zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqyea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzuva uning nomlanishi bilan uyg'unligini ta'minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o'quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o'xshatishlari, hukm va xulosalari;

¹ Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълим мазмуни, Т., “Ўқитувчи”, 1995.

- yozma ishning rejasi, unga qo'yilgan asosiy talablari;
- tor reja, keng reja;
- manzilgohni yozish;
- mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; "xat boshi" tushunchasi; yozma ish matni ustida qayta ishlash; uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlardan foydalanish;
- matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;
- ishni oqqa ko'chirish;
- xatolar ustida ishlash v.h.

2. Matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari.

Ta'limning rivojlanuvchi va takomillashibboruvchi texnologiyasi boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham keng miqyosdagi umumpedagogik vazifani bajaradi. O'quvchi nutqiy mahoratining yuksalib borishi – ona tili ta'limi mazmuni, o'quv jarayoni va uning to'g'ri shakllantirilishiga bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lsa, nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqeylikka aylangan fikrdir. U nutq a'zolarining ongli harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutqning vazifasi – ong, xotira va tafakkurning uyg'unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me'yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish (axborotga aylantirishdan) va tinglovchiga yetkazishdan iborat.

Shu bilan bir qatorda ona tili o'qitish metodikasi lingvodidaktik asoslarga ham egaki, bunda til birliklarini nafaqat grammatik xususiyatlariga, balki lug'aviy ma'nolariga ham asoslangan holda o'rganish, umumiy va xususiy hodisalarni fikrlash, so'z boyligini oshirish, og'zaki nutq, mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, uning rang-barangligi va uslubiy ravonligiga erishish ko'zda tutiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili tarkibiga o'zbek tilshunosligining keyingi yutuqlaridan hisoblangan uyadosh so'zlar guruhi¹ tushunchasini kiritishni nihoyasiga yetkazish, uni til o'qitish metodikasida o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitish maqsadlarida qo'llash – tilning lug'aviy vositalaridan foydalanish uchun o'quvchiga qulay sharoitlar yaratadi, mustaqil fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi, shu puytgacha an'anaviy ona tili darsliklarida berilmagan, uyadosh so'zlar ustida ishlash amaliyoti o'quvchining lug'at zaxirasini kengaytirish va matn mazmunini mukammal shakllantirish BKMLarini egallashga hizmat qiladi.

Sistem tilshunoslikning leksikologiya (so'zshunoslik) bilimiga taalluqli bo'lgan **UYADOSHLIK HODISASI**, uning yangilangan ona tili ta'limi mazmuniga kiritilishi, til o'qitish metodikasining qon tomiri hisoblangan o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda yangi, serqirra va mahsuldor imkoniyatlar majmuasini kashf qilinishiga – uyadosh so'zlar ustida ishlashning o'ziga xos texnologiyasini yaratishi va ta'lim amaliyotiga joriy etilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Undoshlik hodisasi, uning ta'limiy – rivojlantiruvchi mohiyati ona tili o'qitish metodikasi fanida o'ta muhim

¹ ...Бир уя, бир мавзу, бир соҳага оид, бир-бирини тақозо этувчи ва тўлдирувчи сўзлар сираси. Ғуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни, Т.: "Ўқитувчи", 1995.

ahamiyat kasb etadi. Ona tili ta'limi jarayonida uyadosh so'zlar ustida ishlash – o'quvchi so'z zaxirasini boyitish, ijodiy tafakkurini kengaytirish, muayyan yo'nalishda izlanish va “kashfiyot” qilishga yo'l ochib berish bilan bir qatorda, o'quvchi ongiga bir uyaga, bir turga, bir guruhga mansub so'zlar majmuasi va ularni ajratib, alohidalab turgan leksik – semantik qurshov haqidailk nazariy tushunchalar hosil qiladi. Shunday topshiriqlar ustida ishlash orqali o'quvchi xotirasida berilgan so'zning ishlatilishi doirasi, ona tili satihlari va ta'lim muassasalarida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi (sathlararo va fanlararo aloqa), so'z birikmalari tarkibida hokim yoki tobe holatda kelishi, ularning gap va matn tarkibida ifodalanishi haqidagi dastlabki amaliy tushunchalar, bilim ko'nikma va malakalar shakllanadi, tarkib topadi. O'quvchining uyadosh so'zlar ustida mustaqil ishlashi muayyan bir soha va uning atamalari doirasida izlanish, mantiqiy mushohada yuritish, o'zi uchun yangi, notanish bo'lgan so'zlarni kashf qilish faoliyati bilan shug'ullanishdir. Bunday faoliyat esa tabiat qiziquvchan, ijodkor bola uchun haqiqiy ilmiy – tadqiqot dunyosiga qadam qo'yish bilan barobar. Bunday kichik “tadqiqot”lar natijasida o'rganuvchi subyektning bilish faoliyati jadallashadi, mustaqil matn yaratishning, ijldiy fikrlashning mahsuldor manbalari bo'lmish luhat zaxirasi kengayadi (atama va tushunchalar muayyan belgilar asosida guruhlarga birlashadi, guruhlar majmuasini kuzatish, tahlil qilish orqali esa o'quvchi ongida yaxlit bir mazmun – berilgan so'z va uning uyadoshlari bositasida berilgan mavzu doirasida o'nlab gaplar quriladi hamda o'quvchi ongida matn loyihasi shakllanadi, ya'ni, ushbu jarayon subyektning bilish jarayoni ketma – ketligi bilan uyg'unlashadi).

Mazkur texnologiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, darsni zamonaviy, interfaol metodlar asosida tashkil qilish, o'quvchi lug'ut zaxirasini so'z gavharlari bilan boyitishning ishonchli va samarali vositasiga aylandi. Ona tili darslarida uyadoshlik hodisasidan keng va izchil foydalanish – o'quvchi ilmiy dunyoqarashining kengayishi, unda mustaqil fikrlash, nutqiy taraqqiyot jarayonining tezlashuvi, nutqiy barkamollik hamda til ta'limidagi eng dolzarb masala – mustaqil matn yaratishga yo'naltiruvchi BKM manbalarining paydo bo'lishi, tug'ilishi, so'z, so'z birikmalari, tasviriy vositalar holatida shakllanishi va o'quvchi nutqida voqyelanishiga sabab bo'ladi. Uyadosh so'zlar ustida ishlash qamrovini kengaytirish, shunday ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan muntazam shug'ullanish esa o'z navbatida quvchi tomonidan yaratiladigan matnning tili ravon, boy va mazmundor bo'lishiga, matn tarkibidagi imloviy, uslubiy, tavnologik (qaytariq) xatolarning kamayishiga olib keladi, o'quvchi shaxsini o'z “men”ini anglab yetishiga, izlanish va ijod qilishga, o'z nutqiy mahoratini rivojlantirish uni o'zгалar oldida namoyish qilishga undaydi. Ze'ro, umumta'lim maktablari o'quvchilarini matn yaratishga tayyorlash jarayonini o'quvchini ijodiy mant yaratishga yo'naltirishning zamonaviy texnologiyasini sathlararo va fanlararo aloqalarsiz, uyadosh so'zlar ustida ishlash topshiriqlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Uyadosh soʻzlar ustida ishlash – ona tili oʻqitish metodikasi (didaktikasi) uchun yangi, oʻquvchining mustaqil matn yaratish faoliyati uchun mahsuldor texnologiya (keng qamrovli ijodiy tafakkur, boy lugʻaviy va sintaktik manba, nutqiy rang-baranglik, atamalar roʻyxatining belgi, miqdor, harakat va holat tushunchasiga koʻra kengayishi) hisoblanadi.

Berilgan mavzuga oid uyadosh soʻzlar topish, yaratilajak matnning asosiy lugʻaviy manbasini taʼminlash bilan bir qatorda oʻquvchiga matn mazmuni, uning tarkibiy qismlari, xatboshlarini toʻgʻri shakllantirish koʻnikmalarini egallash, milliy lugʻat xazinasiga toʻgʻri tarafdin erkin kirib borish va maqsadli harakatlanish (yaʼni, ijodiy fikr ifodalash uchun eng maqbul soʻzni tanlash) imkoniyatini beradi va u, oʻquvchi uchun boʻlgʻusi matn asosini yaratishning ishonchli vositasidir.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari yuqori sinf oʻquvchilari, kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarining lugʻat xazinasini uyadosh soʻzlar bilan boyitish, berilgan umumiy maʼnoli soʻzning xususiyatlarini topish, yoki, aksincha, soʻzlarni muayyan uya (mas., daraxt, shaxs) asosida guruhlash, berilgan matndan uyadosh soʻzlarni ajratish, ular ishtirokida soʻz birikmalari (SB) hosil qilish, uyadosh soʻzlar va SBlar ishtirokida gap tuzatish, maʼlum bir mavzuda matn yaratish kabi ijodiy – amaliy topshiriqlarni muntazam ravishda, tafakur operasialarining sintetik jihatini faollashtirishga oʻrgatishda muhim, rivojlantiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

Quyida uyadosh soʻzlar sathidagi bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlovchi topshiriqlardan namuna beramiz.

Mustaqil ish: “Dori” atamasining xususiy uyadoshlarini toping va ular maʼnosini sharxlang. (ular yordamida ixtisosiy matn yarating).

(“Dori” atamasi bilan bogʻliq leksik – semantik qurshov)

Dori ishlatuvchi mutaxassis nomi: Kasb-hunar otlari: Ot+ot	Dorilar ishlatuvchi muassasala r nomi: tashkilot nomlari Ot+ot	“Dori” soʻzining maʼnodoshl ari va xususiy nomlari: sifat+ot	Dorivor meva va oʻsimli klar nomi: Ot+ot	Kasallik nomlari: Harakat nomi, ot, Ot+ot	Davo muolaja usullari nomlari: harakat nomi, ot+feʼl
Vrach, terapevt, urolog, ginekolog,	Shifoxona, kasalxona, tugʻruqxona, profilaktoriy	Qaynatma, linement, malham, ilon zahari, tabletka, rinza, mezim, noshpa v.h.	Jiyda, bodom, behi, olma,	Kuyish, shamollas h zotiljam raxit,	Massaj, parafin quyish, balchiq bilan

nevropotolog, onkolog, hamshira, lor, xirurg, psixolog, ortoped, v.h.	, sanatoriy, ambulato- riya, tez yordam v.h.		xurmo, aloe, achchiq miya, moyche chak, v.h.	terlama, tumov, buqo, gippatit, grip, v.h.	davolash, bug'lash,mal ham bog'lash, v.h.
--	---	--	--	--	--

Dorini tayyorlash jarayoniga oid so'zlar:	Muolaja usuli, tartibi miqdoriga oid so'zlar:	Dorini saqlashga oid so'zlar:	Bemor holatini tasvirlash so'zlari:	Dorining ta'sirini sharxlovchi so'zlar:	Dorining belgilari: (holati, rangi, shakli, ta'mi, hidi) Sifatdosh sifat
Harakat nomi, fe'l	ot+fe'l,ravis h+f, son+fel	ot+ot,sifat+ot	sifat;ot	Fe'llar, ot,kesim	
Terish saralash quritish, maydalash,ezi sh, tuyish, qizdirish, eritish,ivitish, qaynatish,v.h.	Til ostiga tashlanadi, chaynab yutiladi, surtiladi, kompress qilinadi, bir kunda 1(2,3)mahal ichiladi v.h.	Qog'oz paketda, sellofan paketda, shisha idishda, qog'oz qutida, fol'gada, sovutgichda v.h.	Isitmasi: yuqori, me'yori y,yuzi: qizil,op poq, ko'k...q onsiz, og'ir,xu shsiz, tili,oq,p	Issig'ini tushurdi,q on bosimini tushurdi, (ko'tardi), ahvoli yaxshilandi, yomonlashdi,	Tuyilgan,eritilgan,ezilgan, sovutilgan dumaloq.yap aloq, qobiqli,quyuq , suyuq,achiq,oq, qizil,sariq,v.h .

			ushtiqizi l.v.h.	ko'zini ochdi,og'r iq bosildi.v. h.	
--	--	--	---------------------	---	--

Bunday topshiriqlar ko'proq umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari, kasb-hunar (tibbiyot) kollejlari o'quvchilarining so'z boyligini oshirishga, ona tilidan egallangan individual bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va rivojlantirishga, asosan ixtiyoriy matnlar yaratishga xizmat qilishi hisobga olinsa, ulardan egallangan BKMLarning amaliy tadbirini nazorat qilish ishlarida foydalanish, yoki uyga vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mazkur jadvalda 12 ta belgi – yo'nalish doirasida uyadosh so'zlar guruhlangan. Mustaqil topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchi yozgan so'zlarning soni 100 dan oshgan bo'lsa, o'ylab, o'z xotirasida tiklagan, analiz va sintez qilgan, topshiriq talabiga javob bermaganligi uchun qog'ozga tushmagan so'z va atamalar soni bilan qo'shib hisoblaganda o'quvchining o'z xotirasida qayta tiklagan tushunchalari soni 200 dan oshib ketadi. Yuqorida namuna sifatida keltirilgan uyadosh so'zlar ustida ishlash texnologiyasiga oid mustaqil topshiriqdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi lug'at zaxirasini oshirish va boyitish, bilan bir qatorda tilning cheksiz imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishdir. Uyadosh atamalar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzish topshiriqlari, o'quvchini ixtisosiy matn yaratishga o'rgatish, lisoniy imkoniyatlar (uyadoshlik xodisasi) dan samarali foydalanishga odatlantirishdir.

Shu sababli ona tili ta'limi mazmunini belgilashda o'quvchining muloqot ko'lami va darajasi, ijodiy tafakkuri, fikr ifodalash ehtiyoji bilan, tavsiya qilingan til vositalari orasidagi mutanosiblik hisobga olinishi yoki aksincha, o'rganilishi lozim bo'lgan til vositalari va me'yorlari miqdorini aniqlashda o'quvchi shaxsining yosh psixologiyasi, tafakkur qobiliyati, savodxonlik darajasi, o'zaro muloqot ehtiyoji, rivojlanish ko'lami hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ona tili darsliklarida til mazmunining izchilligini ta'minlash, matn yaratish topshiriqlarini tilning ifoda imkoniyatlarini, o'quvchining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini hisobga olgan holda, muayyan tartibda berish, bolaning ko'rish, eshitish, fikrni anglash, analiz va sintez qilish imkoniyati, bosqichma – bosqich fikrlash va fikrni rivojlantira bilish ko'nikmasi hisobga olinishi lozim. Buni amalga oshirish uchun, aniq predmetlarni ifodalovchi so'zlar, ular tarkibidagi nutq tovushlari, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish va urg'ularni bosqichma – bosqich o'rgatib borish, so'ngra aniq ma'no va yagona shaklga ega bo'lgan til vositalaridan (mustaqil so'z turkumlari) ma'nodosh (sinonim), uyadosh (bir mavzu, bir oila, bir guruh, tir turga, bir paradigma,

qurshovga kiruvchi soʻzlar), zid maʼnoli (antonim) soʻzlarni hosil qilish koʻnikmalarini shakllantirish yaxshi samara beradi.

Ona tilidan yangi avlod oʻquv adabiyotlarini yaratishda lingvopsixologik qonuniyatlarga amal qilish, ijodiylik hamda mantiqiy izchillikni taʼminlash nihoyatda zarur. Ona tili taʼlimi mazmuning bunday tizimda belgilanishi taʼlim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda til oʻrganish vositalarining taʼlim jarayoniga dadil kirib kelishi, undan unumli foydalanish usullarining yaratilishi (interfaol oʻqish metodlari), til oʻqitish metodikasining jadal rivojlanishiga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston respublikasi Oliy majlisining 19 sessiyasida Prezident I.Karimov malakali kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy psixologiyaning ham alohida oʻrni borligini taʼkidlab oʻtdi.

Darhaqiqat, yetuk, barkamol kadr boʻlib yetishish uchun oʻquvchi nafaqat oʻz iqtidori, bilimi va nutqiy malakasini oshirishi zarur, balki oʻzi yashayotgan jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor boʻlmogʻi, ijtimoiy faoliyat yuritish va uni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamogʻi zarur. Boshqaruv, marketing va menejment sohalarida, ayniqsa inson omili va unga taʼsir oʻtkazish, uni boshqarishning psixologik tizimini bilish – jamiyatda sogʻlom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish – uni kamol toptirish yoʻlidir. Bu oʻrinda, ayniqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va ilmiy-ijodiy munosabatlarning shakllanishini, oʻquvchi shaxsining oʻziga va oʻzgalarga taʼsir etish mexanizmlaridan biri – ijtimoiy muloqot va uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi boʻlmish nutq sharoitiga mos ravishda toʻgʻri va ijodiy fikrlash, mustaqil matn yaratish texnologiyasini mukammal egallashi davr talabidir.

Matn yaratishga yoʻnaltiruvchi lingvopsixologik oʻquv topshiriqlari tizimini ona tili taʼlimiga keng joriy etish, oʻquvchi ongida soʻz boyligini oshirish, qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil fikrlash, soʻz tanlash va mustaqil fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga yordam beradi. Shunday koʻnikma va malakalarni uzluksiz shakllantirish va rivojlantirish esa, oʻquvchi nutqiy mahoratining oshib borishi, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur koʻlamining kengayishi hamda matn yaratish koʻnikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi talqini.

Talim mazmuni masalasi pedagogika tarixida yeng qadimiy va, ayni paytda, yeng dolzarb masalalardan biri boʻlib turibdi. Chunki insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida “Nimani oʻqitish kerak” degan savolga javob izlash bilan shugʻullanadilar va hali-hamon bu savolga toʻliq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yoʻq. Didaktikaning soʻngi yutuqlarini oʻzida jam qilgan, talim mazmuni boʻyicha berilgan va berilayotgani eng yangi malumotlar ham bundan mukammallikka davo qila olmaydi. Biroq muammoni ijobiy hal

qilishga intilish, mustaqil, erkin fikrlovchi ma'naviy barkamol insonning tarbiyalashning eng ilg'or, zamonaviy metodlari, usul va vositalarini topishga bo'lgan harakat hych qachon to'xtagani yo'q va u inson zoti mavjud ekan to'xtamaydi. Chunki, odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boraveradi.

Barcha rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmuni davlat va jamiyat taraqqiyoti va talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning so'ngi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish 5 ta muhim tarkibiy qismlar (4-jadval) hisobiga amalga oshiriladi:

I. O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan ilmiy – nazariy bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar).

II. Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi (ko'nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, malaka esa, muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir).

III. O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va to'liq ijodiy darajada bo'lishi mumkin.

Qayta xotirlash faoliyati – o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o'rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o'quvchi yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til xodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi mumkin.

Ilmiy – ijodiy faoliyatda o'quvchi hych qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda, masalan, kompyuterda qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbasini topa bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko'ra, o'rinli foydalanish ko'nikmalarini egallashi talab qilinadi. O'quvchini ijodiy faoliyatga qiziqtirish, uning matn yaratishga bo'lgan har qanday urinishini qo'llab – quvvatlash tajribasiga qanchalik ko'p asoslansak, ta'limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

IV. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi. Bu munosabatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi maqsadga intilishdagi sheriklik, o'zaro tenglik, hamkorlik, muhokama, qiyosiy tahlil, to'g'ri hukm va xulosaga asoslanmog'i lozim. Ta'lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-кетинlikda joylashgan xodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo'lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va beshinchi qismlari, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko'nikmalar zahirasi tashkil etadi.

V. O'quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish tizimi.

Nutqiy – amaliy ko'nikmalar zanjirining eng muhim, yakunlovchi halqasi o'quvchida mustaqil fikrlash, fikr ifodalash va matn yaratish ko'nikmalarini

shakllantirish tizimi ustida ishlash – o‘quvchi nutqiy iqtidori, matn yaratish ko‘nikmasining malakaga aylanishi, tafakkur mahsulining moddiylashuvidir.

Boshqacharoq aytganimizda tafakkur, nutq, matn yaratish xodisalarini o‘zaro uyg‘unlik va uzluksizlikda, til bo‘limlari va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqadorlikda, yozma fikr ifodasini yengillashtiruvchi muayyan bir tizimda o‘rganish kommunikativ savodxonlikning eng so‘nggi natijasi – ijodiy matn yaratish va uni mustaqil tahrir qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

O‘quvchilar umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida DTS talablari bo‘yicha belgilangan ona tili o‘qitish mazmuni va undagi matn ustida ishlash va matn yaratish mavzusi yuzasidan quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Grammatikaga oid bilimlarni egallash – fonetika, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya va sintaksis, yozuv va imlo, tanish belgilari nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalarni o‘rganish, ular amaliyotiga oid BKMLarni egallash;

-birinchi yo‘nalish: - O‘quvchilarning lug‘at zaxirasini kengaytirish va boyitish, so‘zning lug‘aviy ma‘nolari ustida ishlash (uyadosh so‘zlar, ma‘nodoshlar, zid ma‘noloi, shakldosh, tarixiy, olinma so‘zlar v.h.), o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan so‘zlar ma‘nosi va qo‘llanish doirasini aniqlash;

-ikkinchi yo‘nalish; - o‘zbek adabiy tili me‘yorlari, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z tanlash, so‘z birikmalari hosil qilish, gap tuzish me‘yorlari, til birliklarining uslubiy imkoniyatlari xususan, uyadoshligi (bir mavzu, guruh va uyaga mansub so‘zlar, fanlararo va sathlararo aloqa) va ma‘nodoshligi (sinonimiyasi); mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni to‘g‘ri aniq ravon ifodalash, gramatik sinonimiya (frazelogik sinonimiya, lug‘aviy sinonimiya, qo‘shimchalar sinonimiyasi, gap va matn sinonimiyasi) namunalari ustida ishlash, ifodali o‘qitish (qiroat san‘ati) bilan shug‘ullanish;

-uchinchi yo‘nalish: - O‘quvchilarda fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini egallash, matn tahlili, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi¹.

Zamonaviy ta‘limda o‘qituvchi faoliyati

Fan olimida modellashtirish atamasi tabiat va jamiyatning turli obyektlarini o‘rganish usuli sifatida keng qo‘llanilmoqda. Iqtisodiy aloqalar, biologik, fiziologik jarayonlar, ijtimoiy strukturalar, texnik vositalar, ekologik vaziyatlar va til xodisalari modellashtirilmoqda.

O‘qituvchi faoliyati moduli muallifi N.Saidahmedov o‘qituvchi faoliyati strukturasini anchagina mukammal yorita olgan. Unda o‘quvchi faoliyatiga alohida ahamiyat berilgan va u birlamchi mavqyega ko‘tarilgan. N.Saidahmedovning fikricha, darsning natijasi bevosita o‘qituvchi shaxsiga, uning shaxsiy fazilatlarini-yu, sifatlariga chambarchas bog‘liq emas! Aslida ham yangi texnologiya bilan ishlayotgan o‘qituvchi asosan ta‘lim jarayonini, o‘quvchi faoliyatini boshqarish, nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

¹ Она тилидан янги тахрирдаги Давлат таълим стандартлари, ўқув дастури ва мавзуй режалаштириш. Тузувчилар. Р.Сафаров., Р.Йўлдошев., М.Мирмахсудова. – Т., 2004 й.

Albatta, biz bu bilan dars sifati va samaradorligi o'qituvchi shaxsiga butunlay aloqador emas, deyishdan yiroqmiz. O'qituvchining ijobiy fazilatlari, dars berish mahorati qancha kuchli bo'lsa, o'quvchi faoliyati shunchalik samarali bo'lishi shubhasiz, biz aytmqchi bo'lgan fikr boshqa. Zamonaviy texnologiya asosida o'tilgan darsning ijobiy samarasi – o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik mahorati mahsuligina emas, balki unda o'quvchining, ya'ni o'rganuvchi subyektning ham ilmiy izlanishlari, ijodiy o'quv faoliyati, katta-kichik kashfiyotlari yotadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hukmronlik qilayotgan bugungi kun ta'limida noan'anaviy interfaol usullar, yangicha yondashuvlar, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashtirib boraveradi va bunday darslarda o'qituvchi shaxsi hukmronlikdan boshqaruvchilik tamoyiliga o'tadi.

Asosiy talab dars rejasida ko'rsatilgan faoliyat turlarining maqsadga muvofiq, aniq va mukammal bajarilishi-dir. Zero, zamonaviy darslarda faol ishlovchi – o'quvchi, uning yo'naltiruvchi topshiriqlar, mustaqil izlanishlar natijasida egallagan BKMLari, ularning o'quvchi nutqiy faoliyatiga, matn yaratish madaniyatiga ijobiy ta'siri – DTS talablarida ko'rsatilgan “ijodiy tafakkur sohibi”ga mos va xos bo'lgan natijadir.

Demak, N.Saidahmedovning o'qituvchi faoliyati modeli noan'anaviy usullarga va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars tabiatiga ham mos keladi. Binobarin, u zamonaviy ona tili darsi strukturasidan mustahkam o'rin olgan va biz tavsiya qilayotgan ongli verbal – kognitiv ta'lim tizimiga mohiyatan zid emas. Chunki OVKT tizimida ham o'qituvchi shaxsi emas, balki uning maqsadli faoliyati, ya'ni tanlash, yo'naltirish, nazorat qilish, xulosalashi muhim o'rin tutadi.

Ko'rinadiki, o'qituvchi faoliyati modeli va OVKT ta'lim tizimi bir – birini inkor qilmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi, zamonaviy ta'lim jarayonini, undagi subyektlarning o'rni, roli, funksiyalarini to'g'ri tushuntirishga yordam beradi.

Prezidentimiz I.Karimov an'anaviy ta'lim tizimi haqida to'xtalar ekan: “... maktablarimizda bolalar mustaqil fikrlashga o'rgatilmaligi, ta'lim jarayonida o'quvchi passiv tinlovchi, o'qituvchining faol ishlovchi, hukmron ekanligi...”ni qattiq tanqid ostiga oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisining (9-sinf) erkin fikrlash, mustaqil matn yaratish malakalari, sifati va darajasi ona tilidan DTSlari talabiga javob beradimi? Bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish qay ahvolda?

Mustaqil yaratilgan badiiy matn – o'quvchining imlo savodxonligi, ijodiy tafakkuri, so'z boyligi, nutqiy salohiyatini namoyish etuvchi ko'zgu, aks sado. Chunki o'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, ularning amaliy tadbiri – o'quvchining o'zi mustaqil yaratgan matndagina o'z ifodasini topadi. Zero, o'quvchining suhbatdosh fikrini qabul qilish va o'z fikrni ifodalashga qaratilgan ehtiyoji asosiga qurilgan amaliy faoliyatiga ona tilidan egalagan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, kommunikativ savodxonlik darajasining oshib borishi, matn yaratish ko'nikmalarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ana shunday faoliyatgina ta'lim jarayonini samarali

tashkil qilish bo'yicha DTS talablariga mos keladi va o'quvchida ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi muhim didaktik vosita vazifasini bajara oladi.

Demak, mustaqil matn yaratish darajasi (o'quvchi ongida nutqiy tafakkurini kengaytirish, rivojlantirish va mustaqil matn yaratishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'quv topshiriqlar: rasmi nutqiy vaziyatlar, muammoli savol va masalalar, qiziqarli dizayn; elektron slayd va versiyalar, axborot texnologiyasi bilan to'yintirilgan ta'limiy – didaktik vositalar yordamida shakllantirilgan) egallangan BKMLarning amaliy tatbiqi darajasini aniqlashga xizmat qiladigan me'yorlar tizimida aks etishi kerak.

A M A L I Y
M A S H G ' U L O T L A R

MAVZU: № 1. 5-SINF DARSLIGIDAGI KIRISH VA TAKRORLASH MASHG'ULOTLARINI O'RGANISH.

REJA:

1. Til-ijtimoiy hodisa
2. Ayrim unlilar va undoshlar imlosi.
3. Bosh va kichik harflarning qo'llanishi.
4. So'zlarning ma'no jihatdan turlari.
5. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2007 yil 1-son.
4. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2007 yil 5-son.
5. 14. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov B., Jo'raboyeva Z. "5 sinf darsligi 2-nashri", Toshkent "Ma'naviyat" 2007 yil
6. To'xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I "Darsliklar ustida ishlash" Toshkent 2007 yil.

Darslik haqida ma'lumot beriladi. Maktab darsliklarini ishlab chiqishdagi ahamiyatli jihatlar, unda DTSning o'rni haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi.

N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyevar tomonidan tuzilgan 5-sinf ona tili darsligi (2007) umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartiga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi talablarga javob beradi.

Darslik kirish mashg'uloti va takrorlash qismi bilan boshlanadi. Shuningdek, "Sintaksis va punktuasiya", "Morfologiya", "Fonetika" va "Leksikologiya" hamda o'quv yili oxirida takrorlash qismlari ham o'z aksini asosida takrorlash mashg'ulotlari keltirilgan. Darslikda ko'proq e'tibor nazariy ma'lumotlarga balki amaliy mashg'ulotlarga berilgan, o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda imkoni boricha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Darsliklardagi fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarda quyi sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so'zlarni noto'g'ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

O'quv yili oxirida takrorlash mashqlarini o'tishda yil davomida olingan bilimlarni tekshirish maqsadida har xil o'yin-topshiriqlar, test o'tkazish kabi usullardan foydalanish o'qtiriladi.

Darslikdagi keyingi mavzular ham shu tarzda tahlil qilinish kerak.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ta'lim mazmunini yangilash ehtiyoji deganda nimani tushunasiz?
2. DTS asosida maktab darsliklarini tuzishda nimalar inobatga olinadi?
3. 5-sinf ona tili darsligining oldingisi bilan taqqoslang.

MAVZU: № 2. SINTAKSIS VA PUNKTUASIYAGA OID MAVZULARNING DARSLIKDA BERILISHI.

REJA:

1. Gap haqida ma'lumot.
2. Gap bo'laklari haqida.
3. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.

Adabiyotlar:

1. 14. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov B., Jo'raboyeva Z. "5 sinf darsligi 2-nashri", Toshkent "Ma'naviyat" 2007 yil
2. . 1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2005 yil 4 – son.
4. Rahmatullayev Sh "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent 2006 yil (lotin).
5. To'xliyev B, Inog'omova R, Abdulahatova R "Darslik bilan ishlash metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiril).

Sintaksis va punktuasiya bo'limiga oid mashg'ulotlari o'rganish yuzasidan ma'lumot beriladi. Sintaksis bo'limida gap va unda so'zlarning bog'lanish, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, gapning tuzilishiga ko'ra turlari, uyushiq bo'lakli, undalmani gaplar, ko'chirma gap, kirish so'zlar, dialog va unda tinish belgilarining ishlatilishi kabi mavzularga oid mashq va topshiriqlar berilgan.

Ushbu bo'limga jami 46 soat dars soati berilgan bo'lib, shundan 4soati takrorlash, 3 soati mustahkamlash darsi hisoblanadi. Darslikda mavzuga oid qoidalarga kamroq joy ajratilib asosan mashq va topshiriqlarga katta e'tibor berilgan.

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun so'zlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bog'lab, gap tuzamiz.

So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gap va uning turlarini o'rgatadigan tilshunoslik bo'limiga sintaksis, tipini belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l – yo'riqlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga esa punktuasiya deyiladi.

So'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: teng bog'lanish va tobe bog'lanish.

Olma va o‘rik shaklidagi bog‘lanish tobe bog‘lanish, olmani yomoq shaklidagi bog‘lanish tobek bog‘lanish sanaladi.

Ikki so‘zning biri tobe, ikkinchisi hokim tazida bog‘lanishga tobe bog‘lanish deyiladi. Tobe bog‘lanishda doim ikkita qism: tobe va hokim so‘z bo‘ladi. Tobe so‘z hakim so‘zga bog‘lanadi. So‘roq hokim so‘zga qarab beriladi. So‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z tobe qism sanaladi.

Shu tariqa qoidalar batafsil berilgan bo‘lib, mashqlar, o‘yin-topshiriqlar, rasm asosida hikoya tuzish kabi mashg‘ulotlar hovola etilsa.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash mashg‘ulotlari gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turli gap, bo‘laklari, undalma, kirish so‘zlar va ko‘chirma gaplar mavzusiga oid mashg‘ulotlar uchun berilgan bo‘lib, ushbu mavzularni chuqurroq o‘rganish imkoniyati berilgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sintaksis bo‘limiga oid mashg‘ulotlar darslikdagi berishi holati haqida.
2. Punktuasiyaga oid mavzularning darslikda berilishi borasidagi fikrlaringiz.
3. 5-sinf o‘quvchilari uchun mavzularni tushunarli qilib berilishi haqidagi fikringiz.

MAVZU: № 3. MORFOLOGIYAGA OID MASHG‘ULOTLARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Ot mavzusi haqida.
2. Sifat va son haqida.
3. Olmosh va fe‘l haqida.
4. Ravish haqida
5. Yordamchi so‘zlar haqida
6. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Adabiyotlar:

1. Nurmonov A, Ikromov I, Boynazarov F “Yangi pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent 2007 yil.
2. Olimxonova M “5-6-sinfda ona tili darslari” Toshkent 1978 yil.
3. 1. 1. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
4. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2005 yil 4 – son.

Morfologiyaga oid mashg‘ulotlar uchun darslikda 37 soat dars berilgan shundan 2 soat takrorlash, 4 soat mustahkamlash darsi berilgan. Morfologiya bo‘limi yuzasidan nazariy ma‘lumotlar aytib o‘tildi. 5-sinf darsligida bu bo‘lim haqidagi ma‘lumotlar ko‘rib chiqiladi. Boshqa bo‘limdagi kabi ushbu bo‘limga oid bilimlarni o‘rganishda ham qoidalar va mashqlar DTS asosidagi ballarga to‘liq mos keladi.

Biror so‘roqqa javob bo‘lib, ko‘pincha atash ma‘nosini bildiruvchi, gapda ma‘lum bir gap bo‘lagi yoki undalma vazifasida keladigan so‘zlar mustaqil so‘zlar deyiladi.

So‘roqqa javob bo‘lmaydi, atash ma’nosini bildirmaydi so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi.

Shaxs; narsa-buyum, joy nomlarini bildirib, kim?, ni ma?, qayer? So‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘zlarga ot deyiladi.

Otlar son, egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi. Gapda otlar bosh va ikkinchi darajali bo‘lak shuningdek, undalma va doirasida keladi.

Otlarga qo‘shilib, ularni o‘zidan keyin kelgan boshqa so‘zlarga tobelashtirib bog‘lab keladigan qo‘shimchalarga kelishik qo‘shimchalari deyiladi. Otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildirgan qo‘shimchalarga egalik qo‘shimchalari deyiladi.

Qanday? Qanaqa? So‘roqlariga javob bo‘lib, narsa-buyumning belgisini bildirgan so‘zlarga sifat deyiladi. Belgi deganda rang- tus, maza-ta‘m, shakl-hajm, xil-xususiyat kabilar tushuniladi. Sifat gapda aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi.

Nima qilmoq?, nima bo‘lmoq? So‘roqlariga javob bo‘lib, harakat-holatni bildiruvchi so‘zlarga fe‘l deyiladi.

Mustaqil so‘z turkumlarining 6 turi haqida batafsil ma’lumot berilgach, mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar berilgan.

Yordamchi so‘z turkumlari – ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchi haqida qoidalar berilgan.

Biror so‘roqqa javob bo‘lmay, gap yoki gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi.

Bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklamalar yordamchi so‘zlardir. Undov va taqlid so‘zlar haqida ma’lumot berilib, bo‘limni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar berilgn.

So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari 4 ga bo‘lib, berilgan ularda sodda, qo‘shma, juft va takroriy so‘zlardir. So‘ngra mustaqil va yordamchi so‘zlar mavzulari yuzasidan takrorlash mashg‘ulotlari berilgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mustaqil so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytiladi?
3. Darslikda undov va taqlid so‘zlar haqidagi mashqlarning berilishi.

MAVZU: № 4. FONETIKA BO‘LIMIGA OID MASHG‘ULOTLARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Nutq tovushlari va harf haqida.
2. Talaffuz va imlo me‘yorlari.
3. Bo‘g‘in va urg‘u haqida ma’lumot.

Adabiyotlar:

1. Abdulahatova R, Yusupova T, Dosanov K “Til ta’limida uzviylik va uzluksizlik” Toshkent 2008 yil.
2. Asqarova M va boshqalar “O‘zbek tili praktikumi” Toshkent 2006 yil (lotin).

3. Almamatov T, Yodgorov Q, Pochayeva G “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (metodik qo‘llanma) Jizzax – 2006 yil (lotin).
4. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf adabiyot darsligi., “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007 yil.

Fonetika bo‘limini o‘rganish uchun 50 soat dars soati berilgan bo‘lib, shundan 3 soat mustahkmlash va 4 soat takrorlash uchun mashg‘ulotlar berilgan.

Fonetika grafika bo‘limi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun darslikda ham ikki bo‘lim bir-biriga solishtirish asosida berilgan.

Bo‘lim boshida tilshunoslik va uning bo‘limlari haqida qoidalar berilgan.

Tilning ichki tuzilishidan qaysisini o‘rganishga ko‘ra tilshunoslik fani bir necha bo‘limlarga bo‘linadi.

Tilning tovush tuzilishi fonetika bo‘limida, harflar tizimi esa grafika bo‘limida o‘rganiladi.

So‘z va uning ma‘nolari leksikologiya bo‘limida, so‘z turkumlari morfologiya bo‘limida, gap va gapda so‘zlarning bog‘lanishi sintaksis bo‘limida o‘rganiladi.

Og‘zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi.

Tovushning yozuvdagi ifodasi harf deyiladi. Tovushlar nutq a‘zolari orqali hosil qilinadi, nutq tovushlari nutq a‘zolarining qayerida paydo bo‘lishiga qarab turlarga bo‘linadi: lab tovushlari, til tovushlari, burun tovushlari, bo‘g‘iz tovushi.

Fonetika va grafika bo‘limini solishtirib o‘rganishda talaffuzi a imlosi har xil bo‘lgan, ya‘ni aytilishi bilan yozilishi orasida farq bo‘lgan tovushlarni o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki mustaqil yozma ishlar yozishda o‘quvchilar yuqoridagi tovushlar bilan so‘zlar xato yozish hollari ko‘p uchraydi.

Masalan, b jarangli tovush p jarangsiz tovush kabi, d – t kabi talaffuz qilinganda noto‘g‘ri yozib qo‘yishi mumkin.

Boring, farzant kabi.

Fonetika bo‘limida shu bilan birga yangi o‘zbek alifbosi, talaffuz va imlo me‘yorlari, ayrim unlilar va undoshlar talaffuzi va imlosi, qush undoshlar va tutuq belgisining ishlatilishi kabi, shuningdek, urg‘u va bo‘g‘in haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan, shunga mos ravishda mashq va topshiriqlar havola eting. Bo‘g‘inga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirish tushunchlarning farqli tomonlarini sodda mashqlar orqali tushuntirilgan.

Talabalar darslik bilan ishlaganda undagi mavzuga oid mashqlarning barchasini o‘rganib, berilgan topshiriqlar ustida ishlab chiqishi lozim. Chunki sodda ko‘ringan ayrim mashqlarni tushuntirish murakkab bo‘lishi, uni hamma talabalar ham baravar birdek to‘g‘ri tushunmasligi mumkin. Bo‘lim oxirida test ustida ishlash va nazorat diktanti olish kabi topshiriq bilan yakunlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Fonetika bo‘limiga oid mashg‘ulotlarning darslikda berilishi yuzasidan mulohazalariningz.

2. Fonetika nima uchun grafika bo'limi bilan birga berilgan, misollar bilan tushuntiring.
3. Darslikning DTS talablariga mosligi haqidagi fikringiz.

MAVZU: № 5. LEKSIKOLOGIYA BO'LIMIGA OID MAVZULARNI O'RGANISH.

REJA:

1. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.
2. So'zning ma'no jihatidan turlari.
3. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari.
4. Atamalar va lug'at turlari haqida.

Adabiyotlar:

1. To'xliyev B, Inog'omova R, Tilavova G "So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiritil).
2. To'xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I "Darsliklar ustida ishlash" Toshkent 2007 yil.
3. Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yo'lida" Toshkent 2000 yil.
4. Yo'ldoshev R "O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish" Toshkent 1978 yil.

5-sinf darsligida leksikologiya bo'limini o'rganish uchun 24 soat dars berib, shundan 3soat mustahkamlash darsiga ajratilgan. Bo'limdagi mashg'ulotlar leksikologiya haqida suhbat bilan boshlangan. Bunda leksikologiya bo'limi haqida ma'lumot hikoya turzida berilgan. So'zlarning atash ma'nosi, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, so'zlarning uz va ko'chma ma'nosi, so'zlar ma'no munosabatiga ko'ra turlari, leksikaning boyitish manbalari lug'at va lug'atshunoslikka oid materiallar berilgan.

So'zlarning borliqdagi qanday narsa – hodisalar, belgi xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirish uning atash ma'nosi sanaladi.

So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarga bo'lmni ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlar 1 ma'noli so'zlar sanaladi.

Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar deyiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarni o'rganishda ularning shakldosh so'zlarga o'xshash va farqli tomonlariga ahamiyat berish lozim.

Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llashda hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir.

So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganishda adabiyot faniga bog'liq materiallar ham berilib, mumtoz adabiyotga tegishli tuyuqlardan namunalar keltirish orqali shakldosh so'zlarning ma'nosi ertaklardan keltiring namunalar bilan zid

ma'noli so'zlarning bolalarga atalgan she'rlar keltirish bilan esa ma'nodosh so'zning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirib o'tilgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Leksikologiya bo'limiga oid mashg'ulotlarning darslikda berilishi haqida mulohazalar.
2. Ushbu bo'limning tilshunoslikning boshqa bo'limlariga oid mashg'ulotlar bilan bog'lab o'tishga mos bo'lgan mashq va topshiriqlar haqidagi fikrlar.
3. Lug'atlar bilan ishlashda nimalarga ahamiyat berish lozim.
4. Ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni farqlashga oid mashqlarning darslikda berilishi.

MAVZU: № 6. O'QUV YILI OXIRIDAGI TAKRORLASH MASHQLARINI O'RGANISH.

REJA:

1. Sintaksis va punktuasiyaga oid mavzularni takrorlash.
2. Morfologiyaga oid mavzularni takrorlash.
3. Fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarni takrorlash.
4. Leksikologiya bo'limiga oid mashg'ulotlarni takrorlash.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yo'lida" Toshkent 2000 yil.
2. Yo'ldoshev R "O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish" Toshkent 1978 yil.
3. Rahmatullayev Sh "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent 2006 yil (lotin).
4. To'xliyev B, Inog'omova R, Abdulahatova R "Darslik bilan ishlash metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiril).

5-sinf ona tili darsligida tilshunoslikning deyarli barcha bo'limlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilib, unga xos mashq va topshiriqlar havola etilgan. O'quv yili oxirida shu bo'limlarga oid mavzularning hammasi takrorlash sifatida o'tiladi, bunga DTSga asosan 8 soat ajratilgan.

Unda mavzular takrorlanadi va shu bilan birga olingan bilimlar mustahkamlanadi. Shu bilan birga 8 soat davomida 5-sinf darsligidagi mavzular o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini tekshirish ham maqsad qilinadi. Shunga ko'ra, 5 – sinf bitiruvchilariga "Ona tili" o'quv fanidan qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, bu ham o'quv yili oxirida tekshiriladi. Bunda o'qish san'ati (daqiqada 90-100ta so'z) ni orfologiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy olish, fikrni bayon etish mahorati (10-12 ta gapdan iborat bo'lgan matn yaratish), shu bilan birga, o'tilgan mavzular yuzasidan nazariy bilimlarni o'zlashtirgan nazarda tutiladi. Yuqoridagi nazariylarni o'tkazish uchun 5-sinf ona tili darsligidagi mashq, topshiriq va matndan foydalanish mumkin.

Mavzularni takrorlash maqsadida har xil o'yin-topshiriqlardan, test va boshqa mashqlardan foydalanish o'quvchilar ongiga chuqurroq yetib borishni ta'minlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. 5-sinf bitiruvchilariga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar.
2. Darslikda takrorlash mashg‘ulotlarining berilishi va uning DTSga mosligi.
3. Takrorlash mashg‘ulotlarning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyatli jihatlar.

MAVZU: № 7. 5-SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH MASHG‘ULOTLARINI O‘RGANISH.

REJA:

2. Nutq tovushlarini o‘tish.
3. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar mavzularini o‘tish.
4. Atamalar va iboralar.
5. Lug‘atshunoslik haqida.

Adabiyotlar:

1. To‘xliyev B, Inog‘omova R, Abdulahatova R “Darslik bilan ishlash metodikasi” Toshkent 2008 yil (kiril).
2. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2006 yil. (kiril).
3. Ahmedov S., Qo‘chqorov R Rizayev Sh. 6-sinf adabiyot darsligi.. Toshkent “Ma‘naviyati” 2005 yil.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A, Nabiye D. 6-sinf ona tili darsligi “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent 2009 yil.

6-sinf ona tili darsligi haqida umumiy ma‘lumot beriladi. Maktab darsligini ishlab chiqishdagi ahamiyatli jihatlar, uning DTS talablariga mosligi, eski taxrirdagi darslik bilan solishtirib o‘rganish, undagi farqli tomonlar haqida fikrlar bayon etiladi. 6-sinf ona tili darsligi tomondan tuzilgan bo‘lib, DTS talablariga to‘la mos keladi. Darslik 170 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, kirish va 5-sinfda o‘tilganlarni takrorlash bilan boshlanadi. Kirish mashg‘ulotlariga 3 soat ajratilgan bo‘lib, unda “Davlat tili” matni ustida ishlash, matn asosida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili, bu tilda to‘g‘ri so‘zlash va yozish madaniyati, O‘zbekistonda milliy tillarning riv-ish mavzusida savol-javob o‘tkazish, fikr va mulohazalarini bayon etish uchun mashq berilgan. Ona tili haqida she‘rlar berib o‘tilgan bo‘lib, uchun yodlash shu bilan birga ularning ma‘nolarini aytib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga ma‘nodosh; uyadosh va zid ma‘noli so‘zlarni topib, ularning o‘z va ko‘chma ma‘nolarini topish uchun she‘riy parchalardan havolo etilgan.

5-sinfda o‘tilganlarni takrorlash uchun 6 soat ajratilgan bo‘lib, bunda ko‘proq mavzuga oid matnlarga e‘tibor kuchaytirilgan ya‘ni, “O‘zbek adabiyoti” darsligidan bir matn tanlang, “Ta‘tilda” matnini o‘qib, berilgan topshiriqni bajaring, berilgan mavzu bo‘yicha matn yarating, uy inshosi yozing kabi topshiriqlar shular

jumlasidandir. 6-sinf o‘quvchisi ma’lum mavzuga oid 10 dan ortiq gapdan iborat matnni tuza oladi. Shuni hisobga olgan holda darslikdagi matnlar hajmi ham shu talbga asoslangan. Bu orqali ham nazariy, ham amaliy bilimlar takrorlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. 6-sinf ona tili darsligi haqidagi fikr-mulohazalar.
2. Kirish mashg‘ulotlarining darslikda berilishi va uning DTSga mosligi.
3. Takrorlash masalaning dars berish va uning DTSga mosligi.

MAVZU: № 8. MORFOLOGIYA BO‘LIMIGA OID MASHG‘ULOTLARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Bo‘lim haqida umumiy ma’lumot.
2. Asos va qo‘shimchalar haqidagi mashg‘ulotlarni o‘tish.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A, Nabiyev D. 6-sinf ona tili darsligi “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent 2009 yil.
2. Rahmatullayev Sh “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” Toshkent 2006 yil (lotin).
3. To‘xliyev B, Inog‘omova R, Abdulahatova R “Darslik bilan ishlash metodikasi” Toshkent 2008 yil (kiril).
4. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2006 yil. (kiril).

Morfologiya bo‘limi so‘z turkumlarini o‘rganuvchi bo‘lim o‘lib, ushbu bo‘lim morfologiyaga kirish mashg‘uloti bilan boshlanadi, unga 2 soat ajratilgan “Tasnif va to‘plash” mavzusi berilgan bo‘lib, bunda berilgan narsa-buyumlar ular orasidagi o‘xshashlik asosan guruhlash, “Tasnif” tugunchasi, “Tasnif-borliqni bilish asosi” ma’rifiy matni ustida ishlashga oid mashqlar havola etilgan.

Shu bilan birga, so‘z tarkibi va qo‘shimchalar tasnifiga oid mavzular ham mavjud, unga 4 soat ajratilgan. Unda tub va yasama so‘zlar so‘z yasovchi qo‘shimchalar lug‘aviy shakl va aloqa – munosabat qoidalari tushunchalari va ularning mohiyati kabi mavzular berilgan, shunga mos mashq va topshiriqlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Mashqlarda so‘zlarni tarkibi asosida tahlil qilish topshirig‘i ham berilgan, tahlil qilish jarayonida ishlatiladigan shartli belgilar ham ko‘rsatib o‘tilgan. So‘z asos va qo‘shimchadan tarkib topadi, ushbu tarkibning o‘z tartibi mavjud. Ya’ni asosdan keyin qo‘shiladigan qo‘shimchalar tartib bilan joylashishini ko‘rsatib beruvchi bir necha mashg‘ulotlar mashqlar orqali bajariladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. "Tasnif" tushunchasini qanday sharhlaysiz, u darslikda qanday berilgan.
2. Soʻz tarkibi va qoʻshimchalarga oid mashgʻulotlarning darslikda berilishi.
3. Qoʻshimchalarning turlarini tushuntirishda mavzuga oid mashqlardan foydalanish.

MAVZU: № 9. SOʻZ TURKUMLARI HAQIDAGI MAVZULARNI OʻTISH.

REJA:

1. Feʼl soʻz turkumi haqida umumiy maʼlumot.
2. Feʼl nisbatlari.
3. Feʼlning vazifa shakllari.

Adabiyotlar:

1. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. "Til va adabiyot taʼlimi" jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. "Til va adabiyot taʼlimi" jurnali 2007 yil 1-son.
4. Takomillashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. "Til va adabiyot taʼlimi" jurnali 2007 yil 5-son.

Darslikdagi mavzular asosan mustaqil soʻz turkumlariga oid boʻlib, unda feʼl soʻz turkumiga 52 soat ajratilgan. Feʼl soʻz turkumi haqida umumiy maʼlumot beriladi. Unda feʼlning umumiy maʼnosi, feʼl va sifat orasidagi maʼnoviy farq, harakatning bajaruvchisini topish borasidagi tushunchalar mashq va topshiriqlar orqali berib oʻtilgan.

Feʼl nisbatlari. Har bir nisbat shaklining hosil boʻlishi, maʼnolari va qoʻllanishi ustida ishlash. Nisbat qoʻshimchalarining qoʻllanilishi.

"Navoiy tilimiz haqi" matni ustida ishlash. Feʼl turlari haqida umumiy tushuncha. Feʼlning vazifa shakllari haqida maʼlumot berish, unga oid mashgʻulotlarning darslikgi berilishi va ularni oʻrganish. Harakat nomlari, ular ishtirokida gaplar tuzib, matn yaratish mashgʻulotlarini bajarish, harakat nomi qoʻshimchalarini oʻrganish, harakat nomi, zarur, kerak, muhim kabi soʻzlar bilan birikib, kesim vazifasiga kelishik va ularning maʼnolarini oʻrganish.

Sifatdoshlar. Berilgan uzakdan soʻzlarini qoʻshimchadosh uyalarga ajratish, soʻzlar qatorini mustaqil davom ettirish, ular

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mustaqil soʻz turkumlarining darslikda berilishi.
2. Feʼlga oid mashgʻulotlarning berilishi haqidagi fikringiz.
3. Feʼlning nisbatlari haqida mashqlarning berilishi.
4. Feʼlning vazifa shakllari haqidagi mashqlarni oʻrganishdagi ahamiyatli jihatlar.

MAVZU: № 10. FE'L ZAMONLARI VA MAYLLARINI O'RGANISH.

REJA:

1. O'tgan zamon.
2. Hozirgi va kelasi zamon.
3. Xabar va buyruq – istak mayli.

Adabiyotlar:

1. To'xliyev B, Inog'omova R, Tilavova G "So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiril).
2. To'xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I "Darsliklar ustida ishlash" Toshkent 2007 yil.
3. Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yo'lida" Toshkent 2000 yil.
4. Yo'ldoshev R "O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish" Toshkent 1978 yil.

Fe'l zamonlari haqida umumiy ma'ulmot berish. O'tgan zamon. O'tgan zamon qo'shimchalari va ularning imlosini o'rganish. O'tgan zamon fe'lining turlari haqida ma'umot berish. O'tgan zamon shakliga oid mashg'ulotlarni bajarishni o'rganish. Berilgan matndan o'tgan zamon fe'llarini ajratish, uchun tahlil qilish, turlarini aniqlash.

Fe'ning o'tgan zamon shakllari ishtirokida matn tuzishga oid mashg'ulotlarni o'rganish.

O'zbek adabiyoti darsligidan matn tanlab, undan fe'ning o'tgan zamon shakllarini topish.

Fe'ning hozirgi zamon shaklii. Uning turlari va qo'shimchalarni o'rganish, ularni tahlil qilish. Ushbu zamon shaklini aks ettirish matnlar tanlab, tahlil qilish.

Kelasi zamon shakliga xos qo'shimchalarni o'rganish. Zamon shakllarini bir-biriga qiyoslab o'rganish. Fe' zamonlarining nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan olinishini misollar orqali, ason usullar bilan tushuntirishda darslikdagi mashqlarning o'rnini o'rganish.

Fe'ning matn shakli haqida umumi ma'lumot berish. Xabar mayli va uning o'ziga xos jihatlarni o'rganish. Mavzuga oid mashqlarni bajarish. Shart mayliga xos xususiyatlar, uning qo'shimchasi haqida ma'lumot berish, berilgan matndan shart mayliga oid so'zlarni ajratib tahlil qilish. Buyruq-istak maylining o'ziga xosligi, unga oid topshiriq va mashqlarning darslikda berilishini o'rganish.

Fe'l mayllarini bir-biriga qiyoslab o'rganish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Fe'l zamonlarini o'rganishda darslikning ahamiyati.
2. Fe'l mayllari haqidagi mashqlarning darslikda berilishi.

MAVZU: № 11. OT VA SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID MASHG‘ULOTLARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.
2. Otlarning ma‘no guruhlari.
3. Otlarning lug‘aviy shakllari.
4. Sifatlarning yasalihi.
5. Sifat turlari.

Adabiyotlar:

1. Olimxonova M “5-6-sinfda ona tili darslari” Toshkent 1978 yil.
2. Zunnunov A, Esanov J “Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 1985 yil
3. Ziyodova T “Matn yaratish texnologiyasi ” Toshkent 2007 yil.
4. G‘ulomov A, Ne‘matov H “Ona tili ta‘limi mazmuni” Toshkent 1995 yil.

Ot turkumiga oid mashg‘ulotlarning umumiy ta‘rifi. Ot so‘z turkumiga 55 soat ajratilgan bo‘lib, unda otning tuzilishiga ko‘ra, ma‘nosiga ko‘ra turni, uning lug‘aviy shakllariga oid mashq va topshiriqlar o‘z aksini topgan.

Berilgan so‘z juftlarining farqlanishini aniqlash, otlarga birlik va ko‘plik shakllarini sharhlash, birlik va ko‘plik shakllari bilan farqlanuvchi so‘z juftlari hosil qilish va ular ishtirokida gaplar tuzish, kichraytish-erkalash va kichraytish-achinish qo‘shimchalarining nutq aniqligini ta‘minlash ustida amaliy ishlar bajarish.

Atoqli va turdosh otlar haqida umumiy ma‘lumot. Berilgan otlarni kishi nomlari va hayvon nomlari kabi ikki guruhga ajratish va bu guruhlarni mustaqil davom ettirish. Kishi nomlariga qo‘shib yoziladigan ko‘rsatkichlar haqida ma‘lumot berish, shu nomlar qatnashgan matnlarni tanlab yozish.

“Ism va ota ismi”, “Nega ismim...?” mavzularida insho yozish tahlil qilish mashg‘ulotlarini o‘rganish.

Yozma nutqda tashkilot, kitob, kinofilm, sahna asari, badiiy film nomalrining yozilishi, ularda bosh harflar va qo‘shirnoqning ishlatilishiga doir amaliy ishlarni bajarish.

Atoqli otlarni guruhlarga bo‘lib o‘rganish, har bir guruh mazmuniga oid mavzularda insho yozishni o‘rganish.

Sifat so‘z turkumiga oid mashg‘ulotlar uchun darslikda 16ta dars soati ajratilgan. Unda sifatlarning yasalihi, uning tuzulishi, ma‘no turlarini aks ettiruvchi mashg‘ulotlar mavjud.

Berilgan so‘z birikmalarini o‘qib, qanday? qanaqa? qachongi? qayerdagi? So‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni topish. Sifatlarni tub va yasamaga ajratish. Sifat yasovchi qo‘shimchalar ustida ishlash. Qo‘shma sifatlar, juft va takroriy sifatlar yasalihi va imlosi ustida ishlash. Sifatlarni turli gap bo‘laklari vazifasida qo‘llab matn tuzish. Asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalari, sifatlarning lug‘aviy shakllarini qo‘llash.

Sifatlarning ma'noviy guruhlarini mavzusini aks ettiruvchi "Kamalak", "Bahor osmoni", "Bog'imiz bahorda", "O'zbek taomlari", "Shirmoy non" kabi mavzularda matn yaratish. "Ranglar jilosi" matni ustida ishlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ot so'z turkumi haqida mashg'ulotlarni o'rganishda darslik ishlanmalarining ahamiyati.
2. Otning turkumlarini o'rganishda matnlarning berilishi.
3. Ot mavzusi bo'yicha yozma ishlar, o'yin-mashg'ulotlar va takrorlash mashqlari haqida fikringiz.
4. Sifatlarni o'rganish haqidagi fikrlaringiz.

MAVZU: № 12. SON VA RAVISH HAQIDAGI MAVZULARNI O'RGANISH.

REJA:

1. Sonning ma'no guruhlarini.
2. Hisob so'zlar
3. Ravishlarning yasaliishi.
4. Ravishlarning ma'no guruhlarini.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qo'chqorov R Rizayev Sh. 6-sinf adabiyot darsligi.. Toshkent "Ma'naviyati" 2005 yil.
2. "Diktant va bayonlar to'plami" Toshkent 2003 yil.
3. Husanboyeva Q "Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari" Toshkent 2003 yil.

Son so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot. Son turkumiga oid mashg'ulotlarga 15 soat ajratilgan. Unda sonning tub va ma'no turkumiga oid mashg'ulotlar berilgan. Miqdor ma'nosini ifodalab, qancha?, necha?, nechanchi?, nechta? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar ro'yxatini tuzish. Sanoq sonlar va ularning imlosi. Uning raqamlar va harflar bilan ifodalanishi. Rim va arab raqamlari.

Rim so'zning ma'nolari ustida ishlash.

Dona son va ulush son. Ularning yasaliishi, imlosi, ma'nosi va qo'llanilishi ustida ishlash. Chama sonning yasaliishi, imlosi va ma'nosi ustida ishlash. Butun va kasr sonlar haqida mashg'ulotlar bajarish. Jamlovchi son va unga ov,-ala qo'shimchalarning ishlatilishi. Tartib son haqida ma'lumotlar berish. O'lchov so'zlarni o'rganish, ular ishtirokida matn tuzish.

Ravish so'z turkumi haqidagi mashg'ulotlar 8 soat ajratilgan. Unda ravishning grammatik belgisini aniqlash bo'yicha ishlash, ravishlarning turiga ko'ra turli tub va yasama ravishlar, ravishlarning ma'no turi, ravish yasovchi qo'shimchalar haqida mavzular o'z aksini topgan.

Holat ravishlari ular ma'no xususiyatlari, yasalish, ma'nodosh va uyadoshlari ustida ishlash.

Payt ravishlari, ular ma'nolari, yasalishi, ma'nodosh va uyadoshlari ustida ishlash.

Daraja-miqdor ravishlari haqida ma'lumot ravishlarning ma'no guruhlari ishtirokida matn tuzish. Ravishlar ilmiy matni ustida ishlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Son so'z turkumi haqida ma'lumot berilgan.
2. Ravish so'z turkumi haqida ma'lumot berish

**MAVZU: № 13. 6-SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH
MASHG'ULOTLARINI O'RGANISH.**

REJA:

1. Fonetika bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.
2. Imlo bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.
3. Leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.
4. So'z turkumlari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., 7-sinf adabiyot darsligi. Toshkent "Sharq" – 2005 yil.
2. Zunnunov A, Esanov J "Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent 1985 yil
4. Ziyodova T "Matn yaratish texnologiyasi" Toshkent 2007 yil.
5. G'ulomov A, Ne'matov H "Ona tili ta'limi mazmuni" Toshkent 1995 yil.

O'quv yili oxirida takrorlash mashg'ulotlari uchun 5 soat ajratilgan.

Darslikdagi mavzular asosan morfologiya oid mavzular bo'limiga qaramay ularga uzviy bog'liq bo'lgan "Fonetika", "Imlo" hamda "Leksikologiya" bo'limlari ham takrorlashadi. Bu bilan 6-sinf o'quvchilarining ushbu mavzulardan olgan bilimlari, ularni solishtirib, qiyoslab o'rganishdagi ilmlari yanada takomillashtiriladi.

Fonetika bo'yicha takrorlash jarayonida nutq tovushlari, ularning tasnifi, talaffuzi, imloda esa tovushlarning yozuvdagi ifodalanish qonun – qoidalarini takrorlash uchun mashq va topshiriqlar havola etilgan.

Leksikologiya bo'limini takrorlash davomida ham unga tegishli mashq va topshiriqlar berilgan bo'lib, so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini qiyoslab o'rganishi uchun sodda va ravon matnlar keltirilgan. Darslikda takrorlash mashg'ulotlarida mavzuga oid qoidalarga emas balki, amaliy topshiriqlarga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lib, o'quvchi asosan mustaqil, erkin ijod qilish uchun zamin yaratilgan.

So'z turkumlari bo'yicha takrorlashda fe'l, ot, sifat, son va ravish turkumlari yana bir bor takrorlab olinadi.

O'quv yili oxiridagi takrorlash mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning 6-sinf bitiruvchilarining ona tili fani bo'yicha olgan bilimlarini nazorat qilish va tekshirish maqsadida ularga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. O'qish san'ati bo'yicha bir davivada 100-110 ta so'zdan iborat publisistik yoki badiiy matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qish.

2. Fikrni bayon etish mahorati:

Miqdoriy ko'rsatkich: 12-14 gapdan iborat bo'lgan matn yaratish.

Talablar: 5-sinf talabalariga quy-qo'shiladi

1) iboralar, hikmatli so'zlar, maqollardan foydalana olish;

2) qo'shimchalarni ko'makchilar bilan, ko'm qush bilan almash qo'llash.

3) O'rganilgan ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish.

3. Nazariy bilimlar. Fe'l, ot, sifat, son, ravishlardan ichki ma'noviy guruhlarini, ularning imlo va talaffuzini bilim. Fe'l, ot, sifat, sonlardan shakllarini, ulardan imlo va talaffuzini, ma'no hususiyatlarini bilish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Fonetikaga oid mavzularni takrorlash mashqlarining darslikda berilishi haqida.

2. Imlo va leksikologiya mavzulariga oid mashqlarning darslikda berilishi.

3. So'z turkumlari haqidagi mavzularning darslik berilishi va uning DTS ga mosligi.

4. O'quv yili oxiri 6-sinf bitiruvchilariga ona tili fani uchun qanday talablar qo'yiladi.

MAVZU: № 14. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI HAQIDAGI MAVZULARNI O'RGANISH.

REJA:

1. Olmosh so'z turkumi.
2. Olmoshning ma'no turlari.
3. Olmoshning tuzilish turlari.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri, Toshkent, "Ma'naviyat" 2009 yil.

2. To'xliyev B, Inog'omova R, Tilavova G "So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiril).

3. To'xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I "Darsliklar ustida ishlash" Toshkent 2007 yil.

4. Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yo'lida" Toshkent 2000 yil.

Mustaqil so'z turkumlaridan olmosh turkumiga oid mashg'ulotlar uchun 13 soat vaqt ajratilgan.

Bunda quyidagi topshiriqlar bajariladi. Gap juftlari ajratilgan soʻzlarning nimaga ishora qilayotganligini va nimani almashtirayotganligini aniqlash.

Berilgan gaplarni ikki yoki uch gapga ajratish: gaplarni oʻzaro mazmunan bogʻlashda olmoshlardan foydalanish. Berilgan gap juftlarini bir gapga birlashtirish. Koʻrsatish olmoshlari. Berilgan gaplarda olmoshlarning maʼnolari va vazifalarini aniqlash. Koʻrsatish olmoshlari bilan berilgan soʻz birikmalarining maʼnolari ustida ishlash.

Koʻrsatish maʼnosini kuchaytiruvchi mana, ana yuklamalari ustida ishlash.

Oʻzlik olmoshlari. Berilgan gaplarda oʻz soʻzining maʼnosi ustida ishlash oʻzlari olmoshining koʻplik, hurmat yoki kesatish maʼnolarida qoʻllanilishi. Berilgan gaplarda oʻzlik olmoshi gapning qaysi boʻlagi vazifasida kelayotganligini aniqlash.

Soʻroq olmoshlari. Berilgan gaplardagi soʻroq maʼnosi qaysi soʻz bilan ifodalananayotganligini aniqlash.

Belgilash olmoshlari. Berilgan gaplarda ajratilgan soʻzlarning tarkibini aniqlash: ularning maʼno vazifasi ustida ishlash.

Gumon olmoshlari. Berilgan gaplarda ajratilgan gumon olmoshining yasalishi va maʼnolarini izohlash.

Ot olmoshlari. Gaplar tarkibida keladigan kamina, faqir, banda soʻzlarining maʼnosini tushuntirish. Berilgan gaplarda ajratilgan soʻz va soʻz birikmalarini qavs ichida berilgan olmoshlar bilan almashtirish: ularning maʼnosidagi farq xususida xulosa chiqarish.

Juft va takror olmoshlar imlosi va ixtisoslashgan olmoshlar maʼnosi. Kim-kim, qanday-qanday, u-bu, oʻz-oʻzi, bizu siz, shu-shu olmoshlarining tarkibi va maʼnosi ustida ishlash.

MAVZU: № 15. SOʻZLARNING MUNOSABAT SHAKLLARINI OʻRGANISH.

REJA:

1. Ismlarning munosabat shakllari.
2. Ismlarning lugʻaviy shakllari.
3. Ismlarning munosabat shakllari.

Adabiyotlar:

1. Takomillashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. “Til va adabiyot taʼlimi” jurnali 2007 yil 1-son.
2. Takomillashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. “Til va adabiyot taʼlimi” jurnali 2007 yil 5-son.
3. Abdulahatova R, Yusupova T, Dosanov K “Til taʼlimida uzviylik va uzluksizlik” Toshkent 2008 yil.
4. Asqarova M va boshqalar “Oʻzbek tili praktikumi” Toshkent 2006 yil (lotin).

5. Almamatov T, Yodgorov Q, Pochayeva G “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (metodik qo‘llanma) Jizzax – 2006 yil (lotin).

Matnni o‘qish; mustaqil so‘zlarning ma’noviy turlari; fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh va taqlidlarga 3-4 tadan misol topish; ot, sifat, sonlarga xos lug‘aviy shakllar qo‘shimchalarini aniqlash, ularning ma’no va vazifalarini izohlash; fe’l turkumiga oid lug‘aviy shakllar qo‘shimchalarini: nisbat qo‘shimchalari, harakat nomi qo‘shimchalari, sifatdosh qo‘shimchalari, ravishdosh qo‘shimchalari kabi guruhlarga ajratish.

-im, -m, -i, -si, -miz, -ingiz, -lari qo‘shimchalari bilan kelgan so‘zlarning ma’noviy guruhlari ustida ishlash. Bu so‘zlarni ularga tobelanib kelgan so‘zlar bilan kengaytirish.

Aloqa-munosabat shakllari qo‘shimchalari bilan birikish xususiyatlariga ko‘ra so‘zlarning uch katta guruhga: 1) ism; 2) sof fe’l; 3) o‘zgarmas so‘zlarga bo‘linishi ustida ishlash. Aloqa-munosabat shakllarining vazifalari.

Berilgan gaplarda –ga, -dan, -da qo‘shimchalarini uchun, bilan, sari, sababli, tomon, uzra, orqali qo‘makchilaridan mosi bilan almashtirib ko‘chirish; -ga, -dan, -da so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarning vazifasi haqida xulosa chiqarish.

-im, -si, -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo‘shimchalarining vazifasi va ma’nosi ustida ishlash.

Egalik qo‘shimchalari. Berilgan so‘zlarda ajratilgan –im, -miz, -ing, -i, -si, -miz, -ingiz kabi qo‘shimchalarning ma’nosini sharhlash: bu so‘zlarni tobe so‘z bilan kengaytirish va so‘z birikmalari hosil qilish.

Unli va undosh bilan tugagan ismlarni (ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, taqlid) tushlash: ularning imlosi va ma’nosi ustida ishlash.

“bizning oilamiz”, “Otamning ishxonasi”, “Jamoaxo‘jaligimizda” kabi mavzulardan birida ijodiy yozma ish yozish.

Kelishik shakllari. Berilgan gaplarda –ning, -ni, -ga, -da, -dan qo‘shimchali so‘zlar (ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlar)da har bir qo‘shimchani o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zga qanday ma’no kiritayotganligini aniqlash.

Otlarning turlanishi ustida ishlash. Kelishik shakllari sirasi va so‘roqlari. Kelishik shakllarining imlosi, talaffuzi, ma’nosi va vazifasiga oid ijodiy-amaliy ishlar.

Berilgan matnda otlarning kelishik shakllarini va ular tobelangan hokim so‘zni aniqlash.

Kesimlik shakllari. Matnni o‘qish: gap kesimlarini fe’l-kesim va ot-kesim kabi ikki guruhga ajratish; fe’l-kesimli va ot-kesimli gaplarda bo‘lishsizlikni ifodalovchi vositalar ustida ishlash.

Berilgan gaplarni o‘qish asosida fe’l-kesim va ot-kesimlarning zamonlarini aniqlash. Gap juftlarini o‘qish, fe’l-kesimli va ot-kesimli gaplarni ajratib, ularda bo‘lishli-bo‘lishsizlik, zamon va shaxs-son ma’nolarini ifodalovchi qo‘shimchalarni aniqlash. Ot-kesimli gaplar tarkibida ajratilgan edi, bo‘ladi, bo‘sin, bo‘lmaydi, emas kabi so‘zlarning vazifasini tushuntirish.

Gap juftlarini o‘qib bog‘lamali va bog‘lamasiz gaplar orasidagi ma‘no farqini aniqlash.

Berilgan gaplarda ot-kesimni emoq fe‘li yordamida o‘tgan zamonga va bo‘lmoq fe‘li yordamida o‘tgan zamonga va bo‘lmoq fe‘li yordamida kelasi zamonga aylantirish, emoq va bo‘lmoq bog‘lamasi bilan kelgan ot-kesimli gaplar orasidagi ma‘no farqini tushuntirish.

MAVZU: № 16. YORDAMCHI SO‘ZLARGA OID MAVZULARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Ko‘makchilarni o‘tish.
2. Bog‘lovchilarni o‘tish.
3. Yuklamalarni o‘tish.

Adabiyotlar:

1. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I “O‘zbek tili” Toshkent 1970 yil
2. Mirqosimova M “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari” Toshkent 2006 yil.
3. Nurmonov A, Ikromov I, Boynazarov F “Yangi pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent 2007 yil.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Umumta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili To‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri, Toshkent, “Ma‘naviyat” 2009 yil.

Berilgan gaplarda ko‘makchilardan mosini qo‘yib ko‘chirish; bu so‘zlardan har biri qanday ma‘no ifodalashini tushuntirish.

Sof ko‘makchilarning vazifasi va ma‘nosi ustida ishlash.

Ajratilgan ko‘makchilarni –dan, -ga, -da qo‘shimchalaridan mosi bilan almashtirib, gaplarni ko‘chirish: bu gaplarni o‘zaro qiyoslab xulosa chiqarish.

-gacha, -dek, -day ko‘makchi-qo‘shimchalarining ma‘nosi va imlosi ustida ishlash. –gacha va qadar ko‘makchilarining ma‘nosi va imlosi ustida ishlash.

Sof ko‘makchilar va ko‘makchi-qo‘shimchalarining kishilik va ko‘rsatish olmoshlari bilan birikish xususiyatlari haqida xulosa chiqarish. Berilgan gaplarda ajratilgan so‘zlarning qachon mustaqil so‘z va qaysi hollarda ko‘makchi ekanligini aniqlash.

Yarim ko‘makchilarning ma‘nosi, imlosi va vazifasi ustida ishlash.

Berilgan gaplarda deb, deya yarim ko‘makchilarini o‘rni bilan uchun, sababli, tufayli ko‘makchilaridan biri bilan almashtirish; ularni qiyoslab xulosa chiqarish.

Ko‘makchilar yuzasidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash. Matnda ko‘makchilarni ma‘nodoshlari bilan almashtirish.

Ko‘makchilar ma‘nodoshligi va vazifadoshligi xususida xulosa chiqarish.

Ko‘makchilarning turlari (ko‘makchi-qo‘shimchalar, sof ko‘makchilar, yarim

ko‘makchilar, ko‘makchi-bog‘lovchilar) hamda ko‘makilarning ma‘nodoshligi va vazifadoshligi yuzasidan sinf musobaqasi o‘tkazish.

Matnda ajratilgan bog‘lovchilarning ma‘no va vazifasini aniqlash.

Yakka va takror qo‘llanuvchi bog‘lovchilar ustida ishlash.

Teng bog‘lovchilarga oid ijodiy-amaliy ishlar. Berilgan so‘z va gaplarni bog‘lovchilar vositasida birlashtirish.

Bilan yordamchi so‘zining qo‘makchi va bog‘lovchi vazifasida kelishi.

Takror qo‘llanuvchi bog‘lovchilarning imlosi, talaffuzi va ma‘nosi ustida ishlash.

Birlashtiruv va ayiruv bog‘lovchilarining qo‘llanilishi.

Zidlov bog‘lovchilarining qo‘llanilishi, imlosi va talaffuzi ustida ishlash.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilarga oid ijodiy-amaliy ishlar.

Sabab, shart, aniqlov bog‘lovchilari ishtirokida gaplar tuzish: ularni o‘zaro qiyoslash asosida xulosa chiqarish.

Bog‘lovchilar yuzasidan egallangan bilimlarga asoslanib “Zukkolar o‘yini” o‘tkazish.

Berilgan gaplarni (Bog‘da o‘rik gulladi. Bog‘da o‘rik gulladimi? Bog‘da o‘rik gulladi-ku. Bog‘da o‘riklargina gulladi.) qiyoslash, ma‘no farqlarini, bu farq nima bilan berilayotganligini aniqlash. Yuklamalar izohi.

So‘zsimon va qo‘shimchasimon yuklamalar, ularning imlosi ustida ishlash.

Yuklamalarning ma‘no turlari. So‘roq yuklamalari, ularning imlosi, talaffuzi va qo‘llanilishi ustida ishlash. So‘roq yuklamali gaplarda tinish belgilari.

Ayiruv yuklamalari, ularning imlosi, talaffuzi va qo‘llanilishi ustida ishlash. Ayiruv yuklamali gaplarda tinish belgilari.

Ta‘kid yuklamalari, ularning imlosi, talaffuzi va qo‘llanilishi ustida ishlash. Ta‘kid yuklamali gaplarda tinish belgilari.

Kuchaytiruv yuklamalari, ularning imlosi, talaffuzi va qo‘llanilishi ustida ishlash. Kuchaytiruv yuklamali gaplarda tinish belgilari.

Berilgan ma‘rifiy matnni o‘qish: ajratilgan yuklamalarning imlosi va ma‘nosi ustida ishlash.

Yozma ish va uning tahlili.

Yordamchi so‘zlar yuzasidan takrorlash.

“Yordamchi so‘zlar” mavzusida sinfda “Topqirlar bellashuvi” o‘tkazish.

“Yordamchi so‘zlar haqida” ilmiy matnni o‘qish; matn mazmuni asosida savol-javob o‘tkazish.

MAVZU: № 17. GAPNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARINI O‘RGANISH.

REJA:

1. Sodda gap mavzusiga oid mashg‘ulotlarni o‘tish.
2. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
3. Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar haqida.

Adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” Toshkent 2006 yil (lotin).
2. To‘xliyev B, Inog‘omova R, Abdulahatova R “Darslik bilan ishlash metodikasi” Toshkent 2008 yil (kiril).
3. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2006 yil. (kiril).
4. To‘xliyev B “Adabiyot o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2006 yil.

“Zukkolik o‘yini” rejasi asosida sodda gap, uning turlari va tarkibiy qismlari haqida olingan oldingi bilimlarni takrorlash.

Ma’rifiy – tarbiyaviy matn tahlili asosida fe’l-keism, ot-kesim, bog’lama, kesimning shakllari mavzularini xotirlash. Sodda kesim va murakkab kesim. Bog’lamali va bog’lamasiz ot-kesimlar. Kesimning so‘z birikmalari, iboralar, kengaygan sifatdash, harakat nomi birikmalari bilan ifodalanishi. Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari. Matn va mashqlar asosida egali va egasiz gaplar haqida tushuncha hosil qilish. Eganing so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi. Egani tushirish mumkin bo‘lmagan holatlar. Yashiringan egali gaplar. Ularning ma’noviy va uslubiy xususiyatlari.

Egasiz gaplar. Matn va gaplarni qiyoslash asosida egasiz gaplarning imkoniyat va zarurat gaplari, atov gaplar, so‘z-gaplar turlarini ajratish va har bir tur ustida alohida ish.

Takrorlash. Gapda gap bo‘laklarining pog‘onaviy tobelanish qoliplari ustida ish. Hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi haqida oldingi bilimlarni takrorlash.

Sodda va murakkab hollar. Hollarning so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi. Holning ma’noviy turlari jadvali ustida ish.

Vositali to‘ldiruvchi va holning shaklan farqlanmaslik holatlari. Ilmiy matn ustida ish.

Vositasiz to‘ldiruvchi, uning so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi ustida ish.

O‘zga gapni (ko‘chirma gapni) kengaygan birikmalar bilan ifodalash. Vositali to‘ldiruvchi, ularda kelishik shakllari va ko‘makchilar ma’nodoshligi. Ot bilan ifodalanilgan bo‘lakning to‘ldiruvchilar bilan birikishi.

Matn tahlili asosida qaratqich aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilish. Qaratqichli va sifatlovchi aniqlovchilarning so‘z, so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi.

Izohlovchi. Sodda va murakkab izohlovchilar. Izohlovchilarni shaxs nomlari va shaxs otlari bilan ishlatilish xususiyatlari. Vaqt (yil, oy, kun) ni ifodalashda izohlovchilar. Murakkab izohlovchilar.

Ma’rifiy-tarbiyaviy matnni o‘rganish asosida yoyiq atov gaplar va yoyiq so‘z-gaplar ustida ish. Ixcham atov gaplarni yoyiq atov gaplarga aylantirish.

Ikkinchi darajali bo‘laklar mavzusini mustahkamlash. Zukkolik o‘yinlari, topshiriqlari va testlar ustida ish.

MAVZU: № 18. SODDA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHINI O‘RGANISH.

REJA:

1. Sodda gap mavzusiga oid yozma ishlar.
2. Sodda gap mavzusida rasm asosida hikoya qilish usullari.
3. Mavzuga oid mashg‘ulotlarni o‘yin – topshiriqlar asosida o‘tish.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2007 yil 1-son.
4. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2007 yil 5-son.
5. Abdulahatova R, Yusupova T, Dosanov K “Til ta‘lmida uzviylik va uzluksizlik” Toshkent 2008 yil.
6. Asqarova M va boshqalar “O‘zbek tili praktikumi” Toshkent 2006 yil (lotin).
7. Almatov T, Yodgorov Q, Pochayeva G “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (metodik qo‘llanma) Jizzax – 2006 yil (lotin).

Gap qurilishi va uning chizmasi tahlili asosida “Uyushiq bo‘lak haqida” tushuncha hosil qilish. Uyushiq bo‘laklar va so‘z qo‘shilmalari. Uyushiq bo‘laklar, ularning ohang va teng bog‘lovchilar bilan bog‘lanishi. Ma‘rifiy-tarbiyaviy matn tahlili asosida uyushgan ega, hol to‘ldiruvchi va aniqlovchilar ustida ish. So‘zlar, so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalangan uyushiq ega, hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi ustida ish. Kesimning uyushishidagi xususiyatlar. Uyushiq eganing xususiyati. Uyushiq bo‘laklarda umumlashtiruvchi qism. Uyushgan gap haqida ilk tushuncha. Testlar ustida ish.

Kiritmalarning gap mazmuniga va gap bo‘laklariga aloqasi. Kiritmalarning so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar, gaplar bilan ifodalanishi. Kiritmali gaplarda tinish belgilari va ohang.

Matn tahlili asosida undalma, uning sodda va murakkab turlari, undalmalarning so‘z, so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi. Undalma va egani farqlash ustida ish. Undalmali gaplarda tinish belgilari.

8-sinf bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar:

1. O‘qish san‘ati bo‘yicha: barmoq vaznida yozilgan she‘rni iofdali (taktlarga ajratib) o‘qiy olish. She‘rning vazn va ohangiga rioya qilish.

2. Fikrni bayon etish mahorati bo‘yicha:

Bu sinfda baho me‘yorlari va o‘lchamlari matnning mavzu doirasidagi mantiqiy izchilligi, fikrning tugalligi, maqsadga muvofiqligi, ona tili ifoda vositalaridan

foydanala olish malakalari, uslub talablariga rioya qilinishi, matnda imloviy va uslubiy savodxonlik darajasi, o'quvchining mustaqil fikrlay olish ko'nikmalari bilan belgilanadi.

MAVZU: № 19. 9-SINF ONA TILI DARSLIGIDA QO'SHMA GAP TURLARINI O'RGANISH.

REJA:

1. Bog'langan qo'shma gaplarni o'tish.
2. Ergashgan qo'shma gaplarni o'tish.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni o'tish.
4. Murakkab qo'shma gaplarni o'tish.

Adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent 2006 yil (lotin).
2. To'xliyev B, Inog'omova R, Abdulahatova R "Darslik bilan ishlash metodikasi" Toshkent 2008 yil (kiril).
3. To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2006 yil. (kiril).

Dunyo tillari orasida o'zbek tili. "Dunyo tillari va o'zbek tili" matnini o'rganish asosida tillar oilalari, hind-yevropa tillari oilasi, turkiy tillar oilasi, va b.lar haqida tasavvur hosil qilish. Turkiy tillarning asosiy guruhlari. O'zbek tilining bu oiladagi o'rni haqida tasavvur hosil qilish.

Mazkur matnda ajratilgan qsmlarning tahlili asosida "Sodda gap" mavzusini takrorlash.

Qo'shma va sodda gap orasidagi asosiy farqlar to'g'risidagi oldingi bilimlarni matn tahlili asosida takrorlash. Berilgan matnni o'rganish asosida teng bog'lovchilarni va ergashtiruvchi bog'lovchilarni takrorlash. Shu matn asosida yuklamalar, nisbiy so'zlar va faqat ohang bilan bog'langan gaplarni ajratish. Qo'shma gaplar, ularni biriktiruvchi vositalariga ko'ra tasnifi haqida tushuncha hosil qilish. Qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalar asosidagi tasnifi:

1. Teng bog'lovchili qo'shma gaplar.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar.
3. Yuklamali qo'shma gaplar.
4. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar.
5. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Teng bog'lovchili qo'shma gaplar.

Berilgan matn tahlili asosida teng bog'lovchili qo'shma gaplarni aniqlash, ularning biriktiruv bog'lovchili, zidlov bog'lovchili, ayruv bog'lovchili turlarini aniqlash. Turli xildagi teng bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplar orasida ma'naviy o'xshashlik va farqlar. Bu gaplarda tinish belgilari va ohang ustida ish.

Berilgan matnni o'rganish asosida ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarni ajratish. Ularni sodda gaplarga aylantirish asosida hokim gap va tobe gap haqida

tushuncha hosil qilish. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'naviy xususiyatlari asosida hokim gap va tobe gap orasidagi ma'naviy munosabatlar ustida ish. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarni matnda mustaqil qo'llash ustida ijodiy ish.

MAVZU: № 20. NUTQ USLUBLARI HAQIDAGI MASHG'ULOTLARNI O'RGANISH.

REJA:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Publisistik uslub.
3. badiiy uslub.
4. Ilmiy uslub.
5. Rasmiy uslub.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2007 yil 1-son.
4. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2007 yil 5-son.
5. Abdulahatova R, Yusupova T, Dosanov K "Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik" Toshkent 2008 yil.
6. Asqarova M va boshqalar "O'zbek tili praktikumi" Toshkent 2006 yil (lotin).
7. Almatov T, Yodgorov Q, Pochayeva G "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (metodik qo'llanma) Jizzax – 2006 yil (lotin).

Berilgan matnni o'rganish asosida yuklamali qo'shma gaplarni ajratish. Yuklamali qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari orasidagi ma'naviy munosabatlar. Yuklamalardagi ma'naviy nozikliklar va ularning qo'shma gap ma'nosiga ta'siri ustida ish. Yuklamali qo'shma gaplarda imlo, tinish belgilari va ohang.

Berilgan matnni o'rganish asosida nisbiy so'zli qo'shma gaplarni ajratish va ularning tarkibiy qismlari orasidagi ma'naviy munosabatlarni tahlil etish. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar tarkibiy qismlari orasida hokim-tobelik munosabatlari ustida ish. Nisbiy so'zlar juftliklari qatori va ular ishtirokida qo'shma gaplar tuzish. Nisbiy so'zli qo'shma gaplarda imlo, tinish belgilari va ohang.

Berilgan matnni o'rganish asosida faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni ajratish. Bunday gaplar tarkibiy qismlarining o'zaro ma'naviy munosabati ustida ish. Bu gaplarda vergul, tire, nuqtali vergul va ikki nuqtaning qo'llanilishi,

ulardagi ohang ustida ish. Gaplarning tarkibiy qismlari orasidagi hokim-tobelik munosabatlari ustida ish.

Mustaqil ijodiy ish qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi va vazifadoshligi. Mustaqil ijodiy ish asosida bir xil axborotni xilma-xil usullarda bog'langan qo'shma gaplar vositasida berish.

Qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish va qo'shma gap tarkibiy qismlarining gapning boshqa bo'laklariga munosabati asosida kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, to'ldiruvchi tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli qo'shma gaplarga ajratish. Bunday qo'shma gaplarda uyushiq gaplar. Hol tobe gaplarning ma'noviy munosabatlari ustida ish.

“O‘zbek yozuvlari tarixi” matnini o‘rganish va matnda qo‘llanilgan qo‘shma gap tahlili asosida “qo‘shma gap” mavzusi bo‘yicha olingan bilim va malakalarni mustahkamlash.

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘rov, buyruq gaplar. Ritorik so‘roq gaplar ustida ish. Bu gaplarda tinish belgilari va ohang.

Ko‘chirma gapli qurilmalar. Ularda ohang va tinish belgilari.

O‘quv yili oxirida takrorlash, testlar ustida ish.

MAVZU № 21. HIKMAT DURDONALARIGA OID MAVZULARNI O‘RGANISH.

REJA:

1. Xalq maqol va topshiriqlari.
2. Imom al-Buxoriy xadislari.
3. Ezop va masalalari va ularning ibratlari haqida

Adabiyotlar:

1. . Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2007 yil 1-son.
4. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf adabiyot darsligi,.. “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007 yil.

Xikmat durdonalariga oid mavzular uchun darslikda 7 soat berilgan. (bo‘lib, shunlardan 1 soat) Adabiyot – so‘z san’ati 1 soat.

(Maqolalar).

Ushbu mavzuni o'tishda adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Uning estetik – tarbiyaviy ahamiyati, so'zning ifoda imkoniyatlari batafsil bayon etiladi.

Maqolalar mavzusiga ham 1 soat ajratilgan bo'lib, maqolalar haqida ma'lumotlar beriladi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lgan maqolalardan namunalarni o'qib, mazmunini o'rganishadi. Maqolalarning mazmuniga oid ko'rgazmali qurollardan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Maqolalarning kishilarning vatanparvarlik, mehnatsevarlik va boshqa ruhiy-ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat etishdek qirralarini o'rganish.

Topishmoqlar mavzusiga 1 soat berilgan. Barcha xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli qiziqarli va o'ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba'zan "topmacha", "jumboq", "matal" deb atalgan. Mumtoz adabiyotda ular "chiston" ham deyiladi. Bu kabi ma'lumotlarni batafsil to'ldirib berish maqsadga muvofiq.

Topshimoqlardan namunalar keltirib darslikdan tashqari 5-sinf o'quvchilarga mos topishmoqlar topib, ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Misol uchun:

Otasi uzun xo'ja

Onasi yoyma xotin

Bolasi shirin-shakar.

Topishmog'i uchun hovlida o'sib turgan tokning rasmini ko'rgazmali qurol sifatida ko'rsatish mumkin. Bunda o'quvchi bir oz o'ylanadi, chunki rasmda ham hovli, ham tok, ham hovlidagi boshqa o'simliklar aks etgan bo'ladi.

Imom al – Buxoriy – Hadislar mavzusiga – 2-soat ajratilgan.

Ushbu mavzun o'tishda islom dunyosining eng mashhur kishilaridan biri sanalgan Imom al-buxoriy haqida va uning "Al-jome – as-sahih" nomli kitobi haqida ma'lumotlar bayon etiladi. Darslikda 5-sinf o'quvchisi yoshiga mos hadislardan namunalar berilgan. Ularni tushuntirishda ko'rgazmali vositalar masalan: "Ilm o'rganmoq va ilm o'rgatmoqning fazilati haqida"gi hadisini o'rganishda shu mavzu doirasidagi bukletlardan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, hadis haqida muhoddisar haqida ham to'liq ma'lumotlar berish kerak. Ezop masalalari va ularning ibratlari haqida.

Ushbu mavzu 1 soatga mo'ljallangan bo'lib, unda ezop ijodining asosini tashkil etuvchi masalalari haqida ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiq.

Bizga ma'lumki ezop miloddan avvalgi 6 asrda qadimgi Yunonistonda yashab ijod etgan quldorlik tuzumi davrida yashagan donishmand qul bo'lgan. U o'z hayoti davomida ko'rgan-kechirganlarini o'z ahlu zakovati va donishmandligi bilan masal qilib hikoya qilib yurgan. Shu tariqa donishmand qul masalalari mashhur bo'lib ketgan. Uz davrida "ezop masalalari" nomi ostida uning 500ga yaqin masallari kitob qilib chiqarishgan.

Darslikda Ezop masalalaridan namunalar keltirilgan. Ularning barchasi yosh avlodning hayotida nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. xalq og'zaki ijodining 5-sinf o'quvchilariga ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'zlang.
 2. Topishmoq va chistonning bir – biridan (aloqadori) farqi nimada.
 3. 5-sinf o'quvchisiga Imom al-Buxoriy hadislarini o'rganish qiyinlik qilmaydimi.
 4. Masal haqida tushuntiring.
- Ularning tarbiyaviy ahamiyati bormi?

MAVZU №22. RIVOYAT VA ERTAKLAR OLAMIGA OID MAVZULARNI O'RGANISH

REJA:

1. “To‘maris” va “Shiroq” rivoyatlari
2. O‘zbek xalq ertaklari (Uch og‘a-ini botirlar, susambil)
3. Hamid Olimjon (Oygul bilan Baxtiyor).
4. Maqsud Shayxzoda (Iskandar Zulqarnayn).
5. Shukurullo (Umr haqida ertak).
6. Xans Kristian Andersen (Bulbul)

Adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi 1999 yil 1-maxsus son.
2. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2005 yil 4 – son.
3. Takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali 2007 yil 1-son.
4. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf adabiyot darsligi., “Sharq” nashriyoti Toshkent 2007 yil.

Rivoyat va ertaklar olamiga oid mavzularni o‘rganish uchun darslikda 20 soat berilgan, shundan 3 soatdan 6 soat “To‘maris” va “Shiroq” rivoyatlari uchun. Ushbu mavzularni o‘qishda afsona va rivoyatlar haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

“To‘maris”-jasur, mard ayol haqidagi qadimgi Shraq afsonalaridan biridir. Bu afsona mashhur yunon tarixchisi Gerodotning “tarix” asari orqali bizagcha yetib kelgan. 20 asr adabiyotida To‘maris haqida ko‘plab zamonaviy asarlar yaratilgan bo‘lib, misol uchun Mirkorim Osim tomonidan yaratilgan “To‘maris” qissasida ona qalbining cheksiz qirralari ifodalangan.

“Shiroq” – vatan fidoiysi, xalq qahramoni timsoli sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. “Shiroq” afsonasi Yunon tarixchisi Polienning “Harbiy hiylalar” kitobida keltirilgan va u haqidagi afsonalar tarixiy hisoblanadi. Ushbu afsona haqida ham zamonaviy adabiyotimizda ko‘plab doston va hikoyalar yaratilgan bo‘lib, M.Osimning Shiroq haqidagi hikoyasi bunga yaqqol misoldir.

O‘zbek xalq ertaklari turkumidan “Uch og‘a-ini botirlar” va “Susambil” ertaklari berilgan bo‘lib, 4 soatga mo‘ljallangan.

Ertak-xalq og'zaki ijodining keng sharqlangan janridir. Ushbu mavzularni o'tishda ertaklarning ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyati haqida muhtasar ma'lumot berish lozim. Darslikda berilgan 2 ta ertak ham xalq ertaklarining xilma-xil turlaridan namunalar sanaladi. Har bir ertak betakror badiylikka ega bo'lib, ularda xalq ijodiy – badiiy dahosi, fantaziyasi, sehri olami yorqin namoyon etilgan ertaklardan inson va jonivorlar obrazlarining mohiyati: til, badiiy ifoda xususiyatlari odamlar uchun ma'naviy-ahloqiy saboq bo'la oladi.

H.Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni uchun 3 soat ajratilgan. 1-soatda shoir hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shundan so'ng hamon 2 soatda ertak-doston o'qib o'rganiladi. Ertakni o'qib-o'rganish jarayonida uning g'oyaviy mazmuni haqida ma'lumotlar beriladi. Ertakdagi asosiy timsollar, ular o'rtasida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash uni harakatga keltiruvchi kuchdir.

“DTS ASOSIDA MAKTAB DARSLIKLAR BILAN ISHLASH” FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etilishi

Reja:

1. Ona tili ta’limining maqsad va vazifalari;
2. Ta’lim mazmunining majburiy minimumi;
3. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar.

2. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi

Reja:

1. Maktabda ona tili o‘qitishning vazifalari va maqsadlari.
2. Ona tili fanining tarkibiy qismlari va tuzilish asoslari.
3. Dasturda o‘zbek tili qurilishining talqinidagi o‘zgarishlar.
4. Ona tilidan yangi dastur va darsliklarning konseptual asoslari.

3. Adabiyotdan ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish haqida.

Reja:

1. Adabiy ta’limning umumiy tavsifi.
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiy ta’limi mazmuni ko‘rsatkichlari.
3. O‘quvchilarning tayyorgarlik darjasini aniqlash.
4. Adabiy ta’lim bo‘yicha 1X sinf bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar.

4. 5-sinf “Ona tili” darsligida berilgan matnlarni o‘rganish.

Reja:

1. Sintaksisga oid matnlarni tahlil qilishni o‘rganish.
2. Morfologiya va imlo bo‘limdagi matnlarni tahlil qilishni o‘rganish.
3. Leksikologiya bo‘limiga oid mavzulardagi matnlarni o‘rganish.
4. Fonetika bo‘limiga oid mavzulardagi matnlarni o‘rganish.

5. 6-sinf “Ona tili” darsligidagi matnlarni o‘rganish.

Reja:

1. “So‘z yasash” bo‘limiga oid matnlar tahlili.
2. “Morfologiya” bo‘limiga oid matnlar tahlili.
 - A) Fe’l – so‘z turukmi bo‘yicha.
 - B) Ot- so‘z turukmi bo‘yicha.
 - V) Sifat - so‘z turukmi bo‘yicha.
 - G) Son - so‘z turukmi bo‘yicha.
 - D) ravish - so‘z turukmi bo‘yicha.

6. 7-sinf “Ona tili” darsligidagi matnlarni o‘rganish.

Reja:

1. “Olmosh” so‘z turukmiga oid mavzularda berilgan matnlar tahlili.
2. Yordamchi so‘z turukmiga oid mavzularda berilgan matnlar tahlili.
3. Undov, taqlid va modal so‘zlarga oid mavzularda berilgan matnlar tahlili.

7. 8-sinf “Ona tili” darsligidagi matnlarni o‘rganish.

Reja:

1. Ijodiy matn ustida ishlash.
2. Mar’rifiy – tarbiyaviy matnlar ustida ishlash.
3. Matn tahlili asosida gap bo‘laklarini o‘rganish.
4. Matn tahlili asosida undalma va kiritmalarni o‘rganish.

8. 9-sinf “Ona tili” darsligiga mavzular oid matnlarni o‘rganish.

Reja:

1. Matn asosida teng bog‘lovchi va ergashtiruvchi bog‘lovchilarni o‘rganish.
2. Matn asosida faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘rganish.
3. Matn asosida nisbiy so‘zli qo‘shma gaplarni o‘rganish.
4. Matn asosida yuklamali qo‘shma gaplarni o‘rganish.

9. 5-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan ertaklarni tahlil qilishni o‘rganish.

Reja:

1. Ertakning betakror badiiy olami haqida ma’lumot.
2. Ertaklardagi inson va jondorlar obrazlarining mohiyatini o‘rganish.
3. Ertaklardagi til, badiiy ifoda xususiyatlarini tahlil qilish.

10. “Adabiyot” darsliklarida berilgan nazariy ma’lumotlarni o‘rganish.

Reja:

1. Afsonalar haqida tushuncha.
2. Ruboiy va qit’alar haqida tushuncha.
3. badiiy asardagi milliylik haqida tushuncha.
4. Hikoyalar haqida tushuncha.
5. Qasida haqida tushuncha.
6. Adabiy ertaklar haqida tushuncha.
7. Sarguzasht asarlar haqida tushuncha.
8. Ramziy obrazlar haqida tushuncha.
9. Badiiy asar tili haqida tushuncha.
10. Nasriy asarlar haqida tushuncha.
11. She’riy nutq haqida tushuncha.
12. She’riy san’atlar haqida tushuncha.
13. Ko‘chimlar haqida tushuncha.

Адабиёт 6- синф

1. “Бола – учқур хаёл эгаси” бўлимидаги мавзулари ўрганиш.

Режа:

1. Маънавият хазинаси.
2. Ғ.Ғулом.
3. Т.Тўла.
4. Х.Тўхтабоев.
5. Ж.Родари

Адабиётлар

- 1.
- 2.
- 3.
4. С.Аҳмедов, Р.Қўчқоров, Ш.Ризаев.

6-синф адабиёт дарслиги, Тошкент “Маънавият” 2009 йил. “Бола учқур хаёл эгаси” бўлимидаги мавзулар учун 13 соат берилган.

1. Маънавият хазинаси – 1 соат.

“Маънавият хазинаси” мавзусини ўтишда дарсликдаги ушбу мавзули матн ўрганилади. Яъни адабиёт маънавият хазинаси эканлиги ёритилади.

Бадиий адабиёт ва ёшлар маънавияти бир-бири билан нечоғлик боғлиқлигига урғу берилади. Адабиёт асарларнинг шахсни шакллантиришдаги ўрни, комил инсон тарбиясида китобнинг аҳамияти ҳақида батафсил маълумотлар фикрлар баён этилади.

Адабиёт одоб сўзидан олинганлиги ҳам бежиз эмаслиги, мамлакат равнақи ва халқ фаровонлигини таъминлашда бадиий адабиётга муҳаббат ҳам қилувчи аҳамиятга эга каби тушунчаларга ойдинлик киритиш дарс самарадорлигини оширади.

Мавзу дарсликда берилган савол ва топшириқлар билан мустаҳкамланади. Ғофур Ғулом “Шум бола” (қиссадан парча) мавзусига 4 соат ажратилган. Бунда адиб ҳаёти ва ижодига оид дарсликдаги маълумотлар билан бирга ўқувчилар ёш хусусиятидан келиб чиқиб адиб ҳаётидан қизиқарли маълумотлар топиб айтилса мақсадга мувофиқ бўлади.

“Шум бола” қиссаси ҳақида унумлий маълумот бериб ўтиб, дарсликдаги берилган парча ўқувчилар томонидан ифодали ўқилади. Ўқувчиларга тушунарли бўлиши учун дарсликдаги парчадан аввалги боблари ўқитувчи томонидан сўзлаб берилса ўқувчи тушунарли ва қизиқарли бўлади.

Парча ўқиб бўлингач, асар ҳақида фикр билдирилади. Албатта, ўқувчиларнинг мустақил фикрлари тинглангач.

Асар ҳақидаги билимлар савол ва топшириқлар билан мустаҳкамланади.

Қисса ҳақида назарий маълумот беришда бадиий асарлар уч катта гуруҳга –эпик, лирик ва драматик турларга ажралиши ҳақида сўз юритиб, қисса жанри ўрта эпик жанрга мансублиги айтилади.

Туроб Тўла “Етти зоғора қиссаси” асаридан “Дўнак” ҳикояси 2 соатга мўлжалланган.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби, Ўзбекистон халқ шоири туроб Тўла ҳаёти ва ижоди ҳақидаги маълумотлар баён этилаётганда адабнинг ижодий фаолияти 15-16 йшларда бошланиб илк шеъррий тўплами “Шеърлар” номи билан чоп этилганлиги ҳақидаги қизиқарли маълумотлар билан бойитиши лозим.

Серқирра ижодий фаолият соҳиби Туроб Тўланинг ёш ўқувчи дўстларига ажойиб совға сифатида 1981 йилда “Етти зоғора қиссаси” номли насрий асарни эълон қилади.

Ўқувчилар ёш хусусиятига мос ушбу асар ҳақида назарий маълумот бериб “Дўнак” ҳикояси мутолаа қилинади.

Асарни мутолаа қилиш билан бирга унинг ўқувчиларга тарбиявий аҳамияти ҳақида ҳам тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ. Зеро истеъдодли адиб туроб Тўланинг “Етти зоғора қиссаси” ва ундан жой олган “Дўнак” ҳикояси сизу бизнинг дунёқарашимиз, дидимиз, инсоний туйғуларимиз бойишига таъсир қилиш билан қадрлидир.

Х.Тўхтабоев “сарик девни миниб” асаридан парча 4 соатга мўлжалланган. Бугунги ўзбек адабиётининг етакчи вакилларида бири Х.Тўхтабоев ҳаёти ва ижоди ҳақида назарий маълумотлар берилади.

“Сарик девни миниб” романи ҳақида: роман қаҳрамони 6-синф ўқувчиси Ҳошимжон саргузаштлари унинг ёш хусусиятидан, образ табиатидан келиб чиққанлиги ҳақида батафсил тўхталиб ўтилади.

Ҳошимжон табиатидаги асосий қусурлар: ялқовлик ва интизомсизлик қаҳрамон тақдирига қанчалик таъсир кўрсатди? Қалпоқча ёрдамида “Улғайган” ва турли мутахассисликларни эгаллаган Ҳошимжоннинг нима учун ҳар сафар чув тушди?

Қаҳрамон табиатининг ёқимли ва нохуш жиҳатлари ҳамда улар ўртасидаги алоқадорлик нимада? каби саволларга ойдинлик киритиш орқали асар ўқувчилар онгига ижобий таъсир кўрсатади.

Саргузашт асарлар туркумига кирувчи “сарик девни миниб” аари ҳақида маълумот бериш билан бирга, саргузашт асарлар қизиқарли бўлиши, ажойиб-ғаройиб воқеаларга бой бўлиши туфайли китобхон дунёқарашни, фантазиясини ўстиришга хизмат қилиши ҳақида батафсил маълумотлар берилади. Жумладан “Ж.Свифтнинг”, “Гулмивернинг”, “Саёҳатлари”, “Даниэл Деоронинг”, “Робинзон Крузо” китоблари ҳам саргузашт асарлар саналади. Ж Родари “Учтадан охири бор эртақлар” ҳамда “Рим эртақлари” 2 соат ажратилган. 20 аснинг энг машҳур эртақчилардан бири Ж.родари ҳақида маълумот бериб ўтилади. Унинг “Рим эртақлари” асари ва “Учтадан охири бор эртақ” туркуми тўғрисида, жаҳон эртақ туркуми жаҳон

эртакчилигидан асарлари янгилик эканлиги, яъни бир эртакнинг уч хил якун топиши ва унинг бола ҳаётига таъсири ҳақида маълумотлар берилади. Эртакнинг тарбиявий аҳамиятидан келиб чиқиб 4-туғашини ўқувчиларга вазифа қилиб бериш ва натижани биргаликда муҳокама қилиш лозим.

Мустақил ўқиш унинг: Ж.Родарнинг “Телефонда айтилган эртаклар” туркумидан “Қутбдаги гунафша”, “Ҳеч қаёққа олиб бормайдиган йўл” эртаклари ўқиш.

Мустаҳкамлаш учун савол ва топшириқ.

1. “Адабиёт-атомдан кучли, лекин унинг кучини ўтин ёришга сарфламаслик керак” ёзувчи А.Қаҳҳорнинг гапини изоҳлаб беринг.

2. 5-синфда берилган Ғ.Ғуломнинг “менинг ўғригина болам” ҳикояси билан “Шум бола” қиссасининг қандай умумий жиҳатлари бор?

3. “Шум бола” асари асосида яратилган кинофилм ёки спектакллар ўша асар билан бир хил бўлши керак, деб ҳисоблаймизми?

4. “Дўнан” асарида сизга энг кучли таъсир қилган эпизод қайси бўлди?

5. “Сариқ девни миниб” романининг тарбиявий аҳамияти ҳақида сўзланг.

6. Жанни Родари эртакчиликка киритган енгиллиги нима?

2. Кечаги кун сабоқлари бўлимидаги мавзуларни ўрганиш. (15 соат)

Режа:

1. Муқумий
2. А.Қаҳҳор.
3. Одил Ёқубов.
4. Э.Воҳидов.
5. Ў.Ҳошимов.
6. Саид Аҳмад.
7. Муса Жамил

Адабиётлар

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

Кечаги кун сабоқлари бўлимидаги мавзуларни ўрганиш учун 13 соат ажратилган.

1. Муқумий “Танобчилар” 2 соат муқумий ҳаётига оид маълумотлар айтиб ўтиб, ижодига тўхталиш лозим. “Танобчилар” ҳажвида фойдахўр,

имониз ва ёлғончи кимсалар тасвири баён этилиши ва таҳлил этилиши керак. Ҳажв қаҳрамонлари султон Али ва Ҳакимжоннинг даъволари билан моҳиятлари ўртасидаги кескин зиддият туфайли туғиладиган ҳажвий кулги таҳлил этилиши лозим. Асар ўқиб ўрганилгандан сўнг дарсликда берилган назарий маълумот Ҳажвий асар ҳақида тушунча ҳам батафсил ўрганилиши лозим.

2. А.Қаҳҳор. “бемор” ҳикояси 2 –соат. Ёзувчининг ҳаёт йўли ҳақида мхтасар маълумот берилади. А.Қаҳҳор ижоди ҳақида маълумот бериш давомида ҳикоячилик ёзувчи ижодининг асосий хусусиятлари намоён бўлган соҳа эканлигига алоҳида тўхталиш лозим. “Бемор” асарининг адиб ҳикоянавислигида тутган зрни, унинг бадиий хусусиятлари ҳақида тўхталиб ўтиш лозим. Асарнинг бадиий тасвир маромидаги ўзига хослиги, ҳикоя оҳанги, образлар таҳлил этилади.

“Бемор”- иложсизлик, қашшоқлик инсонни қанчалар хўрлаши мумкинлигининг бадиий ифодаси сифатида баён этилган асар сифатида, бемор тимсолида меҳрибон онага хос хусусиятларни таъсирли акс эттириши таҳлил этилиши лозим.

Назарий маълумот: бадиий асар тили ҳақида тушунча. Бунда асосан тил билан боғлиқ бўлган 3 та туриунча ҳақида маълумотга эга бўлиш лозим.

1. Умумхалқ тили.
2. Адабий тил
3. Бадиий тил.

3. О.Ёқубов. “Музқаймоқ” 2- соат.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси О.Ёқубов ҳақида қисқача маълумот баён этиш лозим.

Адиб ҳикояларининг инсон руҳиятига таъсир даражасини “Музқаймоқ” ҳикояси орқали билиб олиш мумкин. “музқаймоқ” ҳикоясида ёнғон эътиқод туфайли бола руҳиятида рўй берган маънавий эърилишларнинг ҳаққоний акс эттирилганлигини кўрсатиш лозим. Нотўғри эътиқод, кўр-кўрона сиёсий ақидапарастлик дўстдан думман, ҳалол одамдан тухматчи яшаш мумкинлиги ҳикояда ишонарли тарзда тасвирланган. Ҳикоячи хотирасида чуқур из қолдирган болалик даври фожиаси чигал ва англатиш мушкул муаммо эканлиги кўрсатиб ўтилган. Боланинг ноғоралар маршини эшитгандаги ҳолатининг маҳорат билан кўрсатилганлиги адиб қаламининг ўткирлигидан далолатдир. Ҳикояда одам туйғуларини бирёқлама тушуниш ва тушунтириш мумкин эмаслиги таҳлил этилиши лозим.

4. Э.Воҳидов. “Нидо” (3-соат)

Шоир ҳаёти ва жод йўли ҳақида қисқача маълумот берилади. “Нидо” достони ҳақида фикр юритганда куйидагиларга эътибор қаратиш лозим

достонда инсоният бошига тутган энг улуғ фалокат-иккинчи жаҳон уруши келтирган болаларнинг мўрғак ўсмир тақдирида қолдирган изнинг акс этириши; достонда бола табиатининг ғоят нозик ва аниқ чизилган; унинг руҳиятига хос жиҳатлар ҳаққоний тасвирланган. Достонни ўқиб ўрганиш 3 оатга мўлжалланган. Бунда 1-соатида ўқиб таҳлил қилиш лозим. Қолган 2 соатида достон ўқувчилар томонидан ёд олиниб, ифодали ўқишиши, ифодали ўқиш мусобақаларини ўтказиш лозим.

Дарсда ноанъанавийлик сифатида достондан парча саклаштириши ҳам мумкин.

5. Ў.Ҳошимов. “Уршнинг сўнги қурбони” (2-соат)

Катта истеъдод эгаси, Ўзбекистон халқ ёзувчиси, “Меҳнат шуҳрати” ва “Буюк хихматлари учун” орденлари соҳиби Ўткир Ҳошимов ҳаёт йўли ҳақида фикр юритганда ўзига хос, ижодига лойиқ калималар билан эътироф этиш жоиздир.

Адиб ижодидан ўрин олган ҳикоялардан бири бу “Урушнинг сўнги қурбони”дир. Ушбу асарда қийинчилик инсон маъновиятини синовдан ўтказиш воситаси эканлиги маҳорат билан кўрсатилган.

Ҳикояда уруш воқелиги ҳаққоний тасвирланган. Йўқчилик болани онадан оғани инидан овутганлигининг таъсирчан ифодаланишини таъкидлаб ўтиш лозим.

Ҳикоядаги Шоикрам Шонемат, Ҳадича ҳамда Умри хола образларига хос хусусиятлар таҳлил этилиши лозим.

Ҳикояни ўрганишда образлар таҳлил этилиш билан бирга, асардаги диомоглар, образларни талқин этган ўқувчилар тамонидан ифодали ўқилса мақсадга мувофиқ бўлади.

6. саид Аҳмад. “Қоплон”, “Собиқ” (2-соат)

Ўзбекистон халқ ёзувчиси саид Аҳмад ҳақида маълумот берилади. Адибнинг босиб ўтган ҳаёт йўлида қолдирган “чуқур излар” ҳақида ва бунинг самараси бўлган асарлари, қўлга киритган мувоффақиятлари ҳақида батафсил маълумот берилади.

Адиб ижодидан ўрин олган дарсликда берилган бўлиб, ҳикоялардан “Қоплон” ва “Собиқ” ҳикоялари улар ўқувчиларга сўзлаб берилса ва ўқувчилар ўзлари таҳлил қилишса мақсадга мувофиқ бўлади.

“Қоплон” ҳикоясида лаганбардор ва манфаатпараст кимса табиатига хос иллатлар тасвирланган. Ҳикоядаги Қурбонбой ва Қоплон тимсолларини таққослаб баҳолаш зарур.

“Собиқ” ҳикоясида ишлаб чиқаришни мафкурага мослаштирган жўролар тузуми тартиботининг муайян шахс тақдирида намоён бўлиши тасвирланган.

Хикоялар тил хусусияти, уларда муаллиф нуқати назари яширин ифодалангандир. Ўқувчилар хикоялар ўқиб, ўрганишгач суҳбат методидан фойдаланиб билимларини синаш лозим.

Назарий маълумот: бадий асарда кулги ҳақида тушунча.

Бу ҳақида маълумот беришда бадий асардаги кулги мутахассислар томонидан 2 йўналишига сатира ва юморга ажратилиши ҳақида тўхталиб ўтиш лозим.

7. Муса Жамил “Ишонма” (2-соат)

Адиб ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида тўлиқ маълумот бериш лозим. Унинг ижодидан ўрин олган шеърларни топиб ўқитувчи томонидан таҳлил қилиниши ўқувчиларда чет эл адибларининг ижодига бўлган қизиқишини, ҳурматини оширади.

Серқирра ижод эгаси шоир Муса Жамилнинг “Ишонма” шеъри ўқувчилар томонидан ёдланиши ва ўқитувчиси ёрдамида таҳлил қилиниши лозим.

Мавзу юзасидан мустаҳкамлаш учун савол ва топшириқлар.

1. Муқумий адабий мероси қайси жанрлардан иборат? Уларнинг ҳажми қанча мисрадан иборат?

2. “Танобчилар” асарининг яратилишига нима сабаб бўлди?

3. А.Қаҳҳор ҳаёти ва ижодига хос бўлган асосий жиҳатлар деб нималарни биласиз?

4. “Бемор” хикояси орқали ёзувчи акс эттирган ҳаёт ҳақиқати нималардан иборат эди?

5. “Музқаймоқ” хикоясида қайси давр воқеалари акс этган?

6. Шоир Э.Воҳидовнинг қандай шеърий тўпламларини биласиз?

7. Шоир “Нидо” достони орқали айтмоқчи бўлган энг асосий муддао нима?

8. “Урушнинг сўнгги қурбони” хикояси қаҳрамонларининг хатти – ҳаракатларини таҳлил қилинг.

9. Сизнингча “Қоплон” хикоясини ёзишга ёзувчини нималар ундаган?

10. “Собик” хикояси қаҳрамони қандай одам деб ўйлайсиз?

11. Хикояда раис образига таъриф беринг.

12. муса жамил ҳаёти ва ижоди қандай даврда кечди?

13. “Ишонма” шеърида шоирнинг қандай кечинмалари бадий ифодаланган?

3. Сўзга ҳикмат бор бўлимидаги мавзуларни ўрганиш.

Режа:

1. Халқ кўшиқлари (2-соат)

2. Алишер Навоий (3-соат)

3. Муҳаммадмариф Гулҳаний (3-соат)

4. Аваз Ўтар (1с)+1с=2с

5. Абай (1с)+1с =2с

Адабиётлар рўйхати

Сўзга ҳикмат бор бўлимидаги мавзуларни ўрганишга 12 соат ажратилган ва у куйдагидек тақсимланган.

1. Халқ кўшиқлари 2-соат. Бу мавзунини ўқишда кўшиқ ҳақида тушунча берилади. Кўшиқлар яратилиш манбаи, тингловчиларнинг қайси қатламга бағишлангани, мавзуларига кўра ҳар хил бўлиши ҳақида батафсил маълумот бериш лозим.

Халқ кўшиқларининг турлари ҳақида, уларнинг аҳамиятига эга томонларини тушунтириш мақадга мувофиқ бўлди. Дарсликда халқ кўшиқларидан “Бойчечак”, “Читтигул”, “Бошгинам оғрийди” каби намуналар келтирилган. Ўқувчиларга тушунарли ва қизиқарли бўлиши учун кўшиқларни образли қилиб ижро этиш лозим: синф кўшиқ мазмунига мослаб сахна безаклари билан безатилса ва ўқувчиларнинг ўзлари тамонидан ижро этилиши керак.

Кўшиқлар таҳлил этилаётганда: лирик кўшиқлар инсон ҳис-туйғуларини акс эттиришдаги энг таъсирчан воситадир, уларда ўзбекона тимсолларнинг нафис ва назокатли тасвирлар воситасида берилганлигига эътибор бериш лозим.

Кўшиқ рамзлар воситасида оҳанглар орқали инсоний туйғуларни ифодаловчи жангдир. Назарий маълумот: Кўшиқ ва унинг турлари ҳақида тушунча.

2. А.Навоий “Маҳбуб ул-қулуб”дан... (3-соат). Буюк сўз санъаткори, сўз мулкининг султони А.Навоий ҳаёт ва ижоди ҳақида маълумот берилади. Дарсликда “Маҳбуб ул-қулуб” асаридан олинган намуналар ҳам назмий, ҳам насрий баёни берилган. Ушбу намуналарнинг ўзиёқ буюк мутафаккирнинг ҳам шеърий, ҳам насрий услубда бирдек юксак асарлар ярата олиш қобилиятига эга бўлганлигини кўрсатади. Ҳикоя тарзининг раволиги, бадий санъатлар билан безангани, фикр ва қарашларнинг аниқ ифода этилиши матннинг шавқ билан ўқилишига замин яратади. Ўқувчиларга тушунарли бўлиши учун асардан келтирилган намуналарнинг насрий баёни ўқиб ўрганиши лозим.

“Маҳбуб ул-қулуб” асари панд-насихат, ахлоқий қарашлар бош мавзуга айланиб

Келтирилган “Саховат ва ҳикмат тўғрисида”, “Ҳилм тўғрисида”, “Сафарнинг фойдалари тўғрисида” пандлардан иборат.

Amaliy Mavzu. **5-SINF DARSLIGIDAGI KIRISH VA TAKRORLASH
MASHG'ULOTLARINI O'RGANISH.**

1.1. MASHG'ULOTNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni: 25ta	O'quv vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Informasion ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Til-ijtimoiy hodisa2. Ayrim unlilar va undoshlar imlosi.3. Bosh va kichik harflarning qo'llanishi.4. So'zlarning ma'no jihatdan turlari.5. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
<p>Mashg'ulotning maqsadi: 5-SINF DARSLIGIDAGI KIRISH VA TAKRORLASH MASHG'ULOTLARINI O'RGANISH haqida ma'lumot berish. Darslik haqida ma'lumot beriladi. Maktab darsliklarini ishlab chiqishdagi ahmayatli jihatlar, unda DTSning o'ri haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboyevlar tomonidan tuzilgan 5-sinf ona tili darsligi (2007) umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartiga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi talablarga javob beradi.</p> <p>Sharqda notiqlik san'ati Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus til va chiroyli nutq, nutq odobi haqida. Alisher Navoiy, Bobur, Husayn Voiz Koshifiy, Atoulloh Husayniy va mumtoz adabiyotimizning boshqa namoyandalari til va chiroyli so'zlash, so'zni o'rinli qullay olish haqida talabalarga to'liq tushuncha berish.</p>	
<p>Ma'ruza mazmuni. Darslik kirish mashg'uloti va takrorlash qismi bilan boshlanadi. Shuningdek, "Sintaksis va punktuasiya", "Morfologiya", "Fonetika" va "Leksikologiya" hamda o'quv yili oxirida takrorlash qismlari ham o'z aksini asosida takrorlash mashg'ulotlari keltirilgan. Darslikda ko'proq e'tibor nazariy ma'lumotlarga balki amaliy mashg'ulotlarga berilgan, o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda imkoni boricha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Darsliklardagi fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarda quyi sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so'zlarni noto'g'ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar Darsliklardagi fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarda quyi sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so'zlarni noto'g'ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim.</p> <p>O'quv yili oxirida takrorlash mashqlarini o'tishda yil davomida olingan bilimlarni tekshirish maqsadida har xil o'yin-topshiriqlar, test o'tkazish kabi usullardan foydalanish o'qtiriladi.</p>	

O'qitish vositalari	Aqliy hujum, Klaster sxemasi, Venn diagrammasi, shakllar.
O'qitish usuli va shakli	Amaliy, savollar, topshiriqlar, dialog, aqliy hujum, jamoaviy bo'lib ishlash.
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan o'quv xonasi.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kursga va mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Mashg'ulotning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi Darslik kirish mashg'uloti va takrorlash qismi bilan boshlanadi. Shuningdek, "Sintaksis va punktuasiya", "Morfologiya", "Fonetika" va "Leksikologiya" hamda o'quv yili oxirida takrorlash qismlari ham o'z aksini asosida takrorlash mashg'ulotlari keltirilgan. Darslikda ko'proq e'tibor nazariy ma'lumotlarga balki amaliy mashg'ulotlarga berilgan, o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda imkoni boricha amaliy topshiriqlarni bajaradilar	Tinglaydi, savollarga javob beradi
	1.2. Fanni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi (1- ilova)	Yozib oladi
2-bosqich. Asosiy bo'lim (20 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha topshiriqlarni so'raydi Darsliklardagi fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarda quyi sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so'zlarni noto'g'ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim	Tinglaydi, savollar bilan murojaat qiladi. Topshiriqni bajaradi

20 minut	<p>2.2 O'quv mashg'ulotining ikkinchi savoli bo'yicha topshiriqlarni so'raydi. DTSning o'rnini haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboyevlar tomonidan tuzilgan 5-sinf ona tili darsligi (2007) umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartiga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi talablarga javob beradi.</p> <p>O'rta Osiyoninggina emas, balki Yaqin va O'rta Sharqning mashhur mutafakkuri Abu Nosir Farobiy ham IX-X asrlarda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilmning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk insondir. Nutq va aql tarbiyasiga oid tillar to'g'risida Farobiy shunday yozadi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodlash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi, jismlarga, ya'ni substansiya va aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.</p> <p>Bulardan birinchisi va ikkinchisi haqiqiy bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Yaxshi do'st qaysi yo'l bilan axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga Ibn Sino alohida e'tibor beradi va notiq qo'yidagilarga amal qilishi lozim deb biladi.</p> <p>Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi "Qobusnoma" sidda ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'at o'rganligini ko'rsatadi. "Qobusnoma" ning "suhandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida" deb nomlangan ettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir ayrim to'g'ri mulohazalar bildiriladiki, bu o'sha davrda katta ahamiyatga ega bo'lgan va hozirda ham uning foydali tomonlari ko'zga tashlanadi.</p>	Tinglaydi, yozib oladi. Savollarga javob beradi
10 minut	<p>2.3 Darslik haqida ma'lumot beriladi. Maktab darsliklarini ishlab chiqishdagi ahamiyatli jihatlar, unda DTSning o'rnini haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboyevlar tomonidan tuzilgan 5-sinf ona tili darsligi (2007) umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartiga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi talablarga javob beradi.</p>	Tinglaydi, yozib oladi. Savollarga javob beradi

3- bosqich. Yakuniy qism (10 minut)	3.1 Mashg`ulotda qilingan har bir savol yuzasidan umumiy yakuniy xulosa chiqaradi.	Tinglaydi
	3.2. Talabalarning bilim va ko`nikmalarini baholaydi.	O`zini nazorat qiladi
	3.3 Keyingi mavzuni uyga vazifa qilib beradi	O`UM ga qaraydi

**MAVZU: № 2. SINTAKSIS VA PUNKTUASIYAGA OID
MAVZULARNING DARSLIKDA BERILISHI.
1.1. MASHG`ULOTNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI**

Talabalar soni: 25ta	O`quv vaqti: 2 soat
Mashg`ulot shakli	Informasion ma`ruza
Ma`ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gap haqida ma`lumot. 2. Gap bo`laklari haqida. 3. Gapning tuzilishiga ko`ra turlari.
<p>Mashg`ulotning maqsadi: Sintaksis va punktuasiya bo`limiga oid mashg`ulotlari o`rganish yuzasidan ma`lumot beriladi. Sintaksis bo`limida gap va unda so`zlarning bog`lanish, so`z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlari, gap bo`laklari, gapning tuzilishiga ko`ra turlari, uyushiq bo`lakli, undalmani gaplar, ko`chirma gap, kirish so`zlar, dialog va unda tinish belgilarining ishlatilishi kabi mavzularga oid mashq va topshiriqlar berilgan.</p>	
<p>Ma`ruza mazmuni. Darslik kirish mashg`uloti va takrorlash qismi bilan boshlanadi. Shuningdek, "Sintaksis va punktuasiya", "Morfologiya", "Fonetika" va "Leksikologiya" hamda o`quv yili oxirida takrorlash qismlari ham o`z aksini asosida takrorlash mashg`ulotlari keltirilgan. Darslikda ko`proq e`tibor nazariy ma`lumotlarga balki amaliy mashg`ulotlarga berilgan, o`quvchilar o`zlari mustaqil ravishda imkoni boricha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Darsliklardagi fonetika bo`limiga oid mashg`ulotlarda quyi sinf o`quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so`zlarni noto`g`ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me`yorlari, nutq tovushlarining ma`no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko`proq e`tibor qaratish lozim.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar Ushbu bo`limga jami 46 soat dars soati berilgan bo`lib, shundan 4soati takrorlash, 3 soati mustahkamlash darsi hisoblanadi. Darslikda mavzuga oid qoidalarga kamroq joy ajratilib asosan mashq va topshiriqlarga katta e`tibor berilgan. Ma`lum bir fikrni ifodalash uchun so`zlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bog`lab, gap tuzamiz. So`zlarning bir-biriga bog`lanishi, gap va uning turlarini o`rgatadigan tilshunoslik bo`limiga sintaksis, tipini belgilari va ularni yozma nutqda to`g`ri qo`llash yo`l – yo`riqlarini</p>	

o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga esa punktuasiya deyiladi. So'zlarning bog'lanish deyiladi ikki xil bo'ladi: teng bog'lanish va tobe bog'lanish.	
O'qitish vositalari	Aqliy hujum, Klaster sxemasi, Venn diagrammasi, shakllar.
O'qitish usuli va shakli	Amaliy, savollar, topshiriqlar, dialog, aqliy hujum, jamoaviy bo'lib ishlash.
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan o'quv xonasi.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kursga va mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Mashg'ulotning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi Darslik kirish mashg'uloti va takrorlash qismi bilan boshlanadi. Shuningdek, "Sintaksis va punktuasiya", "Morfologiya", "Fonetika" va "Leksikologiya" hamda o'quv yili oxirida takrorlash qismlari ham o'z aksini asosida takrorlash mashg'ulotlari keltirilgan. Darslikda ko'proq e'tibor nazariy ma'lumotlarga balki amaliy mashg'ulotlarga berilgan, o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda imkoni boricha amaliy topshiriqlarni bajaradilar	Tinglaydi, savollarga javob beradi
	1.2. Fanni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi (1- ilova)	Yozib oladi

<p>2-bosqich. Asosiy bo'lim (20 minut)</p>	<p>2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha topshiriqlarni so'raydi Darsliklardagi fonetika bo'limiga oid mashg'ulotlarda quyi sinf o'quvchilari nutqida uchraydigan kamchiliklar, siytniqsa talaffuzi va imlosida farq qiladigan tovushlarni farqlay olmaligi, buning natijasida so'zlarni noto'g'ri yozish hollarini nazarda tutib, ayrim unliliar imlosi, talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi kabi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim</p>	<p>Tinglaydi, savollar bilan murojaat qiladi. Topshiriqni bajaradi</p>
<p>20 minut</p>	<p>2.2 O'quv mashg'ulotining ikkinchi savoli bo'yicha topshiriqlarni so'raydi. DTSning o'rnini haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyevlar tomonidan tuzilgan 5-sinf ona tili darsligi (2007) umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartiga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi talablarga javob beradi.</p> <p>So'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: teng bog'lanish va tobe bog'lanish.</p> <p>Olma va o'rik shaklidagi bog'lanish tobe bog'lanish, olmani yomoq shaklidagi bog'lanish tobe bog'lanish sanaladi.</p> <p>Ikki so'zning biri tobe, ikkinchisi hokim tazida bog'lanishga tobe bog'lanish deyiladi. Tobe bog'lanishda doim ikkita qism: tobe va hokim so'z bo'ladi. Tobe so'z hakim so'zga bog'lanadi. So'roq hokim so'zga qarab beriladi. So'roqqa javob bo'luvchi so'z tobe qism sanaladi.</p> <p>Shu tariqa qoidalar batafsil berilgan bo'lib, mashqlar, o'yin-topshiriqlar, rasm asosida hikoya tuzish kabi mashg'ulotlar hovola etilsa.</p>	<p>Tinglaydi, yozib oladi. Savollarga javob beradi</p>
<p>10 minut</p>	<p>2.3 Darslik haqida ma'lumot beriladi. Maktab darsliklarini ishlab chiqishdagi ahamiyatli jihatlar, unda DTSning o'rnini haqida fikrlar bayon etiladi. Maktab darsliklarining boshqa darsliklardan farqli tomonlari aytib o'tiladi. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyevlar tomonidan tuzilgan 5-sinf</p>	<p>Tinglaydi, yozib oladi. Savollarga javob beradi</p>

	<p>ona tili darsligi (2007) umumiy oʻrta taʼlim davlat taʼlim standartiga mos holda tuzilgan boʻlib, undagi talablarga javob beradi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sintaksis boʻlimiga oid mashgʻulotlar darslikdagi berishi holati haqida. 2. Punktusiyaga oid mavzularning darslikda berilishi borasidagi fikrlaringiz. 3. 5-sinf oʻquvchilari uchun mavzularni tushunarli qilib berilishi haqidagi fikringiz. 	
3- bosqich. Yakuniy qism (10 minut)	3.1 Mashgʻulotda qilingan har bir savol yuzasidan umumiy yakuniy xulosa chiqaradi.	Tinglaydi
	3.2. Talabalarning bilim va koʻnikmalarini baholaydi.	Oʻzini nazorat qiladi
	3.3 Keyingi mavzuni uyga vazifa qilib beradi	OʻUM ga qaraydi

